

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI
NAMANAGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

UDK: 16-5A120301-04

RASULOVA RISLIG'OY ABDULLA QIZI

**Rossiya imperiyasi tarkibidagi turk – musulmon xalqlari o'rtasidagi
ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy munosabatlar**

5A120301 – O'zbekiston tarixi

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

Ilmiy rahbar:

t.f.n., dots. A.A.Isoqboyev

Namangan – 2016

MUNDARIJA

Kirish	3
I Bob. Turk - musulmon xalqlarida milliy uyg'onish va hamkorlik aloqalari	
1.1. Rossiya imperiyasi turk - musulmon xalqlarida milliy uyg'onish, jadidchilikni vujudga kelishi: muammo va yechimlar.....	13
1.2. O'rta Osiyoda jadidchilik: turk - musulmon xalqlari hamkorligida ziddiyat va yechimlar.....	25
II Bob. Turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi munosabatlarda Ismoil Gasprali va Zakiy Validiy To'g'onning tutgan o'rni	
2.1. Ismoil Gaspralini turk - musulmon xalqlari ma'rifatida tutgan o'rni.....	39
2.2. Turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi ilmiy, ijtimoiy – siyosiy jarayonlarda Ahmad Zaki Validiy To'g'onning tutgan o'rni.....	51
III Bob. Turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi ijtimoiy – siyosiy va madaniy – ma'rifiy aloqalar	
3.1. Musulmon xalqlari deputatlari fraktsiyasining Rossiya Davlat dumasidagi faoliyati.....	69
3.2. Turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi madaniy – ma'rifiy munosabatlar.....	86
Xulosa	110
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	115

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgach, o'n yillar davom etib kelgan tarixga noxolisona yondashuv, tarixiy dalillar va talqinlarga hukmron mafkura nuqtai nazaridan baho berishga barham berildi. Vatanimiz tarixini xolisona yoritish imkoniyati tug'ildi. Prezident I.A.Karimov yurtimiz tarixini o'rganish, tariximizdagi shonli – shavkatli, og'riqli davrlardan ham xulosa chiqara bilish muhim ahamiyat kasb etishiga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlab, yaqin o'tmishdagi, kechagi “tarix biz uchun hayot maktabi, bamisoli tiniq bir ko'zgu. Unga qarab saboq olamiz, xulosa chiqaramiz, kelajak yo'lini belgilaymiz”, - deydi¹.

Tarix o'zining tutgan o'rniga ko'ra saboq chiqarishga, yosh avlodga bosib o'tgan yo'limizdagi barcha voqea – hodisalarni tanqidiy o'rganishga, milliy g'ururga va ayni paytda qayg'uli holatlarga, muvaffaqiyat hamda zafarli davrlar bilan qarama – qarshiliklar, ziddiyatlar, qo'yilgan xato va kamchiliklarni ham chuqur tahlillar asosida o'rganishi bilan muhim ahamiyatga ega. Zero, I.A.Karimov ta'kidlaganidek, tarix xotirasi “... milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'yat muhim o'rin tutadi”². Shu o'rinda, turli davrlarda, har xil sabablar asosida Rossiya imperiyasi tarkibiga, uning ta'sir doirasiga kiritilgan turk - musulmon xalqlari tarixini, ular o'rtasidagi ijtimoiy – siyosiy, madaniy – ma'rifiy munosabatlarni o'rganish, bugun o'zligini yangi tarixiy mushohadalarga suyangan holda angelayotgan xalqlar uchun katta ahamiyatga ega.

Zero, mustaqillik yillarida tariximizga, o'zbek xalqining jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rniga yangicha qarash imkoniyati tug'ildi. Yangicha qarash va xolisona yondashmoq uchun tarixni bilmoq va kerak bo'lsa saboq chiqarmoq kerak. O'z paytida Turkiston jadidlarining otasi sanalmish Mahmudxo'ja Behbudiy “Tarix va Jo'g'rofiya” asarida shunday deb yozgan edi:

¹ Каримов И.А. Она юргимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2015. – Б.112

² Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б. 140-141

“Dunyoga ishonmoq uchun, komil va bilmoq kerak. Podshoyu vazir, hukumat odamlari va siyosiy kishilar uchun tarix o’qumoq kerak. Past qolgan va yo taraqqiy qilgan xalqlarni... hukumatlarni bilmoq uchun tarix o’qimoq kerak... Musulmonlik qanday ko’paydi va taraqqiy etdi va aloxon na uchun musulmonlar tanazzul etdilar? Buni bilmoq uchun tarix o’qimoq kerak”³.

Yuqorida keltirilgan fikrlar tom ma’noda turk - musulmon xalqlari tarixini, ayniqsa uni madaniy – ma’rifiy, ijtimoiy – siyosiy jihatdan, milliy uyg’onish davri deb e’tirof etilgan XIX asr oxiri – XX asr boshlarini o’rganish muhim ahamiyatga molik bo’lib, bu mavzuning bugungi kunda dolzarbligini belgilaydi. Chunki mustaqillik yilarida Vatanimiz tarixi, millatlararo munosabatlar, Turkistonning Rossiya imperiyasi, sovet tuzumi mustamlakachilik davriga oid tarixiy jarayonlar, ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy ahvol, qurolli qarshilik harakati, oziq – ovqat tanqisligi, xotin – qizlar ahvoli kabi bir qancha masalalar tadqiqot ob’ekti bo’lgan bo’lsa – da, shu paytga qadar Rossiya imperiyasi tasarrufi va ta’sir doirasiga turli davrlarda kiritilgan – bo’ysundirilgan turk - musulmon xalqlarining o’zaro ijtimoiy – siyosiy, madaniy – ma’rifiy munosabatlarini kompleks tarzda, alohida tadqiqot ob’ekti sifatida o’rganilmagan. Shu sababdan ham tadqiqot ob’ekti sifatida Rossiya imperiyasi hududida istiqomat qilayotgan, tili, dini va ruhiyati bir – biriga yaqin bo’lgan, tarqqiyot bosqichi va turmush tarziga ko’ra bir – biriga yaqin va ayni paytda, ”uzoqni mo’ljallab” bir–biridan ayrilgan turk - musulmon xalqlarining o’zaro hamkorligi, bir – biriga suyanishi va bu borada turli ziddiyatli holatlarga qarshi tura berishi turli tarixiy manba va adabiyotlar asosida o’rganishni, tarixiy jihatdan tahlil qilishni va ilmiy xulosalar chiqarish zaruriyatini keltirib iqaradi. Bu ham tadqiqot mavzusi dolzarbligini belgilovchi omillardan hisblanadi.

Tadqiqot obyektini va predmetini bo’lib, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tarkibidagi turk – musulmon xalqlari o’rtasidagi ijtimoiy – siyosiy va madaniy – ma’rifiy munosabatlarni Markaziy Osiyo,

³ Қаранг: Алимова Д. Ҳақиқатнинг туташ манзили // Тафаккур, № 2, 2000

Kavkaz, Rossiya hududlari bilan bog'liq adabiyotlar asosida tahlil qilish hisoblanadi.

Tadqiqotning davriy va hududiy chegarasi. XIX asrning oxiri – XX asrning boshlari tadqiqotning davriy chegarasi qilib belgilandi. Mazkur davr tarixiylik nuqtai nazaridan qaraganda Rossiya imperiyasi tasarrufidagi turk - musulmon xalqlari, ya'ni ular o'rtasidagi ijtimoiy – siyosiy, madaniy – ma'rifiy munosabatlarda muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davr turk - musulmon xalqlari o'rtasida munosabatlarni yo'lga qo'yish, bir – biriga yaqinlashish, hamkorlik aloqalarini o'rnatishga qaratilgan. Mavzu bo'yicha tadqiqot sub'ektlariga Rossiya imperiyasi tarkibida turk - musulmon xalqlari g'uj bo'lib yashaydigan markaziy guberniyalar, Volgabo'yi, Uraloldi hududlari: Boshqirdiston, Tatariston, Ulyanovsk(Simbirsk), Samara, Orenburg va Kavkaz, Qrim, Turkiston⁴ kirgan.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Rossiya imperoyasi tarkibidagi turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishdan iborat bo'lib, quyidagi maqsad va vazifalarni bajarish belgilangan:

- imperiya tasarrufi va ta'sir doirasidagi turk - musulmon xalqlarining ijtimoiy – siyosiy ahvolini aniqlash;

- turk - musulmon xalqlarini madaniy – ma'rifiy holatini belgilash;

- Qrim, Kavkaz, markaziy guberniyalarda jadidchilikni vujudga kelishi bilan bog'liq jarayonlar va bunga oid ziddiyatlarni yoritish;

O'rta Osiyoda jadidchilikni vujudga kelishidagi turk - musulmon xalqlari hamkorligi ni ochib berish;

- Ismoil Gaspralini O'rta Osiyoda turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi hamkorlikda tutgan o'rnini aniqlash;

- Zakiy Validiy To'g'orni turk - musulmon xalqlari xalqlarining ilmiy, ijtimoiy – siyosiy jarayonlardagi tutgan o'rniga baho berish;

⁴ Бу ерда нафақат Туркистон, балки империя таъсир доирасида бўлган Бухоро амирлиги, Хива хонлиги ҳам кирган - диссертант

- turk - musulmon xalqlarining o'zaro ma'rifiy – yangi usul maktablarini yo'lga qo'yishdagi hamkorlik aloqalarini tahlil etish;

- Turkistonda sana'tini vujudga kelishida, turk - musulmon madaniy aloqalarda hamkorlik munosabatlarni yoritish;

- Rossiya Davlat dumasida musulmon deputatlari fraktsiyasining turk - musulmon xalqlari muammolarini ko'rib chiqish, ularning manfaatlarini himoya qilishdagi faoliyatlarini yoritishdan iborat.

Ilmiy yangiligi. Mavzuni yoritishda mafkuraviy tazyiqlardan xoli tarzda, mustaqillik mushohadasiga tayangan holda quyidagi yangiliklar ilmiy muomalaga kiritildi:

- ilk bor Rossiya imperiyasi tarkibi va ta'sir doirasida yashovchi turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi munosabatlar tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganildi;

- ilk bor turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi ma'rifiy munosabatlar Rossiya va O'zbekistonda chop etilgan adabiyotlar qiyosiy tahlili ostida ko'rib chiqildi;

- ilk bor turk - musulmon xalqlarini Turkistonda teatrni vujudga kelishidagi, o'lkaga teatr truppalari gastrollari misolidagi hamkorlik aloqalari yoritib berildi;

- ilk bor yangi usul maktablarini vujudga kelishida turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi munosabatlar: ziddiyat va yechimlari tahlil qilib berildi;

- turk - musulmon xalqlari madaniy – ma'rifiy hayotida Ismoil Gaspali sa'y – harakatlari ko'rib chiqildi;

- Zakiy Validiy To'g'onning Turkistondagi ilmiy, ijtimoiy – siyosiy faoliyati yoritib berildi;

- Turkistonda ozarbayjon, tatar, aktyorlari va rejissyorlari, "Sayyor", "Nur" truppasining ijodiy hamkorliklari, gastrollari qayd qilindi;

- ilk bor turk - musulmon xalqlariga taaluqli masala va muammolar, ularning manfaatlari yo'lida Rossiya Davlat dumasida musulmonlar fraktsiyasi olib borgan siyosiy faoliyati yoritildi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Ushbu mavzuni o'rganish sovet davridagi tadqiqotchilar uchun ularni panturkchilik yoki panislomchilikda ayblash bilan tugatish mumkin edi. Lekin shunga qaramasdan, ayrim sovet davri tadqiqotlari mazkur mavzuning ma'lum qirralarini, juda chuqurlashtirilmagan holatlarda, asosiy e'tiborni "turkiylikka, musulmonlikka" qaratmay, o'zaro munosabatlarni qisman yoritish imkoniyatidan foydalanilgani ko'zga tashlanadi. Masalan, sovet tarixshunosligida turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi jadidchilik harakatiga baho berishda siyosiy xatolikka yo'l qo'yadilar. Xususan, jadidchilikni vujudga kelishi, ushbu harakat o'z oldiga o'zga milliy hududlarni bosib olish hisobiga kengaytirish, boshqa millatlarga ishonchsizlik hamda ko'ra olmaslikni maqsad qilib olgani ta'kidlanadi. Shuningdek, jadidchilik g'oyasi – bu panturkistlik va panislomlik deb qayd etiladi⁵. Bu xato qarashlar turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar rivojiga o'ziga xos to'g'anoq bo'lib xizmat qilgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, mavzuga oid chop etilgan adabiyotlar, olib borilgan tadqiqotlar va nashr etilgan ilmiy maqolalarni uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Rossiya imperiyasi davrida chop etilgan adabiyotlar
2. Sovet davri nashrlari
3. Sobiq SSSR parchalangandan so'ng yaratilgan ilmiy adabiyot va tadqiqotlar.

Birinchi guruhga XIX asr oxiri – XX asr boshlarida chop etilgan adabiyotlar kiritilib, Turkistonda ma'rifiy ahvol, yerli turk - musulmon xalqlarining turmush tarzi, urf – odatlarini yerli aholi orasida yashab, amaliyotda ko'rib o'rgangan V.Nalivkin va M.Nalivkinalarning asari kiradi⁶. Yepiskop Alekseyning Rossiya imperiyasidagi turk - musulmon xalqlarining jadidchilik harakati, tatar va boshqirdlarning o'lkadagi ma'rifatparvarlik faoliyatlari, bu sa'y – harakatlarning yerli aholiga ta'siri to'g'risida yozilgan kitobi ham muhim

⁵ Гасырлар авазы – эхо веков №1/2, 1997. – С.102

⁶ Наливкин В., Наливкина М. Очерк. Быта женщины оседлого туземного населения Казань: Типография императорского университета. 1886. – С.220

ahamiyatga ega⁷. A.I. Dobromislov va S. Graminitsiyalar kitobida tatarlarning tutgan o'rniga, viloyatlardagi tekshiruv natijalari asosda tayyorlangan nizomda joylardagi jadid maktablarida tatar va boshqirdlarning ma'rifatparvarlik roliga to'xtalangan⁸.

Ikkinchi guruhga 1917 – 1991 yillarda chop etilgan adabiyotlar kiritilib, unda aktyabr (1917) davlat to'ntarishigacha va sovet hokimiyati hukmronligining dastlabki yillarida turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi madaniy – ma'rifiy, xususan maorif, davriy matbuot, teatrchilikni vujudga kelishida, jadidchilikni yoyilishidagi munosabatlar yoritiladi⁹. Mazkur kitoblar o'zida jamlagan qimmatli tarixiy dalillarga ega bo'lsa – da, sovet davriga xos bir tomonlama yondashuvi bilan ham ko'zga tashlanadi.

Uchinchi guruhga oid adabiyotlar, ilmiy – tadqiqotlar sobiq SSSR parchalangandan keyin chop etilgani, mafkuraviy chegaralashlardan xoli ekanligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Bu guruhga oid adabiyotlar Rossiya imperiyasi tarkibida bo'lgan turkiy xalqlar tarixiga yangicha yondashuv, o'zaro munosabatlar tahlilini xolisligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa bu O'zbekiston mustaqilligi sharoitida yaqqol ko'zga tashlanadi. Xususan, bu borada B. Qosimov ilmiy izlanishlari muhim ahamiyat kasb etadi¹⁰. U mustaqillikni dastlabki yillarida boshlagan ilmiy izlanishlarini keyingi yillarda ham davom ettirib, avvalo Ismoil Gaspralini turk - musulmon xalqlari ma'naviyati – ma'rifatida tutgan o'rniga e'tibor qaratgan bo'lsa, keyin jadidchilik harakatini vujudga kelishi, turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi madaniy – ma'rifiy

⁷ Епископ Алексей Современное движение в среди русских мусульман. Казань: Издание П.В.Шипинкина Центральная типография, 1910. – С.15

⁸ Добромислов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Т: Элноров Гиогр литер. О.А.Порцеве, 1912. – С.49-55; Граменицкий С. Положение инородического образование в Сыр – Дарьинской области Туркестанского генерал губернатора, 1916. – С. 70-71

⁹ Татар театры (1906-19226) Казан, 1926; Аршаруни А., Габидуллин Х. Очерки панисламизма и пантюркизма в России М.: Изд-ва «Безбожник», 1931; Губайдуллин А., Татарский театр дооктябрьского периода 1887 – 1917 Казань, 1964; Нафигов Р.И. Формирование и развитие передовой татарской общественно – политической мысли (Очерк истории 1895 – 1917 гг.). Казань, 1964; Шарапов Я.Ш. Национальные секции РКП (б) Казань, 1967; Гайнуллин М. Татарская литература и публицистика начала XX века Казань, 1968; Михайлова С. Формирование и развитие просветительства среди татар Поволжья (1800 – 1861) Казань, 1972; Татар совет театры Казан Татарстан китап нэшрияты, 1975; Илялова И. Межнациональные связи татарского театра Казань: Татарское книжное изд-во. 1985; Октябрьгэ кадэрге татар театры Казан Татарстан китап нэшрияты, 1988.

¹⁰ Қосимов Б. Гаспирли Исмоилбек Т.: Гафур Фулом номидаги “ Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. Т: “Маънавият”, 2002

munosabatlarni yoritgan. Bu borada Ya.G. Abdullin tomonidan jadidchilikni vujulga kelishi, rivoji va uning turk - musulmon dunyosidagi o'rnini yoritilganligi ham mkatta ahamiyatga ega¹¹. Turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi jadidchilik harakatining Turkistondagi bu harakat namoyondalari masalasi, o'zaro ijtimoiy – siyosiy munosabatlar D.Alimova va D.Rashidova tadqiqotlarida ham keng ilmiy jamoatchilikka yetkazilgani bilan muhim ahamiyatga molik¹². Mavzuga oid tadqiqotlar ichida Sh.Rizaev, Sh.Turdiyev, B.Tundjer, N.Karimov, A.Yuldashboev, M.Abdurahmonov, U.Dolimov, A.Mingnarov, R.Shigabdinovlar tomonidan chop etilgan maqola va asarlar keng qamrovli manbalarni ilmiy muomalaga kiritilganligi bilan ajralib turadi¹³. O'zaro ijtimoiy – siyosiy, madaniy – marifiy munosabatlar, xususan Turkistonni madaniy – marifiy hayotida tatar va boshqirdlarning tutgan o'rnini A. Isoqboev, D. Nasretdinova ilmiy tadqiqotlarida alohida mavzu tariqasida o'rganilib, bu katta ahamiyat kasb etgan¹⁴. S. Agzamxo'jaev va T.Qozoqov, D.N.Rajabova, R.N.Tursunovlar tadqiqotlarida keng qamrovli manba va adabiyotlar ilmiy muomalaga kiritilib, turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi munosabatlar, jadidchilik g'oyalarini ijtimoiy – siyosiy hayotdagi, ijtimoiy – iqtisodiy

¹¹ Абдуллин Я.Г Джадидизм среди татар: возникновение, развития и историческое место Казань изд – во “Иман”, 1998.

¹² Алимова Д.А. Историческое мировоззрение джадидов и их проекция будущего Туркестана / Туркестон мустақиллиги ва бирлиги учун кураш саҳифаларидан. Т.: “Фан”, 1996; Алимова Д., Рашидова Д. Махмудхожа Бехбудий и его исторические воззрения. Т.: “Манавият”, 1998; Алимова Д. Жади́дчи́лик ҳаракатининг ижтимоий – сиёсий моҳияти ва жади́длар тафаккури / жади́дчи́лик: ислохот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Т.: “Университет”, 1999; Алимова Д. Жади́дчи́лик ҳаракати ва унинг ижтимоий – сиёсий моҳияти. Жади́дларнинг давлатчиликка оид қарашлари / Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очрқлари. Т.: Шарқ, 2001

¹³ Ризаев Ш. Жади́д драмаси. Т.: «Шарқ», 1997; Турдыев Ш. Среднеазиатские татары: роль и значение в культурной и политической жизни Туркестана первой четверти XX в. / Ислам в татарском мире: история и современность (Материалы международного симпозиума Казань, 29 апреля – 1 мая 1996г. Казань, 1997; Байкара Тунджер. Заки Валиди Тоган. Уфа. “Китап”, 1998; Каримов Н. XX аср бошларида тарихий вазият ва жади́дчи́лик ҳаракатининг вужудга келиши – “Ўзбекистоннинг янги тарихи. Концептуал методологик муаммолар” мавзудаги республика илмий – назарий анжуман материаллари. Т.: “Академия” нашриёт, 1998; Юлдашбаев А.М. Известный и неизвестный Заки Валиди. Уфа, “Китап”, 1998; Абдурахманов М. Научная деятельность А.З. Валидова в Туркестане Т.: Изд-во “Фан” АН РУз., 2004; Долимов У. Туркестонда жади́д мактаблари. Т.: “Университет”, 2006; Мингаров А. Туркестондаги ижтимоий – сиёсий жараёнларнинг миллий матбуотда ёритилиши (1917 – 1918 йиллар). Т.: “Истиқлол нури”, 2013; Шигабдинов Р.Н. Пробуждение Туркестана / Тарихнинг номаълум саҳифалари. Тўртинчи китоб. Т.: Фафур Гулом номидаги нашриёт – матбаа уйи, 2013;

¹⁴ Исоқбоев А. Туркестон ижтимоий – сиёсий ва маданий ҳаётида татар – бошқирд маърифатпарварларининг фаолияти (XIX аср охири – XX аср бошлари) Тарих фан. номз. дисс. Наманган, 2008; Насретдинова Д., Туркестоннинг маданий ҳаётида татар – бошқирд аёлларининг тутган ўрни (XIX аср охири XX асрнинг биринчи чораги): Тарих фан. номз... дисс. – Тошкент, 2011; Унинг ўзи. Туркестон маданий ҳаётида татар аёллари. Т.: “Янги нашр”, 2015

jarayonlardagi, yoshlar hamda ayollar tafakkuridagi o'rniga chuqur ilmiy tahlil asosida yondashilgan¹⁵.

Yana alohida ta'kidlash mumkin bo'lgan tadqiqotlar ichida Z. Abdurashidovning monografiyasi keng qamrovli adabiyotlarni o'z ichiga olganligi, xorijiy manbalar asosida tahlil qilgani bilan ajralib turadi¹⁶. Turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi ijtimoiy – siyosiy munosabalar bo'yicha alohida tadqiqot ham bor. U ham bo'lsa, o'zaro munosabatlarga oid bo'lib, unda D.Usmanova tomonidan chop etilgan kitobi¹⁷ Volgabo'yi, Uraloldi va Qrim hududlaridan tatarlar, shuningdek O'rta Osiyodan o'zbek va qozoqlar, Kavkazdan ozarbayjon, chechen, dorgun, lezgin, tekinlarning siyosiy faoliyati to'g'risida fikr yuritiladi. Mazkur kitobda musulmon fraktsiyasining shakllanish jarayoni, fraktsiya faoliyati bilan bog'liq: yutuq va kamchiliklar, og'riq nuqtalar, siyosiy qarashlar, aniq bir siyosiy oqimlarga intilishlar, har bir musulmon – deputatlar faoliyati tahlili bo'yicha o'z munosabati yoritiladi. Mazkur kitobda, Rossiya Davlat dumasida musulmon – turk deputatlarining siyosiy faoliyati boshqa parlament birlashma – fraktsiyalaridan ajralgan holda emas, balki ular bilan yaqin aloqadagi faoliyati o'rganilgan. D.Usmanova o'z asarida asosiy e'tiborni turk - musulmon deputatlari fraktsiyasining Rossiya Davlat dumasidagi “vijdon erkinligi” muammolari yechimidagi faoliyatiga qaratadi. Mazkur muammo yuzasida ko'pgina qonun loyihalari ishlab chiqilgani va ularni Davlat dumasida ko'rib chiqilganiga e'tibor berilgan. Kitob foydalanilgan manbalar doirasi kengligi, xorijiy va mahalliy adabiyotlar ko'pligi bilan ham muhim ahamiyatga ega. D.Usmanova o'z tadqiqotida arxiv hujjatlaridan va xotira – memuarlardan ham unumli foydalangan. Muallif o'z tadqiqotida matbuot

¹⁵ Казаков Т.К. Общественно политическое положение в Ферганской долине и джадидское движение в начале XX века. Автореферат дисс. на соиск. учен. степ к.и.н., Ташкент, 2001; Ражабова Д.Н. Проблемк молодёжни и женщин в воззрениях джадидов Туркистана (конец XIX начала XX вв.) Автороф. дисс. на соиск. учен. степен. к.и.н., Ташкент, 2003; Турсунов Р.Н. Воззрения национальных прогрессистов на социально – экономические прогрессы в Туркестане в начале XX века. автореф. дисс. на учен. степен. к.и.н., Ташкент, 2008; Агзамходжаев С. История Туркестанской Автономия (Туркистон Мухторияти) Т.: Изд-во “Тошкент ислом университети”, 2006

¹⁶ Абдурашидов З. Исмоил Гаспринский и Туркестан в начале XX веа: связи – отношения – влияние Т: “AKADEMNASHR”

¹⁷ Усманова Д. Мусульманская фракция и проблемы «Свободы совести» в Государственной Думе России (1906-1917). Казань; “Мастер Лайн”, 1999, 164 с.

materiallariga ham keng o'rin ajratgan. Yana e'tiborga molik tomoni shuki, tadqiqotda musulmon – turk deputatlari portreti ham berilgan. Bu o'sha davr muhiti: milliy kiyimlardan ham dalolat beradi¹⁸. Musulmon dunyosidagi islohotchilik, yangilanish jarayoni, O'rta Osiyoda jadidchilik harakati bilan bog'liq masalar nemis olimasi Ingeborg Baldouf asarida ham o'z o'rniga ega¹⁹.

Ammo shuni alohida ta'kidlash joizki, yuqorida qayd etilgan maqola va adabiyotlar ko'lamini, ko'targan masala va muammolariga ko'ra muhim ahamiyat kasb etsa – da, ularning hech birida turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi ijtimoiy – siyosiy, madaniy – ma'rifiy munosabatlar kompleks tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilgan. Shu paytga qadar o'zaro munosabatlarni Turkiston, Kavkaz, Qrim, Volgabo'yi, Uraloldi hududlariga ta'siri alohida tadqiqot sub'ekti tariqasida hamda mavzular sifatida o'rganilmagan. Endilikda, imperiya tarkibidagi turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi munosabatlarni har tomonlama o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslari. Mavzuni yoritish jarayonida Prezident I.A.Karimovning tarixga xolis yondashuv bo'yicha o'z asarlarida ilgari surilgan g'oyalar, mustaqillik mushohadasi asosida tarixiy voqealarga, millatlararo munosabatlarga xolisona yondashuv, davriylik va tarixiylik tamoyillariga, o'zaro munosabatlarning tutgan o'rniga xolisona baho berish muhim ahamiyat kasb etdi. Turk - musulmon xalqlari o'rtasida madaniy – ma'rifiy munosabatlar samarsi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotganligi tarixiy misollarda, hozirgi zamon tarix faniga qo'ygan talablar asosida choib berildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, ilk bor umumlashgan holda turk - musulmon xalqlarining geografik jihatdan Rossiya imperiyasi hududidagi o'zaro munosabatlari keng qamrovli adabiyotlar tahlili va ularni ilmiy muomalaga kiritish asosida o'rganib chiqildi. Turk - musulmon xalqlari tili, dini, ruhiyati mushtarakligi, davriy jihatdan farq qilsada,

¹⁸ Қаранг: Гасъерлав авазы – Эхо веков, № 3/4, 1999. – С.308-309

¹⁹ Балдауф Ингеборг XX аср ўзбек адабиётига чизгилар. Т.: “Маънавият”, 2001

imperiya mustamlakachiligi asorati ostida yashayotganligi, turli milliy, siyosiy, madaniy – ma’rifiy cheklovlarga tortilganligi, islomiy – musulmonchilik dunyosida o’z qobig’iga o’ralib qolganligi, Yevropacha taraqqiyotga intilmasdan “Osiyocha mushohadaga” bog’lanib qolganligi, diniy mutaassiblikni dunyoviy fanlarga yo’l ochmaganligi bilan ko’zga tashlangani nazariy jihatdan o’rganib chiqildi. Tadqiqot orqali turk - musulmon xalqlari hamkorligi natijasida o’zaro munosabatlarni ijtimoiy – siyosiy, madaniy – ma’rifiy taraqqiyoti, qarma – qarshiligi, ziddiyatli jarayonlarini o’rganish zarurati borasida amaliy ahamiyati ko’zga tashlanadi.

Dissertatsiyani ilmiy – amaliy ahamiyati. Mavzuni o’rganish jarayonida ilk bor Rossiya imperiyasi turk - musulmon xalqlari xalqlari o’rtasidagi ijtimoiy – siyosiy, madaniy – ma’rifiy munosabatlar ko’p sonli adabiyotlarni o’rganish, qiyosiy tahlil qilish orqali keng miqyosda yoritildi. Tadqiqotda keltirilgan ma’lumotlar ilmiy asosga ega bo’lib, unda nafaqat O’zbekistondagi munosabatlar balki Rossiya ilmiy jamoatchiligi qarashlari ham o’rin olganligi bilan muhim ahamiyatga molik. Imperiya tarkibidagi turk - musulmon xalqlari o’rtasidagi XIX asr oxiri – XX asr boshlariga oid – milliy uyg’onish davri bilan bog’liq o’zaro munosabatlarning muhim jihatlari asosida o’quv qo’llanmalar, darsliklar yaratishda, respublika baynalminal markazlaridagi turkiy xalqlar madaniyat markazlari ilmiy – amaliy faoliyatida, tarix mutaxassisliklarida tahsil olayotgan bakalavr va magistratura uchun millatlararo va bag’rikenglikka oid maxsus kurslar tashkil etishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarini e’lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni va xulosalari muallif tomonidan respublika ilmiy amaliy anjumani va ilmiy to’plamlarda 4 tasi chop etilgan.

Tadqiqotning tarkibiy tuzilmasi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati hamda ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi... betni tashkil qiladi.

I BOB. TURK - MUSULMON XALQLARIDA MILLIY UYG'ONISH VA HAMKORLIK ALOQALARI

1.1. Rossiya imperiyasi turk - musulmon xalqlarida milliy uyg'onish, jadidchilikni vujudga kelishi: muammo va yechimlar

Ma'lumki, XIX asr oxiri – XX asr boshlari tarixda o'ziga xos iz qoldirgani, muammo va ziddiyatlarga boyligi, ijtimoiy-siyosiy uyg'onish, ta'lim va madaniyatda taraqqiyot uchun qo'yilgan qadami, gazeta va jurnallar, matbaachilikdagi ilg'or siljishlar bilan muhim ahamiyatga ega. Aynan XIX asr oxiri – XX asr boshlari turk - musulmon dunyosida ruhiy yaqinlashish, g'oyaviy birlashish uchun ham asos bo'ldi. Yuqoridagi omillar asosida yaqinlashuv, turkiy xalqlar o'rtasidagi munosabatlar rivojida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida keng quloq yozgan jadidchilik harakati katta rol o'ynadi. Jadidchilik harakatini mutaxassislar tomonidan “milliy uyg'onish” deb ham e'tirof etildi. Ana shu jadidchilik harakatining rahnamosi, taraqqiyparvar ziyoli, Rossiya mustamlakachiligi zulmini boshidan kechirayotgan turkiy xalqlar o'rtasidagi munosabatlarida katta iz qoldirgan, ularning turk - musulmon xalqlari ma'rifati yo'lida uyg'onishning boshida turgan Ismoil Gasprinskiy (Gasprali) edi. Turkiston jadidchilari rahnamosi Mahmudxo'ja Behbudiy iborasi bilan aytganda, aynan Ismoil Gasprali “Rusiyadagi butun turk-tatar xalqlarini juda oz tarixiy muddatda xayr-xo'shlik yo'li bilan yaxlit bir milliy oilaga birlashtirmoqqa noil bo'ldi”²⁰.

Ismoil Gasprali fikriga ko'ra, turkiy xalqlar ham boshqa xalqlardan qolishmaydigan, tili, diniy e'tiqodi, madaniy – ma'rifiy taraqqiyoti, jahon tsivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi va tutgan o'rniga ko'ra muhim ahamiyat kasb etgani hamda eta olishi bo'yicha aniq bir xulosaga kelgan qrimtatar ma'rifatparvari edi.

²⁰ Исмоилбек Гаспринский (Гаспрали). Ҳаёт ва мамот масаласи. Танланган асарлар. Т.: “Маънавият”, 2006 – Б.3.

Xalqni savodi, haqqi-huquqi unib o'sishi, rivojlanishida ziyolilarning tutgan o'rni muhim ahamiyatga molik hisoblanadi. Qaysiki xalq mustamlaka bo'lsa, metropoliya davlatlari izmidan chiqa olmay, to'la-to'kis nazoratda bo'lishlari aniq. Ana shunday mustamlaka hududlar qatorida, Rossiya ta'sir doirasidan chiqa olmagan mustamlakalar qatorida Turkiston o'lkasi, Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Kavkaz mintaqasi va boshqa Rossiya hududlari ham bor edi. O'z paytida Rossiya va O'rta Osiyo munosabatlari to'g'risida gap ketganda, turkiy xalqlar o'rtasidagi madaniy-ma'rifiy munosabatlarga to'xtalib, sharqshunos – akademik V.V.Bartold tomonidan o'rta asrlarda Volgabo'yiga (tatar, boshqird va boshqa turk - musulmon aholisi g'uj bo'lib yashaydigan hududlarga – R.R.) Buxoro va Xivadan madaniyat kirib kelganini qayd etib, XIX asrga kelib “tatarlar Rossiya orqali yevropacha madaniyat bilan tanishib, [endilikda] turkistonlik dindoshlarini ma'rifatli qilmoqdalar”, - deydi²¹. Ammo bu fikrlarda qanchalik “jon” borligi bo'yicha bahs qilish ham mumkin. Gap ma'rifat – madaniyat deganda nimalarni nazarda tutilganiga ham bog'liq... bu o'n yillar davomida marksizm klassiklari tomonidan deyarli barcha tegishli tadqiqotlarda kitobdan-kitobga iqtibos orqali ko'chirib kelinayotgan: “Rossiya Sharqqa nisbatan progressiv rol o'ynaydi... Rossiyaning hukmronligi Qora dengiz va Kaspiy dengizlari hamda Markaziy Osiyo uchun madaniylashtiruvchilik rolini o'ynaydi” – degan fikrni tasdig'idek gap. Ismoil Gasprali “Rossiya musulmonligi” asarida madaniylashish borasida fikr yuritib, Rossiyaning Sharqdagi buyuk madaniylashtiruvchiligi foizini uezd boshlig'iga, noibni pristavga, beklilikni oblast yoki guberniyaga, ushrni tan solig'iga, ipak to'nu beshmetni dvoryanlik yoqasiga almashtirishdan iboratligida emas, deydi²². U yana xalqlarni ilm-ma'rifatdan uzoqda saqlab kelayotganligi, musulmonlarning tili, dini, turmush tarzini buzishda Rossiya siyosatini ayblaydi. Unda Rossiya turk – musulmonlari o'rtasida bir-birini tanish, madaniy-ma'rifiy munosabatlarni yo'lga qo'yish, nafaqat diniy, balki dunyoviy bilimlardan ham

²¹ Бартольд В.В. Культура мусульманства. Петроград, 1918 – С.108.

²² Гаспринский И. Танланган асарлар... – Б.8

bahramand bo'lish, savodxonlikni oshirish uchun nima qilish kerak degan masala turardi. Mazkur masalalar yechimida, xususan turk - musulmon xalqlari uchun gazeta chop etishda Ismoil Gasprali tomonidan qilingan sa'y-harakatlar e'tiborga loyiq. Uch yillik xatti-harakatlar natijasi o'laroq, bir necha marta Sankt-Peterburgga borib-kelishlar o'z samarasini berib, 1883 yil 10 aprelidan "Tarjimon" gazetasi chop etila boshlandi²³. Ushbu gazeta 20 yil davomida Rossiya imperiyasi turk - musulmon xalqlari uchun yagona matbuot organi bo'lib xizmat qildi. Masalan, tarqalish geografiyasiga ko'ra "Tarjimon" gazetasi 1884 yilda 1000 ta chop etilgan bo'lsa, shundan 200 tasi Turkiston bo'ylab o'z o'quvchilarini topgan²⁴.

Mazkur gazeta orqali Ismoil Gasprali Rossiya turk - musulmon xalqiga qarata "Muallim" maqolasida aholini savodli qilish, yoshlarni o'qitish zaruriyati haqida fikr yuritib, "... bizning uchun eng go'zal ish ilm va maorif ishidir. Eng muqaddas ish ilmga, maorifga intilishdir deydi²⁵.

Haqiqan ham ma'rifatgina, tafakkurgina insoniyatni yorug'lik, ravnaq sari yetaklashi mumkin. Tarixga nazar solsak, Rossiya markaziy guberniyalari, xususan Volgabo'yi, Uraloldi hududlarida²⁶ ta'lim-tarbiyaga e'tibor uzoq tarixga, musulmonchilik an'analariga borib taqaladi. Ta'lim – tarbiyada islom aqidalariga, shariat qonun – qoidalariga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etgan. Turk - musulmon xalqlari uchun asosan o'quv yurti sifatida maktab va madrasa tushunilgan. Ma'lumki, dastlabki madrasalar X asrga – Movaraunnahr va Xurosonga borib taqaladi. Taxminan shu davrga borib, bulg'or shogirdlarni ham o'qitish boshlangan. Bu maktab darajasida bo'lgan. Albatta, bu maktablarda

²³ Туркий халқлар ҳаётида илк газета аслида XIX асрнинг 30-йилларида вужудга келган. Хусусан, "Таквими вақое" ("Воқеалар календари") туркча chop этилган бўлиб, бу туркий халқларнинг илк gazetasi ҳисобланади. 1860 йилдан "Таржимони аҳвол" чиқа бошлаган бўлса, 1862 йилдан "Тасвири афкор" gazetasi chop этилиб, бу ҳозирги Туркияда оммалашиб кетган. 1867 йилдан "Туркистон вилоятининг gazetasi" Тошкентда chop этилган бўлса, 1875 йилдан Ҳасан Зардобийнинг Озарбайжонда "Экинчи" gazetasi chop этилган. Қаранг: Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. Тошкент, "Маънавият", 2002 – Б. 40

²⁴ Гаспринский И. Ҳаёт ва мамот масаласи... – Б.15

²⁵ Гаспринский И. Танланган асарлар... – Б.15

²⁶ Ҳозирги Бошқирдистон, Татаристон, Чувашия, Удмуртия, Марий Эл республикалари ҳамда Ульяновск (Симбирск), Самара, Оренбург, Пенза, Саратов, Тамбов, Астрахон, Свердловск (Екатеринбург), Перм каби субъектларни ўз ичига олади.

boshlang'ich ta'lim berilgan xolos. Umuman olganda, tarixda madaniy – ma'rifiy va ijtimoiy – siyosiy, g'oyaviy mafkura va burilish, islohotchilik, ilm – fanlar tarqqiyoti, xalqlarning madaniyati, dunyoqarashi va tafakkurida yangilanishlar Uyg'onish – Renessans davri deb ataladi. Ana shunday Uyg'onish davrining birinchisi IX – XII asrlarda yuz bergan Islom uyg'onishi bo'lgan bo'lsa, ikkinchisi XIV - XVI asrlardagi Amir Temur va temuriylar hamda Yevropadagi Uyg'onish davri, uchinchi uyg'onish davri – bu XIX asr oxiri – XX asr boshlariga to'g'ri kelgan. Uchinchi uyg'onish davrini, avvalgi ikkita davrdan farqli o'laroq, Milliy uyg'onish davri bo'lgan deyish mumkin. Bu davr asosan turk - musulmon dunyosidagi madaniy – ma'rifiy islohotlarni, siyosiy qarashlarni o'z ichiga oladi. Xususan, XIX asr oxirlariga kelganda mintaqada turk - musulmon xalqlari o'rtasida ta'lim ikki xil: jadid-yangi usul va qadimiyat – eski usul tarzda ko'zga tashlanadi. Agar masalaga aniqlik kiritadigan bo'lsak, jadidchilik turk - musulmon dunyosi uchun o'ziga xos, navbatdagi milliy Uyg'onish davri bo'ldi. Haqli ravishda ta'kidlash mumkinki, XIX asr oxiri – XX asr boshlari Rossiya imperiyasi tarkibidagi turk – musulmonlar g'uj yashaydigan hududlar: Kavkaz, Volgabo'yi, Uraloldi, O'rta Osiyo mintaqalari uchun ham o'ziga xos ma'rifat bo'yicha milliy Uyg'onish davri bo'ldi deyish mumkin.

O'z paytida Herman Vamberi turk - musulmon dunyosidagi islohotchilik to'g'risida fikr yuritib, "...sira kutilmaganda islohotlar va ularni amalga oshirish bobida zo'r shijoat, g'ayrat va uddaburonlik ko'rsatildiki, bunaqasini ularning allaqachonlar taraqqiyot yo'lga qadam qo'ygan qabiladoshlari va dindoshlari ham namoyon etmagan edi. Ular islom diniga e'tiqod qo'ygan rus fuqarolaridir. Ular "tatar" degan (turk - musulmon xalqlarini nazarda tutgan – R.R.) umumiy nom ostida ma'lum va mashhurdir. Etnik jihatdan esa ular Volgabo'yi tatarlari, boshqirdlar, qirg'izlar, sartlar, Kavkaz tatarlari va Qrim tatarlari kabi guruhlariga ajraladi. ...Hamma joyda bo'lgani kabi, tatarlarning uyg'onish borasida ham ko'xna haqiqat yana bir bor o'z tasdig'ini topdi: madaniy harakatlar tashqaridan

zo'rlik bilan olib kirilmay, o'z – o'zidan, millatning ich-ichidan rivojlangan taqdirdagina madaniy inqiloblar muvaffaqiyat qozonmog'i mumkin" – deydi²⁷.

Qrim, Rossiya imperiyasi tarkibidagi turk - musulmon xalqlari yashaydigan Kavkaz va markaziy guberniyalarida jadidchilikni vujudga kelishi va uning taraqqiyot bosqichlari, tutgan o'rni, o'z oldiga qo'ygan maqsadi, yillar davomida shakllangani, rivoji va O'rta Osiyodagi jadidchilik harakatiga yaqinligi va ayni paytda farqi bilan ham ko'zga tashlanadi. Bu Rossiya imperiyasi sarhadlarida yashovchi turk – musulmonlar orasida, xususan, Qrim, Kavkaz, Volgabo'yi, Uraloldi, Turkiston, Buxoro va Xivada²⁸ ko'zga tashlanib, ular o'rtasida bir-biriga intilish, o'zaro hamkorlik rishtalarini o'rnatish jarayonlari kuchaydi. Yangi g'oyalar: islomchilik (panislomizm), turkchilik (panturkizm) o'zligini namoyon eta boshladi. Buning mohiyati Usmonli davlati – saltanati doirasida musulmonlarni birlashtirmoq edi. Islomchilik asta-sekin jamiyatning yetakchi g'oyalaridan biriga aylana bordi. Bu g'oyaning asoschisi sifatida Jamoliddin Afg'oniy (1839-1897)ni e'tirof etdilar. U 1870 yilning 20 fevralida Istanbul univetsitetining ochilishidagi nutqida: “Qardoshlarim, basirat ko'zlarini oching, ibrat ko'zi bilan boqing, g'aflat uyqusidan uyg'oning! SHuni bilingizki, islom millati martabasiga ko'ra eng quvvatli, viymatiga ko'ra eng qadrli edi. Aql, dariyat, farosatda, g'oyat yuksak edi... So'ng-so'ng millat rohat va tanballikda qoldi... U darajadaki, egulik nurlari so'nayozdi, maorif bayroqlari tushayozdi, iqbol quyoshi tutilmoqqa yuz tutdi. Islom millatining ayrimlari boshqa millatlar istilosiga tushdi. Ularga xorlik kiyimini kiydirdilar... Ollohga shukr, uyg'onish boshlandi... fursatni bermaylik, kesmishlarning sharafini, kelajak nasllarning huquqlarini zoe etmaylik...”, - deb qayd etgan²⁹. Bu da'vat mazmun – mohiyatiga ko'ra turk - musulmon xalqlari o'z paytida har tomonlama kuchli, rivojlangan, dunyoda o'z o'rniga ega bo'lgan bo'lsada, keyingi paytlarda ta'limda, salohiyatda sustkashlikka yuz tutgani, huzur-halovat

²⁷ Вамбери Херман. Маърифат йўлидаги уйғонишлар / Тафаккур, №2, 2000 – Б.62

²⁸ Тадқиқот хронологик даврида Бухоро амирлиги ва Хива хонилиги ҳам Россия империяси таъсир доирасида эканлигидан келиб чиқиб, империя таркибидаги турк - мусулмон халқлари ўзаро муносабатлари комплексида кўриб чиқилмоқда – Р.Р.

²⁹ Қосимов Б. Миллий уйғониш...: жасорат, маърифат, фидойилик. Т.: “Маънавият”, 2002. – Б. 79-80

hamda dangasalikka moyillik yuzaga kelgani, o'z istiqboli – kelajagini o'ylamay qo'ygani iztirob bilan bayon etilgan.

O'zaro munosabatlar mustahkamlanishida nafaqat diniy, balki til, tarixiy jihatdan ham bir – biriga yaqinlashtirish muhim ahamiyat kasb etgan. Boshqacharoq ifodalaganda, Rossiyadagi xo'rlanib kelayotgan turk - musulmon xalqlarini til, tarix, din asosida bir-biriga yaqinlashtirish – bu turkchilik edi. SHuning uchun ham bu g'oya juda qisqa muddatda Kakaaz, Volgabo'yi, Uraloldi va O'rta Osiyoni qamrab oldi. Turkchilik mohiyatiga ko'ra madaniy birlikka ehtiyoj katta bo'lganligidan tez yoyildi³⁰.

Ismoil Gasprali asosan Bog'chasaroyda yashasa-da, nafaqat Qrim, balki butun Rossiya imperiyasi turk - musulmon xalqlari ma'rifati – madaniyati, siyosiy ongi, iqtisodi rivojida xizmat qildi va o'chmas iz qoldirdi. 1883 yili³¹ Ismoil Gasprali Booqchasaroyda Xo'jai-Sabiyan nomida namunali maktabini ochdi. Mazkur maktab uchun Alifbe ham chop ettirib, ushbu maktab “usuli jadid” (boshqa nomi “usuli savtiya”) nomida yangi usulda bolalarni o'qitishga kirishdi. Natijada xalq orasida bu jadidchilik harakati nomi bilan tarqaldi. Qayd etish lozimki, jadidchilik dastlab bolalarni yangi usul asosida o'qitishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsa-da, sekin-asta bu harakat, mamlakatdagi ahvolni o'zgarib borishi, ijtimoiy qarama – qarshiliklarni kuchayib borishi bilan hayotning juda ko'p jabhalarida islohiyat zaruriyati borligini ko'zga tashlata boshladi³².

Turk - musulmon dunyosida jadidchilikni vujudga kelishiga qadar Rossiya imperiyasi tasarrufidagi, amaldagi – nazoratdagi musulmonlar, asosan madrasalardagi o'qitish tizimi orqali ma'lum islohotlar o'tkazish tarafdori bo'lganlar. Masalan, Ibrohim Xo'jachi Dog'iston ulamolari shogirdi bo'lgan holda, keyinchalik madrasalarni shakllantirish borasida muhim rol o'ynagan bo'lsa, bu Kavkazdagi ta'lim tizimini Volgabo'yidagi o'z o'rniga ega bo'lishida muhim ahamiyat kasb etgan. O'z navbatida XVIII asr oxirlaridan Volgabo'yi

³⁰ Қосимов Б. Миллий уйғониш... – Б. 79-80,86-88

³¹ Бошқа бир китобда 1884 йили деб кайд этилган. Қаранг: Қосимов Б. Миллий уйғониш. Т: “Маънавият”, 2002 – Б.6

³² Абдуллин Я.Г. Джадидизм среди татар: возникновение, развитие и историческое место. Казань, издательство “Иман”, 1998 – С.6

hududlari tatarlarining O'rta Osiyo xonliklari bilan savdo-sotiq aloqalari, ta'lim-tarbiyaga turk - musulmon xalqlarining munosabatlarida ham ta'sir qilmay qo'ymagan. Xususan, ko'plab Volgabo'yi, Uraloldi turk - musulmon xalqlari Buxoro, Xiva madrasalarida ta'lim olganlar. Buxoro madrasalaridagi o'qitish tizimi ma'lum bir payt – davrda Qozon, Qozonorti, Kargala uchun namuna rolini o'ynagan. Bu madrasalar o'z faoliyatlarida dogmatik g'oyalarni tarafdori bo'lgan bo'lsalar, Kikara, Mochkara, Sterlibosh madrasalari esa erkinligi, ilmiyligi bilan ajralib turgan. XIX asr ikkinchi yarmi – oxirlarida vujudga kelgan, Qozondagi Marjoniy, Orenburgdagi Xusayniya, Troitskdagi Rasuliya madrasalari yangi davr chaqirig'i-jadidizmga moyilligi bilan ko'zga tashlanadi. XX asr boshlariga kelganda Qozondagi Muhammadiya, Apanaevsk, Ufadagi Oliya va Usmoniya, Orenburgdagi Xusayniya, Troitskdagi Rasuliya, Vyatskdagi Bubi madrasalari jadidizmning markazi rolini o'ynay boshladi³³.

Yana shuni ta'kidlash joizki, Rossiya markaziy guberniyalarida, xususan Volgabo'yi, Uraloldi hududlarida jadidchilik harakatini vujudga kelishi va keng yoyilishi Ismoil Gasprali nomi bilan bog'liq deb hisoblansa-da, mazkur g'oya asosidagi ma'rifatchilik anchagina avvalroq tarqalganiga ham e'tibor qaratiladi. Xususan, ayrim rossiyalik tadqiqotchilar tomonidan “maktablarni isloh qilish va unga dunyoviy fanlarni kiritish masalasini tatar ma'rifatparvarlari tomonidan har tomonlama asoslash Gaspraliga qadar ham bo'lgan” degan fikrda ham jon bor. Masalan, XIX asr 60 – yillarida Xusain Fayzxonov tomonidan “Isloh mederis” (“Maktab islohoti”) nomida maxsus kitob chop etilib, unda o'sha paytdagi musulmon maktablari mutlaqo yaroqsiz deb, madrasalarni qayta qurish zarurligini taklif qilingan. SHuningdek, musulmonlardagi ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish bo'yicha SHahobiddin Marjoniy ham ko'p harakat qildi³⁴.

Ammo jadidchilik g'oyalarini keng jamoatchilikka yoyishda 1883 yili turkiy tildagi “Tarjimon” gazetasini chop ettirgani bo'ldi.

³³ Медресе г. Казани XIX – нач. XX вв. Сборник документов и материалов. Казань, изд-во “Гасыр», 2007-С.5-6

³⁴ Байшев Ф.Н. Общественно – политические и нравственно – этические взгляды Ризы Фахретдинова. Уфа, “КИТАП”, 1996 – С.28-29

“Tarjimon” gazetasi muhim rol o’ynadi. Gazetani tarqalishi Volgabo’yi, Uraloldi hududlarida 1883-1884 yillarda quyidagicha bo’lgan: 1883 yil aprelida gazetaga obuna bo’lganlar 320 kishini tashkil qilgan bo’lsa, 1884 yilga kelganda bu 1000 kishiga borgan va ulardan 500 nafari musulmon ruhoniylari, 300 nafari savdogar va tadbirkorlar, 150 nafari amaldorlar va 50 nafari boshqa soha vakillari edi³⁵.

Jadid atamasi Ismoil Gasprali tomonidan 1884 yili Qrimda muomalaga kiritilgan. Uning mohiyati, Boqchasaroyda 1884 yili 12 nafar bolalarni “usuli jadid” – yangicha usul bilan o’qitishga kirishadi. Qisqa muddat – 40 kunda bolalar savodi chiqadi. Bu turk - musulmon dunyosida an’anaviy yo’llarni o’z ichiga olgan ta’lim tizimiga nisbatan juda katta muvaffaqiyatli o’zgarish edi. SHu jarayon bilan jadidchilikka tamal toshi qo’yilgan deyish mumkin. Jadidchilikni yanada chuqurroq ildiz otishiga, kengroq quloch yoyishiga yana Ismoil Gasprali tomonidan jadid usulida o’quvchilar uchun “Xo’ajai sibyon” (“Bolalar muallimi”) kitobini chop etilishi va ushbu kitobni turk – musulmon dunyosida 1884 yildan 1910 yilga qadar 26 marta chop etilgani ham, qanchalik ushbu darslikka zarurat bo’lganidan dalolat beradi. Ismoil Gasprali “taklif qilayotgan usul osmondan tushgan emas, eskini yangilamoqdir... Jadid (yangi) usulining yoyilishi uchun qilayotgan harakatlarimiz sizlarga va ilmga bir xizmatdir. CHunki ota-bobolarimizdan qolgan milliy maktablarni isloh etish usuli jadid demakdir. Boshqa bir o’quv, boshqa bir maktab degani emas. Usuli jadid oz vaqtda ko’proq yanada mukammalroq o’qitish yo’llarini ko’rsatadi. Bundan boshqa narsa emas”, - deydi³⁶.

Ismoil Gasprali tomonidan jadidchilikni vujudga keltirish, uning taraqqiyoti va keng yoyilishi, amalda katta, keng qamrovli islohotlarni turk - musulmon dunyosida, xususan Kavkazda, Rossiyaning markaziy guberniyalarida, O’rta Osiyoda yoyishdan iborat edi.

³⁵ Баишев Ф.Н. Общественно – политические и нравственно – этические взгляды Ризы Фахретдинова. Уфа “КИТАП”, 1996 – С.33-34

³⁶ Гаспринский Исмоилбек. Ҳаёт ва мамот масаласи. Танланган асарлар. Т.: “Маънавият”, 2006. – Б.17-19

Jadidchilik g'oyasini turk - musulmon xalqlari o'rtasida yoyish jarayoni bir tekisda bo'lmagan. Buning uchun Ismoil Gasprali va uni maslakdoshlari tomonidan imperiya ma'muriyati to'sqinliklarini yengib o'tish, turli tekshiruv – “o'rganish”larga “turib berish” va ayni paytda turk - musulmon xalqlarining vakillari tomonidan qarshiliklarga barham berish, befarqliklarga sabr-toqat, e'tibor bilan yondashishga to'g'ri kelgan. Masalan, turk - musulmon xalqlari o'rtasida o'z g'oyasini targ'ib qilish, maslakdoshlar sonini ko'paytirish maqsadida, Gasprali 1882 yili Qozonga kelib turk - musulmon xalqlari maorifi, tarixi, madaniyati va istiqbollari to'g'risida batafsil fikr almashdilar. Qozonda Ismoil Gasprali o'z qarashlariga maslakdosh sifatida Sh.Marjoniy bilan tanishdi³⁷. Ammo shuni ta'kidlash joizki, Qozonda jadid maktablarini keng quloq otib yoyilishi Olimjon Barudiyning faoliyati bilan ham bog'liq. Uning jadidchilikka asoslangan ta'lim tizimidagi sa'y-harakati keyinchalik “Muhammadiya” madrasasi faoliyatida, turk - musulmon xalqlari bilim olishida ko'zga tashlandi. XIX asr oxirlaridan tez orada yana Qozonda “Usmoniya”, Orenburgda “Xusayniya”, Ufada “Usmoniya” va “Oliya”, Troitskda “Rasuliya” va boshqa madrasalar ochilib, jadidchilik g'oyalari amalga osha boshladi. SHunday qilib, Ismoil Gasprali tomonidan asos solingan jadidchilik XIX asr 80-yillaridan Rossiyaning markaziy guberniyalari va Sibirga keng yoyila boshlagan. 1910 yilga kelganda, faqatgina Qozon guberniyasidagi maktablarning 90 foizida jadidchilik yo'nalishi bo'yicha ta'lim berilgan³⁸.

Rossiya markaziy guberniyalari va Kavkazdagi jadidchilikni yoyilishi ma'lum bir tushunmovchiliklarga, qarshiliklarga uchradi. Xususan, ularga nisbatan “jadidlar ta'lim – tarbiyada qadimchilardan deyarli farq qiladigan tarzda emas... Yangi usuldagi maktablar dasturida dunyoviy fanlar bo'lishiga qaramasdan, biribir diniy tarbiya o'chog'i bo'lib qolaverdilar” – deb uqtirdilar³⁹.

³⁷ Абдуллин Я.Г. Джадизм среди татар: возникновение... – С.8-9

³⁸ Нафигов Р.И. Формирование и развитие передовой татарской общественно политической мысли Казань, 1964 – С.36

³⁹ Қаранг: Абдуллин Я.Г.Джадидизм среди. Татар: возникновение... – С.11

Haqiqatan ham jadidchilik asosidagi maktablarda, dastlabki yillari, diniy fanlar o'qitilishi saqlanib qolgan edi. Bu yerda asosan islom g'oyalariga asoslangan axloq-odob yuzasidan ham o'qitilar edi. Mavjud muammo shundan iborat ediki, dastlabki paytlarda dunyoviy fanlarni o'qitadigan o'qituvchilar, darsliklar yetishmasdi. Ammo qadamba-qadam dunyoviy fanlarni kiritishni ham yo'lga qo'ya boshlangan. Yana jadidchilikni tarqalishidagi to'siqlardan biri konservativ ruhdagi mullalar, qadimchilar o'z g'oyasidan voz kecha olmaganlari, chor samoderjaviyasining qarshiligi edi. Asta – sekin jadidchilik joylarda mustahkam o'rin ola boshladi. Masalan, turk - musulmon xalqlari uchun tushunarli bo'lgan tatar tilidagi kitoblar, darsliklarni ko'plab chop etilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, 1913 yili tatar tilida tarixga oid 46 ta, tilshunoslikka oid – 71 ta, iqtisod va kommertsiyaga oid – 6 ta, falsafaga oid – 15 ta, pedagogikaga oid 20 ta, texnika va amaliyotga oid – 9 ta, tabiiy fanlar va fizikaga oid – 33 ta, ximiya, astronomiya, matematikaga oid – 8 ta kitob chop etilgani ham jadidchilikni kengroq ko'lamda yoyilishi uchun muhim ahamiyat kasb etdi⁴⁰.

Jadidchilikni yoyilishi murakkab va qarama-qarshi, ziddiyatli jarayonlarni bosib o'tdi. Yuqorida qayd etilganidek, jadidchilik tarafdorlari bir paytning o'zida qadimchilar bilan qarama-qarshi uslublarning tarafdori edilar.

Rossiyaning Kavkaz va Volgabo'yi, Uraloldi hududlarida jadidchilik harakatining vujudga kelishi, keng yoyilishi bo'yicha bir xil yondashuv, yagona baho mavjud emas. Jadidchilikka berilgan baho yoki munosabat nafaqat u yoki bu tadqiqotchilarning qarashlaridan, balki berilgan baho munosabat shakllanayotgan davr bilan ham bir – birida farq qiladi. Masalan, G.Raimov, J.Validov, G.Sa'diylar jadidchilik harakatini ijobiy baholagan bo'lsalar, R.M.Rahimov buni yangi jamoatchilik harakati deb, bu harakat rus madaniyatiga yaqinlashtiradi deb hisoblagan. K.F.Faseev esa, bu harakatni reaksion oqim hisoblab, jadidlar bilan demokratik g'oyalar tarafdorlari bir – biridan tubdan farq qiladi deb qayd etganlar. R.I.Nafigov fikriga ko'ra, Rossiya

⁴⁰ Каримуллин А.Г. Татарская книга. Казань: Таткнигоиздатъ 1974 – С. 262

markaziy guberniyalaridagi jadidchilik harakatiga yagona, bir hil yondashuv bo'lishi mumkin emas. Uning fikriga ko'ra Ismoil Gasprali panislomchi, panturkchi va Volgabo'yi, Uraloldi hududlaridagi jadidchilik O'rta Osiyodagi mazkur harakatdan farq qiladi va bu 1905 yilgi inqilob tufayli ko'mib tashlangan. Boshqird ma'rifatchiligi bo'yicha tadqiqotchilardan bo'lmish A.X.Vil'danov, G.S.Kaufman jadidchilikni uch davrga bo'lib ajratadi:

1. XIX asr 40 – 70 yillari.
2. XIX asr 80 – yillaridan 1905 – 1907 yillardagi burjua – demokratik inqilobgacha.
3. 1905-1907 yillardan to 1917 yil oktyabr davlat to'ntarishigacha⁴¹

O'z navbatida jadidchilar Volgabo'yi, Rossiya markaziy guberniyalarida ruhoniylarning qattiq qarshiligiga, noroziligiga uchragan bo'lsalarda, yangi usuldagi maktablarni ish yuritishida har qanday sarf-xarajatga tayyor turdilar. Shu darajaga borib yetdiki, qadimchi – mullalar jadidchilik harakatiga qarshi kurashda chor Rossiyasi amaldorlariga tayandilar. CHor Rossiyasi amaldorlari tomonidan jadidchilik harakatiga mutlaqo qarshi bo'lmaganlari holda, hech bo'lmasa bu jarayonni rivoj topishga, yoyilishiga qarshilik qildilar.

O'z paytida, aniqrog'i, 1880 yili Ismoil Gasprali shu ezgu maqsadlar yo'lida, Volgabo'yi va Uraloldi hududlaridagi turk - musulmon xalqlari uchun 10 ta yirik shaharlardagi o'quv yurtlarida umumta'lim uchun geografiya, tarix, tabiatshunoslik, arifmetika, pedagogika asoslari, rus qonunshunosligi va boshqa fanlardan o'qitish g'oyasini ilgari surgan. Ismoil Gaspralining fikriga ko'ra, yuqorida tashkil qilinishi lozim bo'lgan maktablarda o'qituvchilikka Peterburg universitetining sharq fakul'teti, SHarq tillari Lazarev institutining bitiruvchilari jalb qilinishi kerak edi⁴².

Jadidchilik g'oyalarini targ'ibot – tashviqot ishlarini rivojlantirish borasida joylarga borib o'z ishlarini ko'rsata bilish ham muhim ahamiyat kasb

⁴¹ Баишев Ф.Н. Общественно – политические и нравственно – этические взгляды Ризы Фахретдинова. Уфа “КИТАП”, 1996 – С.31-33

⁴² Рахимов С. Социально – правовой статус татарских учебных заведений последней четверти XVIII - нач. XX вв. / Ислам в татарском мире: история и современность (материалы международного симпозиума, Казань 29 апреля- 1 мая 1996 г.). Казань, 1997 – С.76-77

etgan. Rossiya mintaqalarida buni amalga oshirish zarur edi. Xususan, Gasprali jadidchilik g'oyalarini yoyishda "Tarjimon" gazetasini o'zi yetarli emasligi, aniqrog'i Rossiya imperiyasi sarhadlarida turk - musulmon xalqlari g'uj bo'lib yashaydigan hududlarga borib targ'ibot – tashviqot ishlarini olib borish, o'qituvchilarni joylarga yo'llab ish yuritishni maqsadga muvofiq deb topadi. Masalan, 1887 yilda yangi usul maktabi o'qituvchisi Bakir Emakdorni Rossiyaning Ryazan viloyatiga yuboradi va u yerda Boqchasaroydan keyin ikkinchi yangi usuldagi maktab ochilishiga erishadi. Mazkur namunadagi yangi usul maktabi zimmasiga o'qitishning yangi usulini Nijegorod, Novgorod, Tambov va Penza viloyatlari bo'yicha tegishli o'qituvchilar tayyorlash orqali tarqatish yuklatilgan. Jadidchilikni Rossiya musulmonlari orasida tarqalishida Nijegorodni tutgan o'rni alohida ahamiyatga molik edi. Ma'lumki, har yili Rossiya imperiyasidagi musulmonlar Nijegoroddagi savdo yarmarkasiga yig'ilgan va bu Gaspralining jadidchilik g'oyalarini turk - musulmon xalqlari orasida targ'ibot-tashviqot qilish uchun eng qulay joy hisoblangan. SHu sababdan ham, Gasprali har yili 15-25 avgust oralig'ida Nijegorod bo'ladigan savdo yarmarkasiga tashrif buyurib, "Tarjimon" gazetasiga obuna bo'ladiganlar sonini ko'paytirishga va yangi usuldagi o'qitishni targ'ibot qilishga kirishgan. Ismoil Gasprali jadidchilik – yangi usuldagi maktablarida o'qitishning afzalligi bo'yicha o'z g'oyalarni targ'ibot va tashviqot qilishda Ryazandagi yangi usulda ta'lim olgan bolalarning otalaridan foydalangan. Nijegoroddagi majlislarda otalar so'zga chiqib, yangi usuldagi maktablar afzalligi bo'yicha o'z fikr – mulohazalarini bildirganlar. Bu sa'y – harakatlar tezda o'z natijasini bera boshlaydi. Xususan, 1890 yilga qadar yangi usuldagi o'qitish tizimini o'rganish uchun Boqchasaroyga Rossiyaning turli mintaqalarida 80 nafar o'qituvchilar tashrif buyuradi. Kelgan o'qituvchilar orqali Gasprali o'zining "Xo'ja – sibyon" darsligini ham tarqatadi. "Tarjimon"da berilgan ma'lumotga ko'ra 1892 yilda yangi usuldagi maktablar 30 taga, 1893 yilda 60 taga, 1906 yilda 1000 tadan ortiqqa yetgan⁴³.

⁴³ Абдирашидов Г. Исмоил Гаспринский и Туркестан... – С. 195-196

Volgabo'yi, Uraloldi hududlaridagi jadidchilik XIX asrning oxirgi choragida vujudga kelib, sekin-asta Rossiyaning boshqa hududlariga ham tarqala boshlagan. Ta'kidlash joizki, Rossiya maorif vazirligi amaldorlari dastlabki paytlarda ta'lim tizimidagi islohotlarga – jadidchilik harakatiga befarqlik bilan qaragan bo'lsalar, XIX asr oxirlaridan bu harakatga qarshi tura boshladilar va hatto qadimchilarni qo'llab-quvvatladilar. Ammo jadidchilik maqomidagi ta'lim tizimi sekin- asta yoyila boshlab, bu nafaqat tatarlar, balki boshqa turk - musulmon xalqlari uchun ham ahamiyatga molik bo'lib, diniy va dunyoviy bilimga ega kadrlar tayyorlashda ham asqotgan. Jadidchilik g'oyalari ostida faoliyat yuritgan Husayniya (Orenburg), Oliya (Ufa), Bubi (Vyatsk) va boshqa madrasalar imperiya tarkibidagi turk - musulmon xalqlari uchun milliy kadrlar tayyorlash o'chog'i bo'lib xizmat qildi. Masalan, birgina Ufada faoliyat yuritgan Oliya madrasasi 1906-1916 yillarda 950 nafar imom, o'qituvchi, yozuvchi, olim, jurnalistlar tayyorlab, 224 nafar – bitiruvchilar O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalari, Kavkaz, Qrim va Rossiyaning boshqa mintaqalari uchun tayyorlangan edi⁴⁴.

1.2. O'rta Osiyoda jadidchilik: turk - musulmon xalqlari hamkorligida ziddiyat va yechimlar

Turkistonni tarixiy davrlashtirishda XIX asr oxiri – XX asr boshlari muhim o'rin tutadi. Bu davr nafaqat Turkistonda, balki Buxoro, Xivada ham, Rossiya tarixida, ayniqsa imperiyaning turkiy xalqlar g'uj bo'lib yashaydigan boshqa hududlari – mintaqalarida ham muhim ahamiyatga ega. Tarixan qisqa, ammo taraqqiyot tarozisiga qo'yganda salmoqli rivojlanishga turtki bergan, ayni paytda ziddiyatlarni ham o'z ichiga olgan bu davr turk – musulmon xalqlari hayotida o'chmas iz qoldirgan.

Ma'lumki, XIX asr ikkinchi yarmida Turkiston Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilganidan keyin o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va

⁴⁴ Рахимов С. Социально – правовой статус татарских учебных заведений... С. 77

madaniy hayot imperiya manfaatlariga bo'ysundirildi. Asrlar davomida shakllangan boshqaruv tizimi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy ahvolga Rossiya imperiyasi, xususan Turkiston general – gubernatorligi tomonidan ma'lum bir o'zgartirishlar kiritish amalga oshirildi. Chunki Rossiya imperiyasi oldida o'lka aholisini turmush tarziga aralashishdan ko'ra, uning iqtisodiy imkoniyatlarini imperiya manfaatlariga xizmat qildirish muhimroq edi. Lekin buning uchun ham Turkiston xalqlari tili, madaniyati, xo'jalik an'analari, urf-odatlarini o'rganish zarur edi.

SHu maqsadda Rossiya jamoatchilik tashkilotlari, xususan Turkistonni har tomonlama o'rganishga yo'naltirilgan "Turk - musulmon xalqlarini o'rganish jamiyati"ning faoliyatini ham ta'kidlash zarur. Mazkur jamiyat o'z oldiga turk - musulmon xalqlari tillarini, qadimgi turkiy yodgorliklardagi yozuvlarni o'rganishni maqsad qilib qo'ygan edi. Bu borada V.V.Bartold, A.E.SHMidt, N.F.Katanov, A.K.Nosiriy, M.A. Kozimbek, N.I.Ashmarin va boshqalarning faoliyatlari ahamiyatga molik. 1901 yilda Toshkentda Peterburg sharqshunoslari jamiyatining bo'limi tuzilib, o'z oldiga "sharq xalqlarida Rossiya to'g'risida ma'lumotlar tarqatish va rus jamiyatini sharq xalqlari moddiy zaruriyati va ma'naviy hayoti bilan tanishtirish"ni maqsad qilib qo'ygan edi. 1902-1912 yillarda ushbu jamiyat tomonidan rus, o'zbek, tojik va boshqa millatlar uchun kurs ochilgan edi. Turk - musulmon xalqlarini o'rganish bilan Turkiston harbiy okrugi ham shug'ullanib, 1900 yildan harbiy okrug shtabi qoshida harbiy zobitlar o'zbek, fors, ingliz tillarini, musulmon huquqini, O'rta Osiyo tarixini o'rganganlar. Turk - musulmon xalqlari tili, madaniyati, tarixini o'rganish 1896-1897 yillarda "Sredneaziatskiy vestnik" jurnalida bir qator maqolalarni chop etilishiga olib kelgan. O'z navbatida, chop etilgan maqolalar nafaqat rus va rusiy zamonlar, balki turk - musulmon xalqlari, xususan tatar,

boshqird, ozarbayjon, turk, o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman va boshqa millatlar to'g'risida ma'lumotlarni ko'payishiga ham olib kelgan⁴⁵.

XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining tarkibiga kiritilgan turk - musulmon xalqlari – musulmonlar o'rtasida imperiyaning ruslashtirish siyosatiga qarshi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy hamkorlik, o'zaro bir – birlarini qo'llab – quvvatlash vujudga kelganini qayd etish zarur. Ta'kidlash joizki, Turkistondagi milliy ziyolilar Kavkazdagi ozarbayjon, qrimtatar va Volgabo'yi, Uraloldi hududlaridagi boshqird, tatar ziyolilari bilan hamkorlikda Rossiya imperiyasining turk - musulmon xalqlari madaniyatiga, ijtimoiy-siyosiy hayotiga, moddiy boyliklariga tajovuz qilishiga qarshi o'zaro hamkorlikda ish yuritishni maqsad qilib qo'ydilar. Ammo bu o'zaro hamkorlik rishtalaridan cho'chigan Rossiya ma'muriyati hamkorlik ildiziga bolta urishga, xususan turk - musulmon xalqlarini bir-birlariga qarama-qarshi qo'yishga, ularga nisbatan panturkist, panislomist yorliqlarini yopishtirishga harakat qildilar. Lekin shunga qaramasdan, turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, ayniqsa XIX asr oxiri – XX asr boshlarida maorif tizimidagi turk - musulmon xalqlari hamkorligi o'z natijasini bergan.

O'zaro munosabatlar ustida gap ketganda, turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi siyosiy jihatdan bir-birini qo'llab-quvvatlashga ham e'tiborni qaratish lozim. Turkistonning turk - musulmon xalqlarini Turkiya bilan to'g'ridan-to'g'ri siyosiy uyushmalardagi aloqalari Rossiya imperiyasi siyosiy doiralarini jiddiy tashvishga solgan. Chunki ular bu hamkorlik oxir – oqibatda Rossiya imperiyasi manfaatlariga zid kelishini tushunib yetganlar. Shuning uchun ham turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar chuqurlashayotganligini his qilgan holda, Rossiya imperiyasi ma'muriyati turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish doirasida siyosiy kuzatuvchilik va ayg'oqchilik ishlarini jonlantirishga va ayni paytda turk -

⁴⁵ Иоффе В.Т. Из истории многонациональных общественных организации Туркестана и Узбекистана // Ўзбекистонда миллатларaro муносабатлар ва бағрикенглик тарихий тажриба ва ҳозирги замон (халқаро илмий-амалий анжумани 17-18 сентябрь 2010 йил) – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2010 – Б.196-197

musulmon xalqlari o'rtasida kelishmovchilik va nifoqni kuchaytirishga zo'r berib harakat qildilar. Bu borada tashabbus va ehtiyot choralarini ko'rishda Turkiston general-gubernatorligi o'z sa'y – harakati hamda amaliy faoliyati bilan ajralib turadi. Xususan, turk - musulmon xalqlari madaniy – ma'rifiy ahvoli, siyosiy qarashlaridagi o'zgarishlar Rossiya podsholigini, ayniqsa, Turkiston general – gubernatoriligini bezovta qilgan. Bu borada o'lka general – gubernatoriligi holatni nazorat qilish maqsadida 1908 yili “Turkiston o'lkasi tashqi va ichidagi razvedkasi”ni tashkil qildi. Mazkur komissiya tarkibi asosan harbiy zobitlardan bo'lib, uning tarkibida Turkiston o'qituvchilar seminariyasining direktori N.P.Ostroumov ham bor edi. Komissiya zimmasiga panislomistik va inqilobiy g'oyalar, taraqqiyotchilar harakatini yerli xalqlar orasida kuzatish yuklatilib, asosiy vazifalar qatorida quyidagilar belgilangan edi:

- musulmon o'quv yurtlarini kuzatib borish;
- yerli – tarjimon, tilmochlarga ishonch yo'qligi uchun ularni nazorat qilish;
- panislomizm g'oyalarini tarqatish;
- Rossiya ichki guberniyalaridan kelgan tatarlarning yangi g'oyalarini yoyishdagi rolini aniqlash;
- tatarlarni panislomizmni yoyishdagi roliga alohida e'tibor qaratish⁴⁶.

“Turkiston o'lkasi tashqi va ichidagi razvedkasi” komissiyasi o'lkada tatarlar ta'sir doirasini kengayishinigina emas, balki Usmon imperiyasi turklari – emissarlar tomonidan turkistonliklarga o'tkazilishi mumkin bo'lgan holatlardan ham xavfsiraganlar⁴⁷.

Mavjud holatdan kelib chiqib, mazkur komissiya Rossiya tomonidan mustamlaka hududlarda islomni o'rganishga e'tibor kuchaytirish zarurligi, ayniqsa bunda “Rossiyaning Yevropa qismi (markaziy guberniyalardagi musulmonlar g'uj yashaydigan hududlar – R.R.), Kavkaz, O'rta Osiyo va

⁴⁶ Шигабдинов Р.Н. Пробуждение Туркестана / Тарихнинг номаълум саҳифалари. Тўртинчи китоб. Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт – матбаа уйи, 2013. – Б. 3-4

⁴⁷ Шигабдинов Р.Н. Пробуждение Туркестана / Тарихнинг номаълум саҳифалари. Тўртинчи китоб. Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт – матбаа уйи, 2013. – Б. 6

qo'shni Erondagi inqilobiy harakatlarini hisobga olinishi" qayd etilgan. Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib, komissiya Turkiston o'lkasining barcha viloyatlarida, Buxoro amirligi va Xiva xonligida ayg'oqchilik ishlarini olib borish, turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi madaniy – ma'rifiy, siyosiy holatlarni kuzatib borish uchun 19 nafar razvedchik – ayg'oqchilar shtatini joriy etib, ular Turkiston rayon muxofaza bo'limiga (TRMB) bo'ysunishini qayd etildi⁴⁸.

Komissiya a'zosi N.P.Ostroumov Turkistondagi maktablarni qattiq nazorat qilish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, panislomistik harakatlar tufayli maktablar yangilanib, mustahkamlanib, oxir – oqibatda bu foydasiz hamda xavfli holatga, hukumatga qarshi intilishlarga yetaklashi mumkin deb qayd etdi. SHundan kelib chiqib ehtiyot choralarini ko'rish, komissiya xulosasiga ko'ra, Toshkentda mahalliy tillarni harbiy va ma'muriy xodimlar uchun o'rganish kurslarini ochish zarur deb topildi⁴⁹.

Ta'kidlash joizki, Rossiya imperiyasi tomonidan qanchalik harbiy-siyosiy kuzatuvlar, ayg'oqchilik ishlarini olib borilishiga qaramasdan, turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi munosabatlar joylarda o'z rivojini topib bordi.

Millat istiqbolini o'ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari - hunarmandlar, dehqonlar, savdogarlar, mulkdorlar va ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab Rossiya imperiyasi hukmronligiga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg'otish - siyosiy-ma'rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o'ziga qulay zamin topdi.

Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo'nalishlar ustuvor bo'lgan: yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish, qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish; turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy

⁴⁸ Шигабдинов Р.Н. Пробуждение Туркестана / Тарихнинг номаълум саҳифалари. Тўртинчи китоб. Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт – матбаа уйи, 2013. – Б. 6-7

⁴⁹ Шигабдинов Р.Н. Пробуждение Туркестана / Тарихнинг номаълум саҳифалари. Тўртинчи китоб. Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт – матбаа уйи, 2013. – Б. 8-9

ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy davlat qurish. Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi. Agar umumlashtirib oladigan bo'lsak, jadidchilik o'z tarixida ikki bosqichni o'tgan:

1. Ma'rifatchilik bosqichi
2. Siyosiy bosqich⁵⁰.

Turkiston jadidlari dasturi uchta g'oyaviy printsipga asoslangan edi:

1. Hurriyat
2. Tenglik
3. Adolat

Turkiston jadidlari yana o'z oldiga quyidagi vazifalarni belgilagan edi:

- Turkistonda o'rta asrchilik, feodal qoloqlikdan qutilish;
- o'z muddatini o'tab bo'lgan, usuli qadim tartiblarini inkor etish;
- taraqqiyot yo'liga chiqib olish;
- milliy davlat tuzish;
- konstitutsion boshqaruvga asoslangan erkin jamiyat qurish;
- turkiy tillarga davlat tili maqomini berish;
- milliy valyuta va qurolli kuchlarga ega bo'lish⁵¹.

Millat istiqbolini o'ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari - hunarmandlar, dehqonlar, savdogarlar, mulkdorlar va ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab Rossiya imperiyasi hukmronligiga qarshi kurashda xalqni asriy qoloqlikdan uyg'otish - siyosiy-ma'rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o'ziga qulay zamin topdi. Xususan, Ismoil Obidiy ("Taraqqiy" gazetasi muharriri – R.R.) kabi tatar taraqqiyparvarlari, Volgabo'yi, Uraloldi, Qrimda nashr etilgan gazeta –

⁵⁰ Алимов Д. Жадидчилик ҳаракати ва унинг ижтимоий – сиёсий моҳияти. Жадидларнинг давлатчиликка оид қарашлари. / Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. Т.: Шарқ, 2001 – Б.150

⁵¹ Саламов Ш. Туркестан и Южный Кавказ XIX – XX вв. Янги аср авлоди, 2015 – С. 87-88

jurnallar, Rossiya va Yaqin SHarq mamlakatlari bo'ylab safarda bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy kabilar tufayli o'lkada jadidchilik yoyila boshladi⁵².

Aynan M.Behbudiy o'lkada jadidchilik harakatini tinch yo'l bilan, inqiloblarsiz va aytish lozimki, evalyutsion yo'l orqali, hatto Rossiya tarkibida ham mustaqillikka erishish mumkin deb hisoblagan. Mahmudxo'ja Behbudiy Rossiya musulmonlari federativ tuzilmaga tayanishi, musulmonlar tabiiy geografik chegaralari bo'yicha ajralishi, ammo ayni paytda ularni siyosiy, iqtisodiy ravnaqi yo'lida "Musulmonlar markaziy boshqarmasi" tuzilishi tarafdori bo'lgan. Uning fikricha, umumtaraqqiyot vazifasidan kelib chiqib, qadimchi va jadidlar qarama-qarshiligiga barham berilishi, nafaqat turk - musulmon xalqlari, balki ruslar, yahudiylar va boshqalar birlashib harakat qilishi kerak⁵³.

O'rta Osiyoda jadidchilik g'oyalarini yoyilishida turk - musulmon xalqlari hamkorligi qanchalik ahamiyatga molik bo'lganini, bu harakatga qarshi chor ma'murlari ko'rsatgan nayrangrali, sa'y – harakatlaridan bilsa ham bo'ladi. Chunki chor hukumati bu borada ancha – muncha tajribaga ega edi: jadidchilik harakati Tatariston, Boshqirdiston, Qrim va Kavkaz hududlarida Turkistonga nisbatan anchagina avvalroq yoyilishiga, ildiz otishiga va kerak bo'lsa qadimchilar va chor ma'murlari qarshiligiga uchrab ulgurgan edi. O'z navbatida Turkiston general – gubernatorligi ham Qrim, Kavkaz, Volgabo'yi, Uraloldi hududlaridagi "tajribalar"ni o'rganib, boyitib foydalanishga tushdi. Turkiston general – gubernatorligi ma'muriyati "usuli jadid"ga qarshi bo'lgan "qadimchi"larni bu borada rag'batlantirdi, turli bo'xtonlar, siyosiy aybnomalar uyushtirdi. Bog'chasaroy, Ufa, Qozon, Tiflis, Orenburg, Turkiyadan keladigan nashrlarning tarqalishini qattiq nazorat ostiga oldi. Mustamlakachilik mafkurasi yetakchilaridan bo'lmish N.P. Ostroumov 1908 yili Samarqandda Ulug'bek

⁵² Каримов Н. XX аср бошларида тарихий вазият ва жадидчилик ҳаракатининг вужудга келиши / "Ўзбекистоннинг янги тарихи. Концептуал методологик муаммолар" мавзuidaги республика илмий – назарий анжумани материаллари. Т.: "Академия" нашриёти, 1998 – Б.147-149

⁵³ Алимова Д.А. Исторические мировоззрение джадидов и их проекция будущего Туркестана / Туркестон мустақиллиги ва бирлиги учун кураш саҳифаларидан. Т.: "Фан", 1996 – Б. 8-20; Қаранг: Алимова Д., Рашидова Д. Махмудходжа Бехбудий и его исторические воззрения Т.: "Маънавият", 1998. Б. 18-19

madrasasi jome'sida bir necha ming nomozxon huzurida "usuli jadid" maktablariga borgan yoshlar musulmon dini ahkomlariga amal qilmay qo'yayotganliklari, bunday maktablarda dinga xilof ilmlar o'qitilayotgani haqida "jon kuydirib", islom dini "himoyachisi" tariqasida ma'ruza qilgan. Oddiy xalq, mutaassib ulamolar, aksariyat qadimchilar uning ma'ruzasidan "qattiq ta'sirlanib, "g'ayridin bo'lsa ham bizga, dinimizga qanchalar mehribon" deb, ko'zlariga yosh olib, duo qilganlar⁵⁴.

SHu o'rinda ta'kidlash joizki, Turkistonda jadid maktablarini yoyilishi, umuman jadidchilik harakatini keng quloq otishida tatar muallimlarining faoliyati muhim ahamiyatga ega. Masalan, shu o'rinda aytib o'tish lozimki, O'rta Osiyo jadidchilik harakati: "usuli jadid" maktablari ochilishi asosan tatar muallimlarining faoliyati bilan bog'liq hisoblanadi. Jadidchi tatarlar dastlab tatar bolalari uchun maktablar ochib, keyinchalik yerli aholi ham o'z farzandlarini tatar maktablariga berganlar. Bu haqda M.Mo'minjonov quyidagilarni yozadi: "Qudratillohqori har kuni Beshyog'och darvozasidagi "No'g'oy mahalla"sig'a borib, Rusiyadan kelib, mazkur mahallag'a maktab ochgan tatar muallimidan o'rganib kelar ham Ohanguzardagi "ruski – tuzemnovi" nomi bilan ochilgan o'ris ibtidoiy maktabig'a kechalari qaytib o'quv yurar edi. Bu chog'larda "usuli jadid", "usuli savtiya" degan gapni hech kishi bilmas ham edi. Bu o'qishni kishilar "no'g'oycha o'qish" deb yurar, hech kishida taassub ham yo'q, bunday o'qishning harom va halollik'ga fatvo izlagan kishi ham yo'q edi... buni o'qitadurg'on narsalari: tatarcha bir alifboni qora tunika taxtag'a bo'r bilan yozdirib o'qitish va bir oz hisob o'rgatishdan iborat edi. Bu no'g'oycha o'qish, ya'ni usuli jadid 1900 yil mart oylarida shul To'qli jallob mahallasidagi Nabi domla maktabida boshlangan edi"⁵⁵.

Aytish lozimki, Turkistonda jadidchilikni yoyilishi, aslida, Qrim, Qozon, Ufa, Orenburg, Ozarbayjonga nisbatan 15-20 yil atrofida keyinroq kirib

⁵⁴ Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари. Т.: "Университет", 2006 – Б.17

⁵⁵ Қаранг: Долимов У. Туркистонда жадид миллий дунёвий бошланғич таълимнинг тараққий топиши. // Туркистон жадидчилиги-миллий уйғониш даври тарихи (XIX аср охири – XX аср бошлари). Наманган "Наманган" нашриёти, 2012. –Б . 27; Унинг ўзи Туркистонда жадид мактаблари... – Б. 18

kela boshlagan. Yuqorida qayd etilgan hududlardagi jadid-pedagoglar ham dastlabki yillarda qadimchilar ta'qibiga, chor amaldorlari befarqligi hamda qarshiligiga uchrab, o'z vatanlaridan quvg'in qilingan edilar.

Ana shundaylardan biri Salohiddin afandi edi. U asli Simbirsk guberniyasidan bo'lib, "usuli savtiya"da dovrug' topdi. U kunduzlari yuzdan ortiq bolalarni o'qitgan bo'lsa, kechalari yoshi kattalarga ta'lim berdi. Maktab xonalari torlik qilib, qo'qonlik Umar Hoji ismli sohovat egasi o'z mahallasida maktabga bino qurib, Salohiddin afandini ko'chirdi. Uning ta'lim tizimidagi yangicha yondashuvlarni bir necha tatar muallimlari va Salohiddin afandida o'qib – bilim olgan o'zbek yigitlari ham o'rganib yangi maktab ochdilar. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, birinchidan, turk - musulmon ma'rifatparvarligidagi o'zaro hamkorlik yuzaga kelgan bo'lsa, ikkinchidan, mahalliy, sahovatli boylar tatar muallimlari tomonidan ochilgan maktablarni qo'llab – quvvatlaganlar. Bunday hamkorlik namunalarini o'z paytida Qozondan Namangan va Qo'qonga kelib "usuli jadid" maktablarda faoliyat yuritgan Abdurauf SHahidiy, Husain Makaevlar misolida ham ko'rish mumkin⁵⁶.

Turk - musulmon xalqlari hamkorligi natijasi o'laroq vujudga kelgan va kundan – kunga Turkiston, Buxoro, Xiva bo'ylab tarqalayotgan jadidchilik harakati nafaqat qadimchilar, balki chorizmni Turkistondagi mutasaddilari tomonidan ham qarshiliklarga, turli tazyiq va ta'qiblarga sabab bo'ldi. Turkistonda jadidchilikni tez va muvaffaqiyatli yoyilishi rus amaldorlarining o'zini ham hayron qolishiga va afsus – nadomatiga sabab bo'ldi. Masalan, 1883 yildan 1917 yilga qadar "Turkestanskije vedomosti" gazetasini muharrir lavozimida faoliyat yuritgan, o'z paytida Toshkent o'qituvchilar seminariyasining direktori bo'lgan, sharq tillarini, xususan turkiy tillarni yaxshi o'zlashtirgan, zabt etilgan o'lkalarni ruslashtirishni hayotining eng muhim g'oyasi – vazifasi deb bilgan, Qozon Diniy akademiyasidan mashhur missioner N.Пьминский (1882-1892) ning shogirdi bo'lgan N.P.Ostroumov tomonidan

⁵⁶ Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари ... – Б.19-20; Исоқбоев А. Фарғона водийсида янги усул мактабларини ташкил этишдаги ҳамкорлик алоқалари тарихидан – Фарғона водийси янги тадқиқотларда, Фарғона, 2012. Б. 197-198

1909 yili “Yangi usuldagi maktablarni nima qilmoq kerak?” nomli maqolasida quyidagilarni yozadi: “Rus ma’uriyatining yerliklar eski maktablariga nisbatan mensimaslik, nazar-pisand qilmaslik siyosati o’lkadagi hukmronligimizning dastlabki o’n yilligida o’zini oqlagan bo’lishi mumkin. Ammo keyingi uch o’n yillikda bu siyosat o’zini oqlamaganini hach qachon hech narsa bilan yashrib bo’lmaydi. Mana, chindan ham kutilmaganda pushaymon bo’ladigan voqea sodir bo’ldi. Biz o’lka maorifida biror ish amalga oshirguncha, hatto katta qiyinchiliklar bilan endi bir necha rus – tuzem maktabi ochganimizda, boshqalar tashqaridan (Qrimdan) katta g’ayrat bilan o’lka maorifi uchun boshqa bayroq ostida mustaqil faoliyat olib bordi”⁵⁷.

Jadidchilikning mintaqaviy-hududiy tarixiy shakllari: Qrim, Kavkaz, Volgabo’yi va Janubiy Uraldagi jadidchilikka Gasprali Ismoil, Jovid Husaynzoda, Muso Jorulloh Qozoniy, Rizouddin ibn Faxriddin rahnamolik qilishgan. Turkistonda - Munavvar Qori, Behbudiy va boshqalar yetakchilik qilishgan. Buxoroda “Yosh buxoroliklar” hukumati, Usmonxo’ja, Fitrat va boshqalar yo’lboshchilik qilishgan. Xiva jadidlariga “Yosh xivaliklar” hukumati, Xoja Pahlavon Niyoz Hoji yetakchilik qilgan. O’lkada milliy matbuot yuzaga kelgunga qadar Bog’chasaroydan chiquvchi “Tarjimon”, Qozondan chiqadigan “Vaqt”, “Yulduz” va boshqa gazeta va jurnallar Turkiston jadidlari faoliyatida o’zining sezilarli ta’siriga ega edi.

Jadidchilik dastlab haqli ravishda ma’rifatparvarlikdan boshlandi. Turkistonda Muftiy Mahmudho’ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxon o’g’li, Fayzulla Xo’jayev, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo’jaev A. Zohiriy, O. Mahmudov, I. Ibrat, Hamza, Cho’lpon, A. Ibodiy va boshqalar bu harakatning boshida turdilar.

Ta’kidlash joizki, jadidchilik harakatini yoyilishi ma’lum bir bosqichlarni, qarama – qarshilik va ziddiyatlarni o’z ichiga oladi. Xususan, bu jarayon, ya’ni O’rta Osiyoda jadidchilik harakatining keng yoyilishida, xususan o’lka xotin – qizlarini yangi usuldagi maktablarga jalb etishda turk - musulmon xalqlari

⁵⁷ Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари ... – Б.17

o'rtasidagi hamkorlik aloqalari bo'lganligi muhim ahamiyat kasb etgan. Tarixiy ma'lumot – dalillarga tayanib aytish mumkinki, Turkistonda tatar muallimalari tomonidan yerli aholi xotin – qizlarini yangi usulda o'qitish XIX asr oxirlaridayoq ko'zga tashlangan. Masalan, Turkiston o'lkasi o'quv muassasalari bosh noziri F.Kerenskiy 1897 yil 22 dekabrda Sirdaryo viloyati harbiy gubernatoriga yo'llagan xatida yerli aholi bilan hamkorlikda maktab ochib, o'qitish ishlarini olib borayotgan tatar muallimalari haqida so'ragan ma'lumotiga 1898 yil 5 martda berilgan javob xatida “Avliyoota uezdida tatar muallimasi Roziya Sagadieva Dautova o'z uyida mahalliy millatga mansub 10 nafar, Perovsk uezdida esa Qozon guberniyasidan kelgan Rofiya Sagetdinova Xismatullina 15 nafar... Avliyoota shahrida tatar imomi Odil Zarifulla Fayzirahmonovning onasi Tarifabin Fayzirahmonova 15 nafar mahalliy aholi qizlariga saboq berib kelgan, - deyiladi⁵⁸.

Jadidchilik harakatida o'zaro hamkorlik munosabatlari Buxoro amirligi va Xiva xonligi sarhadlarida ham ko'zga tashlanadi. Ma'lumki, Buxoroda jadidchilik harakati shaxsan Ismoil Gasprali sa'y-harakati bilan bog'liq. Xususan, Gasprali o'z g'oyalari targ'iboti yo'lida Buxoroga dastlab 1893 yilda va keyin 1908 yilda tashrif buyurgan edi⁵⁹. Tashriflar samarasi natijasda Buxoroda “Tarjimon” gazetasi keng tarqala boshlagan va yana “usuli savtiya”ga asoslangan tatar maktablari ham birin – ketin ochila boshladi. Sadriddin Ayniy va Munzib ushbu tatar maktablaridagi o'qitish usullarini o'rgandilar va buni o'z maktablariga tatbiq etdilar. Xususan, ular Buxoroda faoliyat olib borayotgan tatar muallimlari ochgan usuli jadid maktablaridan o'rganib, hamkorlik qildilar. Xususan, ular Buxoroda faoliyat olib borayotgan tatar muallimi Xolid Burnashev maktabiga ham borib, ta'lim tizimidagi tartib – qoidalari, darsxona tartibi, o'qitiladigan fanlar, kitob va darsliklar bilan tanishdilar, ma'lumotlar oladilar. Buxorodagi jadid maktabi qadimchilar va qolaversa, Buxorodagi

⁵⁸ Насретдинова Д.М. Туркистоннинг маданий ҳаётида татар – бошқирд аёлларининг тугган ўрни (XIX аср охири XX асрнинг биринчи чораги): Тарих фан. номз... дисс. – Тошкент, 2011 – Б.40-41

⁵⁹ Айрим тадқиқотларда Исмоил Гаспралини Бухорога ташрифи бўйича хатоларга йўл қўйиб, бу ташриф 1895 йили бўлган деб қайд этилади. Қаранг: Саламов Ш. Туркестан и Южный Кавказ XIX – XX вв. Т: Янги аср авлоди, 2005 – С. 88

Rossiya elchixonasi xodimlari qarshiligiga uchrab, yopildi. Bu ishda Rossiya hukumati oxrankasining yashirin a'zosi, qozonlik tatar Mulla Qamar domla hamda Rossiyaning Buxorodagi siyosiy agentligi xodimi SHulga degan kimsa "o'z faolligi bilan xizmat ko'rsatdi". Lekin shunga qaramasdan, mahalliy taraqqiyparvarlar boshqa turk - musulmon ma'rifatparvarlari bilan hamkorlikda jadidchilik harakatini keng yoyishda, Qrim, Turkiyaga talabalar yuborishda sa'y – harakatlarini davom ettirdilar. Buxoro jadidlari shu maqsadda "Tarbiyai atfol" ("Bolalar tarbiyasi") nomli yashirin jamiyat tuzdilar. Ushbu jamiyatning sa'y-harakati tufayli yana birin - ketin jadid maktablari ochila boshladi. Natijada o'qituvchilarga, ayniqsa, "usuli savtiya" metodini biladigan o'qituvchilarga ehtiyoj juda oshib ketdi. Mazkur yashirin jamiyat mazkur muammoni yechish uchun Samarqand, Toshkentdan muallimlar olib keldilar va hatto ta'lim usulini o'rganish maqsadida Hoshim Qorini Boqcharoyga, Ziyoviddin Mahumni Ufaga, Zahiriddin Fahriddinzodani Orenburgga yubordi⁶⁰.

Buxoro amirligida jadidchilik harakati Turkiston va Xivaga nisbatan ancha kech quloch yoydi. Jadidchilikni kech yoyilishiga quyidagi sabablarni keltirish mumkin:

1. Buxoro Qozi kaloni Gasprali bilan 1893 yilgi uchrashuvda yangi usulni to'la – to'kis qo'llab – quvvatlasada, "Xo'ja – sibyon" darsligi forsiy tilda bo'lishi kerak deb hisobladi. Ismoil Gasprali tomonidan turkiy tilni targ'iboti o'z tasdig'iga ega bo'lmadi.

2. Buxoroda ham yangi usuldagi maktablar dinga xilof deya da'vo qiluvchilar – ulamolar qarshiligiga duch kelindi.

3. Buxoro amiri Gaspraliga yangi usuldagi maktablar ochishga har tomonlama yordam berishga, qo'llab – quvvatlashga qaratilgan va'dasini bajarmaydi, chunki u o'z davlatida konservativ ruhdagi dindonlar ta'sirida bo'lgan⁶¹.

⁶⁰ Долимов У. Туркестонда жадид мактаблари ... – Б.68,70,72

⁶¹ Абдурашидов З. Исмаил Гаспринский и Туркестан в начале XX века: связи – отношения – влияние. Т.: "AKADEMNASHR", 2011 – С. 222,224-225

Buxoroda jadidchilik asosida ochilgan maktablarga qarshilik, oxir – oqibatda janjalga borib taqaldi. Abdurauf Fitrat ana shu maktab bilan bog'liq mojarolar ta'sirida “Munozara” asarini yozib, unga yangi usul asosida o'qitish musulmonchilikka xilof emasligi, shariatga muvofiqligini isbolab berdi. Natijada, asar chop etilgandan keyin Buxoroda yangi usul maktablari qayta ochilgan va ulardan mulla – mudarrislar tavqi – la'nati olib tashlangan. Aytish mumkinki, shu asnoda Buxoroda jadidchilik harakati yoyila boshladi⁶².

Xivada dastlabki jadid maktabi 1891 yili mutafakkir Komil tashabbusi bilan Urganchda ochildi. Ushbu Maktabga Qozondan maxsus o'qituvchi chaqirilgan. Hatto mazkur maktabga Muhammad Rahimxon tashrif buyurib, o'g'li Asfandiyorni shu ta'lim dargohiga berdi. 1898 yili Xivada orenburglik muallimlar Mahmud Vafo va Abdurahmon afandilar tomonidan “usuli savtiya” ochildi. 1904 yili Muhammad Rahimxon farmoniga muvofiq, Urganch shahrida “usuli savtiya”ga asoslangan jadid maktabi ochilib, unda Qozondan taklif etilgan Husayin Kushaev muallimlik qilib, o'quvchilar soni 45 nafarga yetgan. 1906 yilda Urganchda xuddi shunday maktab qiz bolalar uchun ochilib, muallimalikka uning rafiqasi Komila Kushaeva tayinlanadi. Yana jadidchilik g'oyalarini tarqalishida 1907 yil fevralida Xivaga Qozondagi Olimjon Barudiy madrasasidan ikki nafar usuli jadid muallimlarini taklif qilgani ham muhim ahamiyat kasb etgan. Yangi usuldagi maktablarini ochish va taraqqiy ettirish, Rossiyadan muallimlar taklif etish ishlari bilan Muhammad Rahimxon vafotidan keyin uning o'g'li Asfandiyorxon tomonidan ham davom ettirildi⁶³.

Umuman olganda, O'rta Osiyoda jadidchilik harakati turk - musulmon xalqlari hamkorligi asosida shakllangan va rivoj topgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruratini tushunib yetgan edilar. Jadidchilik mohiyat e'tibori bilan, avvalo madaniy – ma'rifiy va keyinchalik siyosiy harakat bo'lgan. Uning

⁶² Абдурашидов З. “Мунозара” хусусида мунозара / Тафаккур, №1, 2013 – Б. 69

⁶³ Долимов У. Туркистонда жаид мактаблари ... – Б.82-84

shakllanish, rivojlanish va mag'lubiyatga uchrash davrlari bo'lib, ularni shartli ravishda to'rtga bo'lish mumkin. Turkiston o'lkasi, Buxoro amirligi va Xiva xonligi hududida bu davrlar: 1-davr (1895-1905); 2-davr (1906-1916); uchinchi davr (1917-1920); to'rtinchi davrni (1921-1929) o'z ichiga oladi.

Yuqorida qayd etganimizdek, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida turk - musulmon xalqlari orasida madaniy - ma'rifiy aloqalar chuqur ildiz ota boshladi.

Xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, turk – musulmon xalqlari o'rtasidagi milliy uyg'onish, jadidchilik harakatining vujudga kelishi o'ziga xos murakkabliklarni, ziddiyatlarni o'z ichiga olgan.

Turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi o'zaro ijtimoiy – siyosiy munosabatlar, madaniy - ma'rifiy hamkorlik aloqalaridan Rossiya imperiyasi ma'muriyati cho'chiganligi aniq. Chunki turk - musulmon xalqlarining milliy uyg'onishi, o'z haqqi-huquqini bilib olishi, oxir-oqibatdagi turk - musulmon xalqlarini birlashuviga, mustamlakachi ma'muriyatga, uning zulmiga qarshi birgalikda sa'y-harakatlar qilishiga olib kelishi mumkin edi. Rossiya imperiyasi ma'muriyati buni sezgan holda, turk - musulmon xalqlarining bir-biri bilan yaqin bo'lishiga, o'zaro madaniy - ma'rifiy hamkorlik rishtalarini o'rnatib, uni mustahkamlashiga qarshi turdi. Lekin Rossiya imperiyasining bunday sa'y-harakatiga qaramasdan, turk - musulmon xalqlarining o'zaro munosabatlari XIX asrning oxiri – XX asr boshlari o'z taraqqiyot bosqichini, ma'lum bir qiyinchiliklar bilan bo'lsada, bosib o'tdi. Bu tarix sabog'i keyingi yillarda ham o'z samarasini, ziddiyatli tarzda bo'lsa ham, berganligi to'g'risida tarixiy ma'lumomlar shohidlik beradi.

II BOB. TURK - MUSULMON XALQLARI O'RTASIDAGI MUNOSABATLARDA ISMOIL GASPRALI VA ZAKIY VALIDIY TO'G'ONNING TUTGAN O'RNI

2.1. Ismoil Gaspralini turk - musulmon xalqlari ma'rifatida tutgan o'rni

XIX asr ikkinchi yarmi turk – musulmon olami uchun o'ziga xos o'zgarishlarni: ijtimoiy, madaniy, siyosiy, diniy qarashlardagi, turli jamiyatlar tuzishdagi islohotlarni o'z ichiga olgani bilan ajralib turadi. Barcha o'zgarishlar imperiya manfaatlari zamirida xizmat qila olmas, ammo shunga qaramasdan, mustamlakachilik zulmida kun ko'rayotgan xalqlar, ayniqsa turk – musulmon xalqlari o'z tillarini, diniy e'tiqodlarini, madaniyatini, ma'rifatini, turkiy birligini saqlab qolishga, o'rni kelganda qotib qolgan g'oya va uslublarni isloh qilishga kirishish zarurligini anglab yetgan edilar.

Ana shunday dolzarb, turk – musulmon xalqlari o'rtasida amalga oshirish zarur bo'lgan har tomonlama islohotlar boshida Ismoil Gasprali (1851-1914) turar edi. XIX asrning oxirida Ismoil Gasprali Rossiya imperiyasi sarhadlarida istiqomat qilayotgan turk – musulmon xalqlarining ilg'or namoyondalari, peshqadam ziyolilari orasida tanilgan, jadidchilik harakatining asoschisi bo'lib e'tirof etilgan inson edi. Uning g'oyalari nafaqat Qrim, Kavkaz, Volgabo'yi va Uraloldi hududlarida, balki Turkiston, Buxoro, Xivada ham keng tarqalib, shogirdlari – maslakdoshlari, joylardagi mahalliy ma'rifatparvarlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi Ismoil Gaspralining turk - musulmon dunyosida tutgan o'rniga Herman Vamberi tomonidan berilgan bahoda: "... benihoya dono odam edi, shuning uchun u ishni dastlab barcha yangiliklarni ashaddiy dushmani bo'lmish mullalarning jaholati va fanatizmiga qarshi keskin hujumga kirishishdan boshladi. U o'z qobig'iga biqinib olish va G'arb ma'rifatini inkor qilish jonajon xalqiga qanday zarar keltirganligini yotig'i bilan, avaylab tushuntirishga harakat qaldi", - deydi⁶⁴. E'tirof etish kerakki, Ismoil Gasprali turk - musulmon xalqlari ma'rifati rivojida gazeta – jurnallar tashkil etish

⁶⁴ Вамбери Херман. Маърифат йўлидаги уйғониш // Тафаккур, №2, 2000. – Б. 62

zarurligini yaxshi tushunib yetgan. Zero turk - musulmon xalqlari matbuoti orqali ma'rifatni yoyish, aholi ongi – shuurida o'zgarish yasash muhim ahamiyatga molik ekanini tushunib yetdi. Bu o'rinda, "Tarjimon" gazetasining roli katta ahamiyatga molik. Ma'lumki, 1883 yilda Ismoil Gasprali tomonidan asos solingan "Tarjimon" gazetasi (1883-1918) ning dunyoga kelishi Bokchasaroyda bo'lishiga qaramasdan, mazkur gazeta o'z oldiga Rossiya imperiyasi turk-musulmon xalqlarining ma'rifati, madaniyati, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ahvoli to'g'risida dunyoning barcha turk - musulmon xalqlariga yetkazish, turk-musulmon xalqlarini bir-birlariga tanitish, ularni ma'rifat va madaniyatda birlikka, o'zaro hamkorlikka da'vat etishni qo'ygan edi. Gazetani chiqarishdan asosiy maqsadlardan biri, turk-musulmon xalqlari ma'rifati yo'lida "Tarjimon" minbaridan foydalanish kerak deb topdi. Gazetani dastlabki sonlaridan birida turk-musulmon xalqlarining nochor, ayanchli ahvoli to'g'risida qayg'urib quyidagi fikrni bildirgan edi: "Bir bechora faqirni ko'rsak, achinamiz. O'layotgan bechorani ko'rsak, yuragimiz iztirobdan og'riydi. Hatto bir hayvonning qiynalishi rahmimizni keltiradi. Lekin bir emas, minglab kishilarning, butun bir xalqning jaholatdan mislsiz qiynalayotganini ko'rmaymiz...."⁶⁵

Ismoil Gasprali tushunchasiga ko'ra, Rossiyada istiqomat qiluvchi "ko'p millionli turk qavmi o'z shaxsiy, milliy, madaniy qiyofasiga ega bo'lishga haqlidir. Bizning turkiy xalqimiz chetdagilar bilan birgalikda ellik millionli tarixiy va etnografik birlikni tashkil etmoqda. Yetar endi, birovlarining sarqitlari bilan kiyofalanmoq, yetar endi birovlarining fikr-intilishlari bilan qanoatlanmoq, o'zimizniki bo'lmog'i kerakdir... Agar biz muayyan tarixiy sharoitlar tufayli boshqa xalqlardan orqada qolgan ekanmiz, bu hali bizni milliy-madaniy inkishof huquqidan mahrum etmaydi, aksincha u tomon yanada kattaroq g'ayrat bilan intilishga majbur etadi... Ulug' vazifalardan va ulug' intilishlardan qo'rqmang! Ular ulug' voqealarni tayyorlaydi va ulug' shaxslarni yetkazadi"⁶⁶.

⁶⁵ Гаспринский И. Хаёт ва мамот масаласи. Танланган асарлар. Т.: "Маънавият", 2006. – Б.14

⁶⁶ Гаспринский И. Хаёт ва мамот масаласи.... –Б. 22

Ismoil Gasprali turk - musulmon xalqlarida ma'rifat o'choqlari bo'lishi mumkin bo'lgan madrasalar mavjudligi, ammo madrasalarda ilgarigi "fan, g'ayrat, eng muhimi rag'bat yo'q. Buning sabablari ko'p, albatta shulardan biri an'anviy maktab – madrasalarning iqtisodiy zamindan uzilganligi – chor hukumati tomonidan vaqf yerlarining olib qo'yilganligidir. Xullas, hozirgi madrasalar ilmxona emas, qorixona. Maqsad ham, usul ham qorilik, ko'r qorilik. Uning zax hujralarida 15 – 20 yilda olinadigan bilimni zamonaviy o'quv yurtlarida 3-4 yilda egallash mumkin. Insonning umri shu qadar qadsizmi?" – deb ta'kidlaydi⁶⁷. Uning jon kuydirib, turk - musulmon xalqlari ma'rifatdagi sa'y – harakatlarida katta bir ezgulik bor edi.

Ismoil Gasprali turk - musulmon xalqlari ma'rifati ruslar nazorati ostida davom etayotgani, ruslashtirishning salbiy oqibatlari, rus xalqi bilan rus hukumatini bir-biridan farqlash zarurligi, til va din birligi haqida fikr-zikrini bildirish bilan birga, Rossiya chorizmining olib borayotgan siyosatiga o'z bahosini berib, "Itil-Volga bo'yidagi tatarlar orasidan biror mansabdor u yoqda tursin, masjidga imom ham missioner N.Пьминский ruxsatisiz saylanmaydi. Maktab-madarasa kitoblari-ku birma-bir qo'ldan o'tadi. Turkistonda - Ostroumov to'ra, Kavkazning ham o'z to'ralari bor, albatta. Bu to'ralar o'z millatlaridan boshqasini millat deb hisoblamaydilar. N.Пьминскийning keyingi chirinishlarini qarang. U ochiqdan-ochiq Rossiyada hech qanday turk-tatar xalqi yo'q, unda-bunda to'p-to'p qabilalar uchrab qoladi, ularni hech bir millatga mansub deb bo'lmaydi..." – deydi⁶⁸.

Ismoil Gaspralining turk-musulmon xalqlari ma'rifati yo'lida "Tarjimon" gazetasidagi maqolalar katta ahamiyat kasb etgan. Ismoil Gasprali "alohida usuldagi turk-tatar tilini ishlab chiqishga erishganligi" tufayli "Tarjimon" gazetasi "Toshkent, Boku, Qozon va Rossiyaning boshqa shaharlaridagi ziyolilar tomonidan bemalol o'qilgan..."⁶⁹ deb qayd etadi. Ammo yana shuni ta'kidlash joizki, Gasprali turk - musulmon xalqlari ma'rifati yo'lida asosiy

⁶⁷ Қосимов Б. Миллий уйғониш... – Б. 171

⁶⁸ Гаспринский И. Хаёт ва мамот масаласи.... –Б. 23

⁶⁹ Губайдуллин Г. Гаспринский и язык// Гасырлар авазы-Эхо веков 3/4 , 1997-С 207.

vazifalar qatorida turli shevalarga qaramasdan, ular bir-birlarini tushunishlari kerakligini qayd etgan. Xususan, Ismoil Gasprali turk - musulmon xalqlari bir-birlariga hamkor bo'lishlari, o'zaro munosabatlarni rivojlantirish, tarixini, adabiiyotini o'rganish va kerakli saboqlar chiqarish yo'lida “yagona til” va maorifga e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlar edi. Din birligini o'zi yetarli emas deb hisoblardi. U o'z faoliyatining ilk davridanoq uch bosqichli taraqqiyot mezoniga e'tibor qaratdi: **til birligi, fikr-mushohada birligi, harakat birligi**⁷⁰.

Ismoil Gasprali til birligini birinchi o'ringa qo'ygan edi. Zero turk - musulmon xalqlarida “til birligiga” erishishi boshqa muhim vazifalar mohiyatini tushunishda muhim ahamiyat kasb etardi. Ismoil Gasprali bu borada fikr yuritib, til birligi masalasi bizning hayotimizda hayot – mamot masalasidir va biz bu masalada bir qadam ham orqaga chekinmaymiz... Rossiyadagi turk-tatarlar o'z uchrashuvlarida, majlislarida umumiy turkiy tilda so'ylashadilar...”, - deydi⁷¹.

Turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi hamkorlik aloqalari, ma'rifati yo'lida til birligining ahamiyati bo'yicha Ismoil Gasprali ko'plab maqolalar yozdi. 1906 yilga kelganda Rossiya imperiyasi tasarrufida xalqlar, xususan ozarbayjon, tatar, o'zbek va boshqa millatlar o'z tillaridagi matbuot chop etilishiga erishgan edilar. Xususan, 1906 yil 27 iyundan o'zbek tilida “Taraqqiy” gazetasi ham chiqa boshlagan edi. Endilikda “Tarjimon” gazetasi turk - musulmon xalqlarining yagona gazetasi bo'lmay qoldi. Joylardagi, xususan Ozarbayjon, Turkiston, Qozonda chop etilayotgan gazetalar turkiy, ammo o'z millati tilida chop etila boshlandi. Joylarda 20 dan ortiq gazetalar paydo bo'lishiga qaramasdan, “Tarjimon” obunachilari kamaymaganini ta'kidlab, mazkur gazeta “umumiy bir milliy gazetadir. Uning tili ham umumiy bir milliy tildir. Yashasin millat! Ham yashar, chunki u tilda va fikrda birlikning zarurligini anglatadi”, - deydi⁷². Ismoil Gasprali fikriga ko'ra, “umumiy til” va “adabiy til” masalasi turk - musulmon xalqlari uchun vaqtincha sinovdek gap. Yuqoridagilardan kelib chiqib, shubhasiz “Tarjimon” gazetasi barcha millatlar

⁷⁰ Губайдуллин Г. Гаспринский и язык // Гасырлар авазы – Эхо веков № 3/46 1997 – С.209

⁷¹ Гаспринский И. Ҳаёт ва мамот масаласи Т.: “Маънавият”, 2006 – Б.23-24

⁷² Гаспринский И. Ҳаёт ва мамот масаласи Т.: “Маънавият”, 2006 – Б.24

uchun, turk tili barcha millatlar tili hisoblanadi deb qayd etadi. Turk - musulmon xalqlari uchun “umumiy til” bilan “til birligi” o’rtasidagi farq va uning ahamiyati, shuningdek “ko’cha tili” va “erkaklar tili” to’g’risida ham o’z mushohadasini beradi. Ismoil Gasprali har bir millatning bolalarini savodi shevada chiqish mumkinligi va hatto ayrim ommabop kitoblar ham tegishli millatlar tilida chop etilishini to’g’ri deb hisoblab, ta’limning yuqori bosqichlarida o’qish-o’qitish “umumiy til”ga asoslanishi kerakligini ta’kidlagan⁷³.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, Gasprali “til birligi” va “umumiy til” masalalarini ko’tarishdan maqsad turk - musulmon xalqlari ma’rifati, siyosiy ongida hamjihatlik, o’zaro munosabatlarda birgalikda harakat qilish, ta’lim tizimida hamkorlikni rivojlantirish g’oyalarini ilgari surgan.

Gasprali turk - musulmon xalqlari bu borada o’zaro hamkorlik aloqalarini o’rnatishlari zarurligiga e’tibor qaratib, o’lkada u yoki bu sabab bilan ko’chib kelgan “bir hovuch tatar – no’g’ay jamoasi bor. Bu jamoada bir oz jon asari borligi ko’rinadi, bosh og’riqlarini bildirib turadilar. Turkistoniylar bo’lardan bo’lsa ham ibrat olmayotganliklari juda taassufli hollardandir. Sibiriyaning eng chekka muzli viloyatlaridan tegishli idoralarga arizalar berildi. Ba’zi talablari ado ham etildi. Turkistondan na ikki satr hat, na bir parcha qog’oz ko’rilmadi, eshitilmadi” deb, bunday sukunat va tinchlikka qanday baho berish mumkinligi, buni baxtli hayotdan debmi yoki o’lik, hayotdan tushunish – tushunmasligi deyish bilan o’lka xalqining bu holati “...qabohatdan, maorifsizlikdan. ...Boy va boylik yetarlik, mol va pulingiz ortmoqda, lekin bular bilangina yashab bo’lmaydi. Ma’lumot kerak, maorif kerak. Avlodingizni o’qiting, zamondan, dunyodan xabardor bo’lsin. ...Ilmi fiqh va ilmi kamol kifoya qilmaydi. Lison, kamoloti fanniya va ulumi aqliya tahsili zarurdir” – deb qayd etadi⁷⁴.

⁷³ Губайдуллин Г. Гаспринский и язык // Гасырлар авазы – Эхо веков № 3/4, 1997. – С. 212-213

⁷⁴ Гаспринский И. Ҳаёт ва мамот масаласи Т.: “Маънавият”, 2006 – Б.107-108.

Turk - musulmon xalqlarining muammosi, ularni hamjihat, hamfikir bo'lishi, o'zaro hamkorlik qilishlari, miliy uyg'onish yo'lini tanlashlari, achinarli va ayanchli holati haqida "Ulfat" gazetasi muharrir Rashid afandi Ibrohimov: "Musulmonlarga qancha xo'rliklar tortishga, qancha kulfatlarni boshdan kechirishga to'g'ri keldi... Yillar o'tdi, kulfatlar ko'paygandan ko'paya bordi. Garchi bunday ahvolning tashqi sabalari ham bo'lsa – da, asosiysi, har xolda, oramizda ahillikning yo'qligidir (ta'kid bizniki – R.R.). Rossiyada o'zgarishlar sodir bo'ldi, islohotlar davri yetib keldi, ammo biz - musulmonlar o'rtasida esa harakatdan nom – nishon ko'rinmadi. Eng katta ishimiz – hukumat oyog'iga bosh egib, uni sovg'a – salomlarga ko'mib tashlaganimiz bo'ldi, biroq bundan sariq chaqalik foyda bo'lmadi, negaki, bizning ovozimiz hech kimning qulog'iga yetib bormadi. Iltijoli arzlarimizni hech kim o'qigani ham yo'q. Umidlarimiz so'ndi, ammo biz xalos yo'lini qidirmog'imiz..." kerak, - deydi⁷⁵. Mazkur maqola ham turk - musulmon xalqlarini uyg'onishiga, ma'rifat yo'lida sa'y – harakatlar qilishga, islohotga bag'ishlangan edi.

Tarixiy dalillar shundan dalolat beradiki, Ismoil Gasprali tomonidan turk - musulmon xalqlari o'rtasida ma'rifatchilikni yoyishda jadid maktablarini ochilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Ma'lumki, birinchi jadid maktabi 1884 yili Ismoil Gasprali tomonidan Qrimda ochildi. Jadidchilik usulidagi maktabni ochilishi turk - musulmon xalqlari hayotida maorif islohotlarini boshlab berdi. Ismoil Gasprali jadidchilik harakatini yakka o'zi boshlagan bo'lsa-da, qisqa vaqt ichida mazkur g'oyaga ko'plab hamfikrlarni jalb qilishga erishdi. Turk - musulmon xalqlari orasida XX asr boshlariga kelganda jadidchilik harakati Turkistonda ham o'z tarafdorlariga ega bo'ldi. Turkistonda jadidchilik harakati boshlang'ich maktablar islohotidan boshlanib, asrlar davomida o'qitib kelinayotgan an'anaviy usullar o'rniga Gasprali tomonidan ishlab chiqilgan "usuli jadid" – "yangi usul" joriy etildi. Boshlang'ich maktablarda jadid usulida o'qitishni joriy etilishi islohotlarning dastlabki qadami deb qabul qilinsa, ikkinchi qadam bo'lib, jadid ma'rifatparvarlari tomonidan katta yoshdagi

⁷⁵ Вамбери X, Маърифат йўлида уйғониш // Тафаккур №2, 2000 – Б.73

musulmonlarni zamonaviy davriy matbuot hamda yangi musulmon adabiyotlari bilan tanishtirish edi. Bunda ham Turkiston islohotchilari Gasprali izidan bordilar, xususan “musulmonlar o’quv zali” ochib, unda asosan madrasa talabalarini o’qishiga e’tibor qaratdilar. “Musulmon o’quv zali”ga musulmon dunyosi davriy matbuot materiallarini joylandi. Tarixiy dalillar xronikasi shuni ko’rsatdiki, Rossiya imperiyasi Volgabo’yi, Uraloldi hududlariga nisbatan Turkiston, Buxoro, Xivada jadidchilik kechroq, aniqrog’i XX asr boshlarida tarqaldi. Lekin shunga qaramasdan, qisqa muddatda boshqa turk - musulmon xalqlariga, islohotlarni amalga oshirishda, amalda yetib oldi. Bu yangi usuldagi maktablar tashkil qilishdan boshlab siyosiy oqimlar tashkil qilishgacha ko’zga tashlanadi⁷⁶.

Turkistonda yangi usuldagi maktablarni vujudga kelishi rus – tuzem maktablarini tashkil etilishi davriga to’g’ri keldi. Ayrim joylarda, masalan, 1910 yili Toshkentda 16 ta yangi usul maktabi faoliyat yuritgan holda, aynan shu yili rus – tuzem maktablari Toshkentda 8 tani tashkil qilgan. 1911 yili Qo’qonda 162 nafar o’quvchini o’z ichiga olgan 2 ta rus – tuzem makabi bo’lgan bo’lsa, ayni paytda 530 nafar o’quvchisiga ega bo’lgan 8 ta yangi usul maktabi faoliyat yuritgan⁷⁷. SHuni ta’kidlash joizki, Turkistondagi yangi uslubdagi maktablarni ochilishi Ismoil Gasprali faoliyati bilan bog’liq. U Turkistonda Rossiya imperiyasidagi musulmonlarning deyarli yarmi istiqomat qilishini bilar, shuning uchun ham 1892 yili o’lka musulmonlari ma’rifatida islohot o’tkazish taklif – g’oyasini Turkiston general – gubernatori A.B. Vrevskiy nomiga qilgan murojaatida keltirgan edi. Ammo A.B.Vrevskiydan xatiga javob olmagan Ismoil Gasprali 1893 yili Buxoro amiri Abdulaxad taklifi asosida dastlab Turkistonga va keyin Buxoroga tashrif buyuradi. 1893 yil yozida Samarqandda tatar millioneri Abdulg’ani Xusainov uyida mehmon bo’ladi. Ismoil Gasprali yordamida U Samarqandda yangi usuldagi maktablar ochishga e’tibor qaratadi. Ismoil Gasprali yangi usuldagi maktabga, tashkiliy masalalar hal etilgandan

⁷⁶ Абдурашидов З. Исmoil Гаспринский и Туркестан в начале XX века: связи-отношения – влияние Т.: “Akademnashr” 2011 – С.9-11

⁷⁷ Қаранг: Абдурашидов З. Исmoil Гаспринский и Туркестан... – С.198-199

keyin, o'ziga hamroh bo'lib kelgan ozarbayjon ma'rifatparvari G'anizoda Sulton Majid Murtaza – Ali o'g'lini o'qituvchi qilib tayinladi. G'anizoda 40 kun davomida tatar va mahalliy millat vakillarini yangi usuldagi maktabda o'qitish davomida, tatar o'qituvchisi Muhammad Fotihni ham bunga o'rgatadi. Mazkur maktab Samarqandda “Mashinali maktab” nomini oladi⁷⁸. “Mashinali maktab”ni 1893 yilda ruxsatsiz faoliyat yuritganda ayblab bekitganlariga qaramasdan, yangi usuldagi maktablarga qiziqish ortib bordi. 1895-1901 yillarda Toshkentda 4 ta yangi usul maktablari tashkil topgan. Gasprali Buxoroga ikkinchi marta 1908 yili tashrif buyurdi. Ushbu tashrifda Buxoroda bitta yangi usuldagi maktab ochishga ruxsat oladi. Maktab ochishga ruxsat olgandan keyin Gasprali ma'rifat masalalarini rivojlantirish yuzasidan mahalliy ma'rifatparvarlardan Mirza Muxiddin Mansurov, Mirxon Parsaev, Qori Burxon, muftiy Ikrom va tatar jamiyati vakillari bilan uchrashadi⁷⁹.

Umuman olganda, Ismoil Gaspralini Turkiston ma'rifatiga munosabati o'lka harbiy – siyosiy ma'muriyati tomonidan yaxshi qabul qilinmagan. O'z paytida, Gasprali tomonidan 1881 yilda “Rus musulmonligi” risolasini chop etilishi podsho Rossiyasining musulmon aholisiga nisbatan olib borayotgan siyosati bilan bog'liq edi. Ismoil Gaspralining ushbu risolasidagi “maslahatlar” Turkiston amaldorlari, xususan o'lkada xalq ta'limi siyosati nazoratchisi N.P.Ostroumov tomonidan norozilik bilan qabul qilingan. Aslida N.P.Ostroumov Toshkentda, Ismoil Gasprali Boqchasaroyda “hamkasb” sifatida ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish bo'yicha faoliyat yuritishgan. Ammo ularning faoliyati bir – birini to'ldirmasdan, bil'aks g'oyaviy jihatdan qarama-qarshi edi. Masalan, N.P.Ostroumov Turkiston o'lkasidagi ta'lim tizimida ustozini N.Пьминский izidan borib, mahalliy aholini rus xalqiga, Rossiyaga yaqinlashtirish va ularni imperiyaning ajralmas bir qismiga aylantirish, ruslashtirish siyosati tarafdori edi. O'z navbatida Ismoil Gasprali ham

⁷⁸ Абдурашидов З. Исmoil Гаспринский и Туркестан... – С.201-202

⁷⁹ Абдурашидов З. Исmoil Гаспринский и Туркестан... – С.202,206

musulmonlarni rus xalqiga yaqinlashtirish tarafdori bo'lsa ham, buni mutlaqo boshqa yo'l bilan amalga oshirish tarafdori edi.

N.P.Ostroumov fikriga ko'ra, Ismoil Gasprali Turkiston aholisini o'z tomoniga ag'darishga harakat qilgan va bu yo'nalishda ma'lum bir muvaffaqiyatlarga erishib, Toshkentda ko'plab hamfikrlarini topgan. N.P.Ostroumov o'z paytida Ismoil Gaspralining Turkistondagi faoliyati va g'oyalarini baholab: maktablarni isloh qilishdan maqsad musulmonlarni Rossiya davlati va rus xalqidan ajratish deb hisoblangan. Ayni paytda N.P.Ostroumov Ismoil Gaspralini aqlu salohiyati va tarbiyasiga yuksak baho bergan⁸⁰.

Ismoil Gasprali turk - musulmon xalqlarini ilmi, ma'rifatli, diniy va ayni paytda dunyoviy bilimlar egasi, dunyo miqyosida o'z haqqi huquqini boshqa taraqqiy etgan millatlar bilan teng, baqamti ko'rish yo'lida izlandi. SHu maqsadda bor aqlu salohiyatini turk - musulmon xalqlari ma'rifati va ma'naviyatini yuksaltirish yo'lida nafaqat Qrim, Kavkaz hududlarida, balki Rossiyaning markaziy guberniyalari, Volgabo'yi, Uraloldi, Turkiston o'lkasi, Dasht viloyatlarida ham tezkorlik bilan o'z g'oyalarining samara va sifatini ko'rsata oldi. Uning eng katta xizmatlaridan biri Rossiya imperiyasida istiqomat qilayotgan, taqdir-taqozosi bilan saltanat tarkibiga hohoshiy-majburiy tarzda kiritilgan, ya'ni zamonning zayli tufayli, sun'iy ravishda bir-biridan, "uzoqlashtirilgan", qismatiga ko'ra bir-biridan deyarli farq qilmagan Rossiyadagi turk - musulmon xalqlarini ma'rifat asosida bir-biriga yaqinlashtirish bo'ldi. Turkiston jadidlarining otasi deb e'tirof etilgan Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan Ismoil Gaspraliga berilgan bahoda uni Rossiyadagi "butun turk – tatar xalqlari juda oz tarixiy muddatda xayr-xo'shlik yo'li bilan yaxlit bir milliy oilaga birlashtirmoqqa noil bo'ldi", - deyiladi⁸¹.

Ismoil Gasprali fikricha, Rossiya musulmonlari uchun bugun birinchi masala ma'rifatdir. Qolgani ma'rifatdan keyin, to'g'rirog'i ma'rifatdan

⁸⁰ Абдирашидов З. Исмаил Гаспринский... – С.105

⁸¹ Қосимов Б. Учинчи муаллимлар / Гаспринский И.Ҳаёт ва мамо масаласи. Т.: "Маънавият" – Б.3. Қаранг: Унинг ўзи. Гаспирали Исмоилбек. Т: Фафур Ғулум номидаги Нашриёт-манбаа бирлашмаси, 1992 – Б.7

boshlanadi. Lekin millatning savodi o'z tilida chiqmog'i kerak. Milliy tarbiya, muqaddas g'oyalar avlodning ongi tafakkuriga ona tilida singmog'i lozim. Ma'lumki, 1882 yilda ma'rifatga bag'ishlangan yig'ilish chaqirildi. Yig'ilish 30 avgustda Toshkentda o'qituvchilar seminariyasida o'tkazildi. Toshkent tanlanganiga sababi shuki, Ismoil Gasprali Rossiya musulmonlari der ekan, asosan Turkistonni nazarda tutardi. Turkistonning mavqei shuni taqozo etari. Ismoil Gasprali o'z asarini toshkentliklar bilan bog'lashi bejiz emas edi. Ushbu seminariyaning direktori mashhur missioner N.P.Ostroumov edi. Yig'ilishda general-geburnator A.K.Abramov o'lka oliy ma'muriyati, oliy ruhoniylar, seminariya talabalarining ota-onalari ishtirok etdilar. Yig'ilishda seminariyaning tarix va geografiya o'qituvchisi M.A.Murapiev ma'ruza qildi. Ma'ruzaning mavzusi: G'ayrirus musulmonlar maorifiga qanday bosh printsiplar asos qilib olinmog'i lozim? "Majlis o'qituvchilarning o'qish oldidan o'tkaziladigan avgust kengashi xarakterida bo'lib, tayyorgarligi va tantanavorligiga ko'ra yo'llanma maqomida edi. Notiq o'z so'zini asosan, Ismoil Gasprali fikrlarini rad etishga qaratadi: "Agar biz taklif qilingan loyihani (musulmonlarning o'z tillarida o'qitish) qabul etsak, shu paytgacha mudrab yotgan musulmon mutassibligini tiriltirgan va bu bilan qo'ynimizda ilonni asragan bo'lamiz", deb aytadi. "SHunday qilib – xulosalaydi o'z fikrini ma'ruzachi – musulmonlarimiz maorifi uchun asos qilib olinishi shart bo'lgan birinchi printsiplarni ularni ruslashtirishdir", "...ikkinchi printsiplarni... islomni buzish, prozeletizmdan voz kechish, qisqacha aytganda, yot musulmonlarimizning, umuman diniy jihatlarini buzishdir⁸². Bu chor hukumatining Turkiston va umuman g'ayrirus musulmonlar maorifi borasidagi rasmiy nuqtai nazari, amaldagi joriy siyosati edi. SHunga qaramay, Gasprali yangi maktab g'oyasidan voz kechmadi. Aksincha, u xalq fikrlarini amalga oshirishga kirishdi. 1884 yilda usuli jadid nomi bilan yangi maktab ochdi⁸³.

⁸² Қосимов Б., Миллий уйғониш, - Т: "Маънавият", 2002 – Б. 19-20

⁸³ Қосимов Б., Миллий уйғониш, - Т: "Маънавият", 2002 – Б. 21-22

SHunday qilib, Ismoil Gasprali sa'y-harakati tufayli Turkistonda, Buxoroda, Xivada yangi usul maktablarida o'qitish yo'lga qo'yildi. Ammo bu qiyinchilik bilan amalga oshdi. CHor Rossiyasi ma'murlari jadidizmni Turkistonda keng quloqch yoyishi nafaqat Turkiston general-gubernatorligi, balki Rossiya imperiyasi tarkibidagi turk - musulmon xalqlarining o'zaro munosabatlarini keng qamrovli yo'lga qo'yilishidan xavfsirar edi. SHuning uchun bo'lsa kerak, 1900 yil 31 dekabrda mutlaqo maxfiy belgisi ostida Rossiya ichki ishlar vazirligi imperiya gubernatorlariga ko'rsatma yuborib, unda: "...keyingi vaqtlarda tatar adabiyoti va matbuotida... rus musulmonlarining ko'p asrli turmush tarzini izdan chiqarish xavfiga sabab bo'luvchi ruh paydo bo'lganligi sezilmoqda. ...vazirlik e'tiborni Gaspirinskiy faoliyatiga, yangi usuldagi maktablarga, uning darsligi asosida ona tili va adabiyot o'qitishi masalasiga qaratadi" deb o'z xavotirini bildirgan⁸⁴. Ko'rinib turibdiki, Rossiya imperiyasi turk - musulmon xalqlari hamkorligiga, musulmon xalqlarni ma'rifati va ma'naviyati o'sib-unishiga qarshi bo'lgan. Mazkur ko'rsatmadan kelib chiqib, Verniy (Olma-ota) shahrida o'lka rus va rus-tuzem maktablari muallimlarining katta yig'ini bo'lib, unda majlis qatnashchilari "tatar muallimlarining maktab ochib o'qituvchilik qilishlariga, o'qimishli tatar ziyolilarining Turkiston o'lkasida yashashlariga, hatto joy sotib olishlariga ruxsat bermaslikni talab qildilar". Bunday siyosatga Ismoil Gasprali o'z munosabatini bildirib, "Rossiyadan kelgan musulmonlarning O'rta Osiyodan mul olmasidan Rusiya davlatining foydasi nadur? Ikki taraf birlashmasun. Rusiyali musulmonlar turkistonlilara rahbar o'lmasun kabi g'alat bir fikr esa behudadir, besamardir. Musulmonlarning birligi bo'yla qoziqlar ila ayrilmaz, chunki bu **birlik diniydir, tarixiydir, jinsiydir** (ta'kid bizniki – R.R.). Bo'yla qoziqlarning hatto foydasida vordir: musulmonlarning fikrini ishlatur, ko'zlarini ochar, himmatga savq edar"⁸⁵.

⁸⁴ Туркистон жадидчилиги – миллий уйғониш даври тарихи (XIX аср охири – XX аср бошлари) Наманган, "Наманган" нашриёти, 2012. – Б. 20.

⁸⁵ Туркистон жадидлиги – миллий уйғониш даври тарихи ... Б. 21-22.

Qrimda o'z faoliyatini boshlagan Ismoil Gaspralining turk - musulmon xalqlari madaniy-ma'rifiy hamkorligi yo'lidagi harakati tag-zamirida ezgu bir niyat borligini, Turkiston jadidlarining ma'naviy otasi Mahmudxo'ja Behbudiy, Toshkent jadidlari otasi Munavvarqori Abdurashidov va boshqa o'lka ziyolilari tushunib yetdilar. Turk - musulmon xalqlari birligi, o'zaro munosabatlar zarurligi masalasida nafaqat Ismoil Gasprali, balki Rizo Faxriddin, Sadri Maqsudiy, Fotiq Karimiy qarashlari ham muhim o'rin tutdi. Xususan, Turkistonda, Buxoro va Xivada jadid maktablarini birin-ketin ochilishi va keng quloqch yoyishi buning dalilidir. Ammo shuni qayd etish lozimki, turk - musulmon xalqlari hamkorligi Rossiya imperiyasi, xususan Turkiston general-gubernatorligi amaldorlari tomonidan, amalda qo'llab-quvvatlanmay, ko'pgina qarshiliklarga uchradi.

Шундай қилиб, Исмоил Гаспрали саъй-ҳаракати туфайли Туркистонда, Бухорода, Хивада янги усул мактабларида ўқитиш йўлга қўйилди. Аммо бу қийинчилик билан амалга ошди. Чор Россияси маъмурлари жадиализмни Туркистонда кенг қулоқ ёйиши нафақат Туркистон генерал-губернаторлиги, балки Россия империяси таркибидаги турк - мусулмон халқларининг ўзаро муносабатларини кенг қамровли йўлга қўйилишидан хавфсирар эди. Шунинг учун бўлса керак, ўқимишли татар зиёлиларининг Туркистон ўлкасида яшашларига, ҳатто жой сотиб олишларига руҳсат бермасликни талаб қилдилар”. Бундай сиёсатга Исмоил Гаспрали ўз муносабатини билдириб, “Россиядан келган мусулмонларнинг Ўрта Осиёдан мул олмасиндан Русия давлатининг фойдаси надур? Икки тараф бирлашмасун. Русияли мусулмонлар туркистонлиларга раҳбар ўлмасун каби ғалат бир фикр эса беҳудадир, бесамардир. Мусулмонларнинг бирлиги бўйла қозиклар ила айрилмас, чунки бу **бирлик динийдир, тарихийдир, жинсийдир** (таъкид бизники – Р.Р.).

Бўйла қозикларнинг ҳатто фойдасида вордир: мусулмонларнинг фикрини ишлатур, кўзларини очар, ҳимматга савқ эдар”⁸⁶.

Қримда ўз фаолиятини бошлаган Исмоил Гаспралининг турк - мусулмон халқлари маданий-маърифий ҳамкорлиги йўлидаги ҳаракати тағзамирида эзгу бир ният борлигини, Туркистон жадиждларининг маънавий отаси Маҳмудхўжа Бехбудий, Тошкент жадиждлари отаси Мунавварқори Абдурашидов ва бошқа ўлка зиёлилари тушуниб етдилар. Турк - мусулмон халқлари бирлиги, ўзаро муносабатлар зарурлиги масаласида нафақат Исмоил Гаспрали, балки Ризо Фаҳриддин, Садри Мақсудий, Фотик Каримий қарашлари ҳам муҳим ўрин тутди. Хусусан, Туркистонда, Бухоро ва Хивада жадижд мактабларини бирин-кетин очилиши ва кенг қулоч ёйиши бунинг далилидир. Аммо шуни қайд этиш лозимки, турк - мусулмон халқлари ҳамкорлиги Россия империяси, хусусан Туркистон генерал-губернаторлиги амалдорлари томонидан, амалда қўллаб-қувватланмай, кўпгина қаршиликларга учради.

2.2. Turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi ilmiy, ijtimoiy – siyosiy jarayonlarda Ahmad Zaki Validiy To'g'onning tutgan o'rni

Turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi munosabatlarda boshqird xalqining munosib farzandi, Ahmad Zakiy Validiy To'g'on (1890-1970) ni tutgan o'rni, uning ilmiy, siyosiy qarashlari, Turkiston va Boshqirdiston mustaqilligi uchun olib borgan siyosiy kurashlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Turk - musulmon xalqlari ichida yorqin iz qoldirgan Zakiy Validiy To'g'on hayotining dastlabki yillari va keyinchalik umrining ikkinchi yarmida ilm bilan shug'ullanganligi ma'lum. Xususan, turk - musulmon xalqlari tarixi, madaniyati, urf – odati, adabiyoti va keyinchalik ularning o'zaro munosabatlari, siyosiy hamkorlikda mustaqillik yo'lida kurashlari Zakiy Validiy To'g'on hayotida muhim ahamiyat kasb etgan.

⁸⁶ Туркистон жадиждлиги – миллий уйғониш даври тарихи ... Б. 21-22.

Z.V.To'g'onning faoliyatida ilmiy izlanishlar, tarixga, adabiyotga bo'lgan qiziqishlarga XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy holatlar ta'sir o'tkazgan. Uning ilmiy faoliyati shakllanishida yana Orskdagi “Sharq”, Toshkentdagi “O'rta Osiyo” kitob do'konlaridan olinadigan kitoblar ham muhim rol o'ynagan⁸⁷.

Zakiy Validiy To'g'on 1908-1916 yillar oralig'ida asosan ilmiy ishlar bilan mashg'ul bo'lgan. Uning o'zi 18 yoshdan 26 yoshga qadar o'qishda, dars berishda, ilmiy izlanishlarda ko'plab qiyinchiliklarga Boshqirdistonda, Qozonda, Farg'onada, Buxoroda, Peterburgda uchraganini ta'kidlaydi. Mazkur davrda To'g'on ko'plab ilg'or turk - musulmon ziyolilari bilan tanishishga, Turkiston, Turkiya, G'arbiy Yevropa tarixiga oid asarlarni o'rganishga muvaffaq bo'ladi. Albatta bu Z.V.To'g'onni dastlabki ilmiy-tarixiy qarashlarini shakllanishiga asos bo'lib xizmat qildi. Aynan shu sababdan 1908-1909 yillari Rossiyadagi turk - musulmon xalqlari tarixiga oid yirik asarni yozishga turtki berdi. Ushbu kitob “Turk va tatarlar tarixi”⁸⁸ nomi bilan 1912 yilda chop etilgan⁸⁹. Ushbu kitob turk - musulmon xalqlari tarixshunosligida, xususan o'rta osiyoliklar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Yana shuni ham ta'kidlash joizki, aynan XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tasarrufi va ta'siri ostida turk - musulmon xalqlari tarixiga oid bir necha kitoblar dunyo yuzini ko'rgan. Bu borada Ahmad Donishning “Mang'it amirlari tarixi”, Abdul Somiyning “Buxoro mang'it amirlari sulolasi tarixi”, Muhammad Yusuf Bayoniyning “Xorazmshohlar shajarasi”, Ishoqxon Ibratning “Farg'ona tarixi” va boshqalarni keltirish mumkin. Bir paytning o'zida Ozarbayjon, Dog'iston,

⁸⁷ Заки Валиди Тоган. Воспоминания. Борьба народов Туркестана и других восточных мусульман – тюрок за национальное бытие и сохранение культуры. Книга I, Уфа «Китап», 1994 – С.58

⁸⁸ Китоб нашриётчилари хатоси билан шундай номланган. Бу ерда татарларни туркий халклардан ажралган холда кўрсатилиши нотўғри. Кейинги эслашларда “Турк тарихи” деб қайд этилади. – Р.Р.

⁸⁹ Ушбу китобни З.В.Тўғон 21 ёшда ёзган бўлса ҳам, шу пайтга қадар илмий аҳамиятини йўқотмаган. Китоб 1992 йилда Қозонда (татар тилида), 1993 йили Истанбулда (татар тилида), 1994 йили Уфада (башқирд тилида) қайта нашр этилган. Қаранг: Ахметзаки, личность // Юлдашбаев А.М. Известный и неизвестный Заки Валиди, Уфа, «Китап», 2000. – С. 205

Volgabo'yi, Janubiy Ural (Ufa, Orenburg), Sibirda ham turk - musulmon xalqlarining tarixiga oid umumiy va mintaqaviy miqyosdagi kitoblar yozildi⁹⁰.

Z.V.To'g'onning "Turk va tatarlar tarixi" asarini Ismoil Gasprali "Tarjimon" gazetasida, Yusuf Oqcho'ra "Tarix yurti" majmuasida, Qozonda professor N.F. Katanov bilan sharqshunos Yemel'yanov rus ilmiy jurnallarida yaxshi baholab yozdilar. Mazkur asardan ibrat olib, Istanbulda Ravzon Nafiz, Qo'qonda Yusufxon xoji og'aliq o'g'li turk tarixiga oid asarlar yozdilar. Uning yozgan asarini yuqori baholaganlar orasida Ozarbayjondan Husayinzoda Alibek, Orenburgdan Rizouddin Faxriddin⁹¹, Istanbuldan Kuprulu Fuadbeklar bor edi. SHuningdek, qozoq Alixon Bo'kayxon, ufalik Salimgaroy Sulton Jonturinlar ham e'tirof etdilar. Z.V. To'g'onni Mahmudxo'ja Behbudiy va Ufadagi "Usmoniya" madrasasini mudiri katta mehnat haqi to'lashni va'da qilib, turk tarixi bo'yicha muallimlikka taklif etdilar. Mazkur asar tufayli professor N.F. Katanov Qozon universitetining arxeologiya va tarix jamiyati yig'ilishida Z.V.To'g'onni turk tarixi va etnografiyasiga oid yanada ko'proq manbalar to'plash uchun Farg'onaga yuborish zarurligini qayd etdi⁹².

Z.V.To'g'onni turk - musulmon xalqlari tarixiga qiziqishida ustozi N.F.Katanovning roli katta. Aynan N.F.Katanov tufayli Z.V.To'g'on SHarq tarixiga oid kitoblarni Toshkentdan, Bokudan, Londondan, Leydendan olishga va yana Mirxond va Xondamirlar tarixiy asarlari hamda "Boburnoma" bilan tanishishga muvaffaq bo'ldi. SHuningdek, turkman beki Davlatshohning "Tazkirat-u-shuaro" ("SHoiralar Tazkirasi") bilan ham tanishdi. Turk - musulmon xalqlari tarixini chuqurroq o'rganish asnosida Z.V.To'g'on musulmonlarning dunyo tsivilizatsiyasida tutgan o'rnini yaxshi anglash imkoniyatiga ega bo'ldi. Xususan, Z.V.To'g'on turk - musulmon xalqlari tarixini chuqurroq o'rganish jarayonida u o'zini qiynagan:

⁹⁰ Абдурахманов М. Научная деятельность А.З. Валидова в Туркестане Т.: Изд-во "Фан" Академии наук Республики Узбекистан, 2004 – С.17-18

⁹¹ Кенгроқ маълумот олиш учун қаранг: Башиев Ф.Н. Общественно – политические и нравственно – этические взгляды Ризы Фахретдинова. Уфа, «КИТАП», 1996

⁹² Аҳмад Закий Валидий Тўғон. Бўлинггани бўри ер. Туркистон халқларининг миллий мустақиллик учун кураши тарихидан. Хотиралар. Т: "Адолат", 1997 – Б.30-31; Заки Валиди Тоған. Воспоминания... – С.128

1. Hozirgi yuz yil davomida turk - musulmon xalqlarini rivojlanishidan orqada qolganiga sabab nimada?

2. Qoloqlikka asosiy sabab haqiqatan ham islom dinimi? – degan savollarga javob istardi⁹³.

“Turk tarixi” yozishga kirishdi. Ushbu kitob ustida ishlar ekan Mirxond, Xondamir, Zaxiriddin Muhammad Bobur asarlarini qunt bilan o’rgandi. “Turk tarixi”ni yozishga axd qilgan Zakiy Validiy To’g’on ingliz, nemis, frantsuz tillardagi o’qishga muxtojlik seza boshladi. Chunki har bir tarixiy manbani tarjimada emas, o’sha yozilgan asl tilda o’rganish maqsadga muvofiq edi. SHuning uchun u Qozonda ingliz, nemis, frantsuz tillarini ham chuqurroq o’rganishga intildi⁹⁴. U “Turk tarixi” kitobi ustida fors, turk tillarida yozilgan asarlarga murojaat qilar ekan, Turkiston bu borada juda katta ma’naviy madaniyat markazi ekanligiga ishonchi komil bo’ldi. Turkistonda qadimiy qo’lyozma kitoblar ko’pligi haqida nemis sharqshunosi Gotvald ham ta’kidlab o’tgan edi.

Asar taqdimoti keng jamoatchilikka qanday ta’sir ko’rsatilganini, asar bilan tanishib chiqqan qo’qonlik Ashurali Zohiriy va Yunusxoji og’aliklarni Zakiy Validiyini qidirib Qozonga, Orenburg va Ufaga borganliklaridan ham ko’rish mumkin. Tanishuv chog’ida shu narsa aniq bo’ldiki, ular ham tarixga qiziqar hamda o’z ona yurtlari tarixini yoritish ishtiyoqida yurgan edilar. Bu uchrashuv Zakiy Validiy ovulida ikki hafta davom etdi. Uchrashuv natijasida ular turk - musulmon xalqlarining tarixi, tili, dini, etnografiyasiga oid hamda turklarni jahon tsivilizatsiyasidagi tutgan o’rni bo’yicha bahslar qilishdi. Mehmonlar “Turk tarixi” muallifiga asarni ikkinchi jildi uchun Turkiston tarixi haqida muhim va qiziq materiallar, manbalar taklif etadilar. Ularning rag’bati bilan Zakiy Validiy “Qutadg’u bilik”, “Zafarnoma” kabi asrlarni o’rganishga kirishdi.

⁹³ Абдурахманов М. Научная деятельность. А.З. Валидова... – С. 22-23

⁹⁴ Заки Валиди Тоған Воспоминания... – С.122-123

Z.V.To'g'onning "Turk tarixi" asari tufayli CHO'lpon (Abdulhamid Sulaymon o'g'li) muallifni Andijonga taklif etdi. Ularning uchrashuvi 1913 yili bo'lib o'tdi. SHu yili Zakiy Validiy To'g'on, Qozon universiteti qoshidagi "Arxeologiya, tarix va etnografiya jamiyati"ning a'zosi etib saylandi va aynan shu jamiyat uchun Turkistonning Farg'ona viloyatiga tarixiy va etnografik ilmiy tadqiqotlar uchun safarbar qilindi. Zakiy Validiy Turkiston o'lkasidagi birinchi sayohatni Toshkentdan, otasining ruhoni ustoz bo'lgan SHayx Xovandi Toxur buvaning qabrini ziyorat qilishdan boshladi. Safar davomida Farg'ona, Samarqand va Buxoroda bo'ldi. Zakiy Validiy Farg'onada o'zbeklarning turmush tarzi, urf-odatlarini o'rgandi. SHuningdek, SHarq allomalarining ko'pgina qo'lyozmalari bilan tanishib chiqdi. Aynan shu safari natijasida Namangandan Lolarish eshon qo'lidan Yusuf Xos Xojib (Bolasug'oniy) ning "Qutadg'u bilik" asarini topishga muvaffaq bo'ldi. Bu asar hozir O'zbekiston Fanlar Akademiyasi SHarqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanadi⁹⁵.

Shuningdek, u ushbu safari davomida Qo'qon shahrida "G'ayrat" nomidagi kutubxona tashkil etishda ham ishtirok etdi. 1914 yili akademik V.V. Bartold tavsiyasiga binoan Rossiya fanlar akademiyasi Z.V. To'g'onni Buxoro amirligiga yubordi. Z.V. To'g'on O'rta Osiyoga safarlarida Qo'qon, Eski Marg'ilon, Namangan, O'sh, Andijon, Toshkent, Buxoro amirligi hududlarida bo'lib, Namanganda Yusufxon to'ra va Nosirxon to'ra ixtiyoridagi qo'lyozmalar bilan tanishiga, Andijonda qozi Otabekka va O'shda Quدراتilla Toirboevlarga tegishli qo'lyozmalar bilan muvaffaq bo'ldi⁹⁶. 1914 yil martida Turkiston arxeologik jamiyatida Zakiy Validiy o'zining Turkistonga qilgan ilmiy safari to'g'risida hisobot beradi.

Safari davomida Zakiy Validiy Turkistonda juda ko'p do'stlar orttirdi. Ular nafaqat Turkiston madaniyati tarixini o'rganishda, balki keyinchalik o'lkadagi siyosiy faoliyatida ham yaqindan hamkor bo'ldilar. Zakiy Validiy tomonidan "Turk va tatarlar tarixi"dan katta taassurot olgan Mahmudxo'ja

⁹⁵ Абдурахманов М. Научная деятельность. А.З. Валидова... – С. 37-38,79

⁹⁶ Абдурахманов М. Научная деятельность... С.78-79

Behbudiy “Oyna” jurnali uchun Turkistonning hozirgi tarixiga oid bir nechta maqolalar yozib berishni so’raganligi ham o’zaro munosabatlarda muhim ahamiyatga molik hisoblanadi⁹⁷.

Qayd etish lozimki, Zakiy Validiy To’g’onning 1913 va 1914 yillardagi Turkistonga ilmiy safarlari muvaffaqiyatli tarzda bo’lgan. Ilmiydan tashqari yana, Z.V. To’g’on Turkistonga safar chog’ida Behbudiy, etnograf Abubakir Divaev, Po’lat Soliev, Mustafo CHO’qaev, Eser Vadim CHaykin, CHO’pon, Munavvarqori Abdurashidxonov, Nazir To’raqulov, Ubaydulla Xo’jaev va boshqalar bilan uchrashdi⁹⁸.

Yosh olim ilmiy safari davomida Turkistonning qaeida bo’lmasin, imkon qadar ko’proq qadimiy qo’lyozmalarni o’rganishga harakat qiladi. Toshkentda qirg’iz ziyolisi Ibrohim Jomuluzoqov bilan bo’lgan uchrashuv natijasida u qirg’iz xalqining ilmiy eposi “Manas” ga qiziqib qoldi. Keyinchalik olim bu buyuk doston mutoaalasi bilan bir umr shug’ullandi⁹⁹.

Zakiy Validiy Buxoroga qilgan safarida mashhur arxeolog V.Vyatkin va injener Kostovskiylar bilan tanishib, ular to’plagan qimmatli qo’lyozmalarni ham o’rgandi. Qarshi bozoridan “Qur’on”ning eski turk tilidagi X asrga oid tarjimasining qo’lyozmasini xarid qildi¹⁰⁰. SHu paytga qadar Qur’onning mazkur qo’lyozmasi turk tiliga tarjima qilingan eng qadim nusxasi hisoblanadi. SHuningdek, Qarshidan Temuriylar davridagi ijtimoiy va madaniy hayotni aks ettirgan Xirot adabiy maktabi va Alisher Navoiy davridagi shoir va fuzalolar to’g’risida ma’lumotlar to’pladi. SHu bilan birga Mahmud Vasifiy qalamiga mansub nodir qo’lyozmani (asarlarini nomi ma’lum emas. R.R.) ham qo’lga kiritdi. Noyob qo’lyozmalar haqida keyinchalik Rossiya fanlar akademiyasining sharqshunoslar ilmiy kengashida ma’ruzalar qiladi.

⁹⁷ Шигабдинов Р. Дореволюционная политическая деятельность А.Валидов в Туркестане и национальная пресса / Миллий матбуотимизнинг икки дурдонаси Т.: “MUMTOZ SO’Z”, 2015 – С.46

⁹⁸ Шигабдинов Р. Дореволюционная политическая деятельность А.Валидов в Туркестане и национальная пресса / Миллий матбуотимизнинг икки дурдонаси Т.: “MUMTOZ SO’Z”, 2015 – С.47

⁹⁹ Байкара Тунджер. Заки Валиди Тоган, “Китап”, 1998. – С.19

¹⁰⁰ Юлдашбаев А.М. Известный и неизвестный Заки Валиди... - С.205

Turkiston bo'lgan chog'ida Zakiy Validiy o'lkaning ijtimoiy-siyosiy hayotida ham faol qatnashdi. Xususan 1913 yili Farg'onada eser Vadim CHaykin bilan bir necha bor uchasuv davomida musulmonlarni o'zlariga tegishli tashkilotlari zarurligi hamda bu borada "Sadoi Turkiston" ("Turkestanskiy Golos") gazetalarini turkiy va rus tillarida chop etishga qaror qildilar. Turkiy tildagi gazetani chop etish masalasida advokat Ubaydulla Xo'jaev va Munavvar Qori Abdurashidxonov hamda Ashurali Zohiriylar bilan muzokaralar olib ordi. Gazetani mafkuraviy dasturini ishlab chiqishda Z.V.To'g'on quyidagilarga e'tibor qaratdi:

1. Mahalliy aholi va ruslar o'rtasida bir xil soliqqa erishish zarur.
2. Turkistonga ko'chirib keltirilayotgan ruslarga yer berishni, ko'chmanchi musulmonlar o'troq hayot tarziga o'tgunga qadar, to'xtatish.
3. Zamonaviy xalq maorifini tarqatish¹⁰¹.

Sa'y-harakat natijasida V.CHaykin Andijonda, Ubaydulla Xo'jaev Toshkentda gazeta chop etishga kirishdilar¹⁰². Zakiy Validiy ushbu gazetaga adabiy taxallusi bilan maqolalar taqdim etadi¹⁰³.

Zakiy Validiy Peterburgga qaytgach, o'zining Turkistonga qilgan safari bo'yicha Rossiya fanlar akademiyasida atroflicha hisobot beradi. SHarqshunos olimlar V. Bartold va Radlov Zakiy Validiy tomonidan yamalga oshirilgan ilmiy safar natijalariga ulkan baho berdilar. Zakiy Validiy Peterburgda qolib o'z safarlari natijalarini umumlashtirish ustida ishladi. Bartold bilan birga "Temurning Hindistonga safari" asarini yozdi. Asarni yozishda Farg'onadan topib keltirilgan SHaxobiddin Munshiy yozmalari (Suriya, SHom, Rum yurishlari haqida) juda qo'l keladi. Zakiy Validiy mashaqqatli mehnatlaridan so'ng "Turk - musulmon xalqlari tarixi"ning 2-jildini ham yozib tamomladi.

Z.V.To'g'onning ilmiy-pedagogik faoliyati bir paytni o'zida siyosiy faoliyatiga ham qo'shilib ketgan. Xususan, Z.V. To'g'onni ijtimoiy – siyosiy

¹⁰¹ Заки Валиди Тоған. Воспоминания... – С.158-159

¹⁰² Шигабдинов Р. Дореволюционная пометическая деятельность... С.47

¹⁰³ Қаранг: Каримов Н. Миллий матбуотимизнинг икки машхур сиймоси / Миллий мабуотимизнинг икки дурдонаси Т.: "MUMTOZ SO'Z", 2015. – Б.13

faoliyati 1915 yili boshlangan. 1915 yili Rossiya Davlat dumasi tomonidan ommaviy axborot vositalari – gazetalar orqali barcha musulmonlarga murojaat e’lon qilib, unda deputatlarga yordamchi zarurligi qayd etilgan. Bir necha nomzodlar ichidan, Tevkelev, S.Janturin, A.Sirtlanov, G.Terenulovlar qo’llab – quvvatlashi natijasida, Z.V.To’g’on Davlat dumasida musulmon deputatlari yordamchisi etib saylangan. SHundan keyin Z.V.To’g’on Rossiya turk – musulmonlari dunyosida siyosiy faoliyatdagi ishtiroki bilan ko’zga ko’rina boshladi. 1916 yil davomida musulmon deputatlari fraktsiyasida boshqa turk - musulmon xalqlari muammolarini o’rganish ham Z.V.To’g’on siyosiy faoliyati uchun muhim ahamiyat kasb etgan¹⁰⁴.

U o’z hayotidagi bu burilishni vaqtinchalik deb o’ylaganiga qaramasdan, siyosiy faoliyat shug’ullanish bilan uzoq – uzoq yillarga bog’lanayotganligi bilmasdi. Peterburgda o’z siyosiy faoliyatini boshlagan Zakiy Validiy barcha musulmonlar bilan bahamjihat ish yuritishiga to’g’ri keldi. U o’z faoliyati davomida nafaqat boshqirdlar, tatarlar muammosi bilan, balki boshqa musulmonlar, xususan turkistonliklar muammosi bilan shug’ullanar edi. Ayniqsa, uning Mustaf Cho’qaev bilan 1916 yil Turkistonda Rossiya markaziy hududlariga front orqasida ishlashga jalb qilinganlar holidan xabar olishga borgan va ularning muammosi bilan shug’ullanganini qayd etish lozim¹⁰⁵.

Oradan ko’p o’tmay, Rossiyada 1917 yil fevral inqilobi yuz berdi. Zakiy Validiy inqilob butun musulmon xalqiga ozodlik olib keladi deb umid qildi. U mamlakatda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy ahvoldan unumli foydalanib, musulmon xalqlari, xususan turk - musulmon xalqlari muxtoriyatiga erishish kerak degan fikrga keldi. Ayni shunday ezgu g’oyalar bilan yongan Zakiy Validiy tashkiliy ishlarga sho’ng’ib ketdi. Peterburgda butun Rossiya musulmonlari qurultoyini tayyorlashga astoydil bel bog’ladi. Kun tartibida qancha delegat qatnashishi kerak degan savolga, - 600 delegat bo’lishi maqsadga muvofiqligini qayd etdi. Delegatlar soni har bir musulmon xalqining

¹⁰⁴ Байкара Тунджер Заки Валиди Тоган... – С. 20

¹⁰⁵ Байкара Тунджер Заки Валиди Тоган... – С. 20

soniga nisbatan olinishini etnografik, statistik tarzda asoslab berdi. Ammo uning bu tavsiyasi Ahmad TSalikov va Gayoz Ishokiylar tomonidan inkor etilib, ular ko'proq delegatlar Qozondan bo'lishi tarafdori bo'lib chiqdilar. Voqealar rivojidan qoniqmagan Ahmad Zakiy Validiy tunu-kun bedor bo'lib, Rossiyaning musulmonlar yashaydigan hududlaridagi yetakchilarga, xususan Turkiston, Ozarbayjon, Boshqirdistonga muxtoriyatga asoslangan respublika tuzish bilan bog'liq maktublar bitib chiqdi. U bunga ham qanoat hosil qilmay, 1917 yil 28 martda Toshkentga jo'nadi. Safardan maqsad federativ muxtoriyat g'oyasini Turkistonning o'zida asoslash va Butunrossiya musulmonlari qurultoyiga tayyorgarlik bilan bog'liq tashkiliy ishlarda qatnashish edi. Peterburgdan Toshkentga keta turib Orenburgda to'xtab, boshqird ziyolilar bilan qurultoy masalasi bo'yicha fikr almashadi. Toshkentga yetib kelishi bilan Turkiston musulmonlari o'lka qurultoyga tayyorgarlik boshlanib ketdi. Ayniqsa bu Peterburgdan Mustafo Cho'qayev, advokat SHOislom SHOahmedovlarning kelib qo'shilishi bilan tashkiliy jihatdan kuchga kirdi. O'rni kelganda shuni ta'kidlash joizki, Zakiy Validiy turk - musulmon xalqlari orasida eng ko'p e'tiborni Turkistonga qaratgan. Xususan, Zakiy Validiy fikriga ko'ra, Rossiya imperiyasi doirasidagi turk – musulmon xalqlari orasida muxtoriyatchilik harakatida eng muhim rolni Turkiston o'ynashi kerak edi. Uning fikricha, qachonki Turkistonda muxtoriyat o'z o'rniga ega bo'lsagina, muxtoriyat shunda Boshqirdiston va Qozog'istonda ham g'alaba qozonishi mumkin. SHuning uchun ham 1917 yil fevral inqilobidan keyin Zakiy Validiy To'g'on Toshkentga keladi va mahalliy taraqqiyparvarlarni birlashtirish, ularni birgalikda "Birlik"ka erishish ustida ish olib boradi. Bunga nafaqat Toshkentda, balki o'lkaning boshqa hududlarida ham targ'ibot-tashviqot ishlarini yuritish zarur deb topadi. U "Uyushmagan millat inqirozga mahkum" nomli maqolasida Turkistondagi tashkilot va partiyalarni vujudga kelish jarayonini tahlil qilib, musulmonlar harakati bilan bog'liq muammolar va Rossiyada muxtoriyat imkoniyatlariga to'xtaydi. Zakiy Validiy fikriga ko'ra, Turkistondagi ko'plab tashkilotlar aniq dasturiga, nizomiga ega emas, boz ustiga tashkilot a'zolari tarqoq. U ogohlantiradi: "Agar tashkilotni

aniq dasturi, nizomi, rahbariyati bo'lmasa, xalq tarqoq bo'lsa, unda muxtoriyat bo'lmaydi va millatning o'zi ham yo'q bo'ladi"¹⁰⁶.

U 1917 yil fevral inqilobidan o'lkadagi musulmon – demokratik tashkilotlar faoliyatida faol qatnasha boshladi. Xususan, N.T.Malletskiyning o'lkada saylov tizimi ikki bosqichli bo'lishi to'g'risida, ya'ni rus va rusiyzabon – yevropaliklarga hamda yerli aholiga alohida – alohida saylov tizimi – vakilliklar ajratish to'g'risidagi taklifini Z.V.To'g'on tanqid qilib, bu "... mustamlaka siyosatni davom etayotgani" deb baholaydi¹⁰⁷.

1917 yil 17 – 21 apreľ kunlari Toshkentda Butunturkiston musulmonlar qurultoyi o'tkazilib, rahbarlik organlariga Munavvarqori Abdurashidov, Ubaydulla Xo'jaev, SHerali Lapin, Mustafo CHo'qaeв, Toshpo'lat Norbo'taev qatori Z.V.To'g'on ham saylandi. Mazkur qurultoyda Z.V.To'g'on "Davlat boshqaruvi va uning tashkilotlari" to'g'risida ma'ruza qilib, tarixiy misollar namunasida federativ davlat tuzish zaruriyatini asosladi. Bundan tashqari u hamfikrlari bilan Toshkentda "Kengash" gazetasini chop ettira boshladi. Mazkur qurultoyda u yana turkiy xalqlar etnik tarkibi to'g'risida ham ma'ruza qilib, unda turkiy xalqlarni uch guruhga bo'lgan:

1. Janubiy turklar (ozarbayjonlar, stavropolik turkmanlar)
2. Markaziy turklar (o'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar, no'g'aylar, qorachaylar, bulg'orlar, boshqirdlar, qrim va tyumen tatarlari)
3. SHarqiy turklar (yoqutar, urenxaylar, qora va sariq uyg'urlar)¹⁰⁸.

SHunday qilib, qayd etish lozimki, 1917 yil 4 aprelda o'lka musulmonlarining 1 – qurultoyi o'z ishini boshladi. Qurultoyda Mahmudxo'ja Behbudiy nutq so'zladi. Zakiy Validiy, Mustafo CHo'qaeв va Mahmudxo'ja Behbudiydar federativ muxtoriyat g'oyasini asoslashga harakat qildilar. Ammo

¹⁰⁶ Шигабдинов Р. Дореволюционная политическая деятельность А.Валидов в Туркестане и национальная пресса / Миллий матбуотимизнинг икки дурдонаси Т.: "MUMTOZ SO'Z", 2015 – С.48

¹⁰⁷ Салихов А.Г. Общественно – политическая деятельность Ахметзаки Валидова в 1917 г. в Туркестане / Турар Рыскуловтын 110 жылдыгына арналган халықаралық ғылым конференциянын материалдары Туркистан, 2005. – С. 168-169

¹⁰⁸ Салихов А.Г. Общественно – политическая деятельность Ахметзаки Валидова в 1917 г. в Туркестане / Турар Рыскуловтын 110 жылдыгына арналган халықаралық ғылым конференциянын материалдары Туркистан, 2005. – С. 172-173

kadetlar partiyasining yetakchilaridan biri Malletskiy esa unitar davlatning o'lkada hayotida muhim ekanligini asoslashga urindi. Zakiy Validiy va Mahmudxo'ja Behbudiyar, Malletskiy va uning hamfikrlaridan farqli o'laroq, Turkiston parlamentidagi majlislarni turkiy tillarda ham olib borishni yoqlab chiqdilar. SHuningdek, mahalliy ayollar ham saylash huquqiga ega bo'lishi zarur degan g'oya Zakiy Validiyning diqqat e'tiborida bo'ldi. Z.V.To'g'onni Toshkent shahridagi jamiyatlar tomonidan uyushtirilgan har bir anjumanda faollik bilan ishtirok etgani ahamiyatga molik. Ayniqsa, u 1917 yil 4 aprelida Toshkentga kelgandan so'ng, Turkistondagi markaziy "SHo'roi Islomiy" jamiyati faoliyatida faol qatnashib, jamiyat faoliyatini yanada muvofiqlashtirish maqsadida Turkiston musulmonlarining I qurultoyiga vakil etib ko'rsatildi hamda qurultoy hay'atiga saylandi. Zakiy Validiy Turkistondagi milliy siyosiy kuchlar faoliyatini yanada oydinroq ko'rsatish maqsadida jamiyatlarni uch guruhga ajratadi:

1. Sinfy tashkilot
2. Partiya (firqa) tashkiloti
3. Umumiy tashkilot

Z.V.To'g'on fikriga ko'ra, Turkistondagi turli tashkilotlar bir markazga yig'ilmasa, butun Turkiston musulmonlarining ishi xarob bo'ladi. Har bir jamiyat o'zicha harakat qilmay, balki butun Turkiston musulmonlari birlashib, bir nizom, bir markaz ostida harakat qilmog'i lozim¹⁰⁹.

SHunday qilib, Turkiston musulmonlarining I qurultoyi 446 ta ovoz bilan (271 ta qarshi) federativ muxtoriyat tuzish g'oyasini ma'qulladi. SHu kuni (4 aprel) Umumrossiya musulmon Markaziy sho'rosi saylanib, Turkistondan Ubaydulla Xo'jaev va Ahmad Zakiy Validiy uning tarkibiga kiritildi. Mana shu tarixiy voqea tufayli Rossiya musulmonlari orasida muxtoriyat yo'lida qizg'in harakatlar boshlandi.

¹⁰⁹ Мингнарлов А. Туркистондаги ижтимоий – сиёсий жараёнларнинг миллий матбуотда ёритилиши (1917-1918 йиллар). Т.: "Истиқлоло нури", 2013. – Б.41-43

1917 yil 15 aprelda Toshkent viloyat musulmonlari qurultoyi bo'ldi. Qurultoyda yana rus shovinisti Malletskiy ozchilikni tashkil qilgan mustamlakachi inglizlarining Hindistonni boshqaruv uslubi va saylov sistemasini rus tiliga tarjima qildirib, Turkistonda ham shundan foydalanish g'oyasini ilgari surdi. Uning fikriga ko'ra, yerli aholining ko'pligi boshqaruvda qiyinchilik tug'dirarmish. Ana shunday vaziyatda Zakiy Validiy, Malletskiy va uning hamfikrlariga qarata ozodlik davri kelganini, odamlarni millatiga, sinfiga qarab saylash huquqidan mahrum qilish mumkin emasligini, davlat ishlarini boshqarish savodsiz odamlar qo'liga o'tib qoladi deb xavfsiramaslik zurligini, balki tegishli sharoit yaratilsa, mahalliy xalq kadrlari bemalol boshqarish imkoniyatiga ega bo'lishlari, mustamlaka Hindistonni boshqarish to'g'risidagi katta – katta kitoblarni tarjima qilish o'rniga, tenglik asosida, teng saylov huquqiga ega bo'lganda sharoitni ardoqlovchi yo'llanma – kitoblarni turkiy va rus tillarida chop etish zarurligini uqtirib, javob qaytaradi. Oxir – oqibatda Malletskiy va uning maslakdoshlari yengilib, Turkiston yerli aholi manfaatiga asoslangan g'oyalar asos uchun qabul qilindi. Turkiston musulmonlari qurultoyi Moskvada bo'ladigan Butunrossiya musulmonlari qurultoyiga 12 kishidan iborat qo'mita a'zolarini sayladilar. Qo'mita a'zolarini ichida Zakiy Validiy ham bor edi. SHuningdek, Turkiston musulmonlari markaziy kengashi tuzilib, kengash raisligiga Mustafo CHO'qaev saylangan bo'lsa, Zakiy Validiy kengash kotibi bo'ldi. Kengashga Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Obidjon Mahmudov, Ubaydulla Xo'jaev va boshqalar a'zo bo'lib saylandilar

1917 yil may oyida Moskvada Butunrossiya musulmonlarining I qurultoyi bo'lib o'tdi. Mazkur qurultoyga Z.V. To'g'on Turkiston milliy kengashidan vakil bo'lib qatnashdi¹¹⁰. Qurultoyda Zakiy Validiy nutq so'zladi. U o'z chiqishida davr taqozosi bilan Rossiya tarkibiga kirib qolgan turk - musulmon xalqlari tarixi, urf odat va statistikasiga to'xtalib, ularning keyingi taqdiri – istiqboliga, qurultoydan farqli o'laroq federatsiyaga asoslanib muxtoriyat tuzish tarafdori bo'ldi. Geografik jihatdan boshqirdlar, aslida, qozoqlar va qozonliklar

¹¹⁰ Ахмет Заки Валиди Тоган. Не считите за пророчество... Уфа, "КИТАП", 1998 – С.103

oralig'ida bo'lishiga qaramasdan, Zakiy Validiy boshqirdlar taqdirini Turkistondagi turk - musulmon xalqlari bilan chambarchas bog'liq deb hisobladi. Uning fikriga ko'ra, birinchi navbatda turk - musulmon xalqlaridan, asosan, Turkistonni mustaqil bo'lish g'oyasini ilgari surardi. SHu bilan birga turkiylardan bo'lgan boshqirdlar ham, uning fikricha, Turkiston tarafida bo'lmog'i lozim edi. Volgabo'yida yashovchi turkiylar (tatarlar, boshqirdlar) ozchilikni tashkil qilgani uchun faqatgina madaniy jihatdan muxtoriyatga erishishlari mumkin edi. Qozonliklar va ularning yo'l boshchisi Sadriy Maqsudiy muxtoriyat g'oyasiga qarshi chiqdilar. Ularning nazarida Zakiy Validiy, qozon – boshqird birligini buzuvchi inson sifatida ko'rindi¹¹¹.

Butunrossiya musulmonlarining I qurultoyida qabul qilingan qarorda, asosan turk - musulmon xalqlari yashaydigan hududlarda muxtoriyat tashkil etish qayd etilganidan kelib chiqib, Zakiy Validiy 1917 yil 18 mayda markazi Orenburg bo'lgan Boshqird viloyat kengashini tuzdi. Ammo u boshqird xalqining qanchalik yaxshi ko'rsa, boshqa turk - musulmon xalqlari, xususan o'zbek, qozoq, turkman, qirg'izlarni ham ulardan kam ko'rmas edi. Bir so'z bilan aytganda, turk - musulmon xalqlari taqdiri uchun yonib yashaydigan fidoyi inson edi¹¹².

Orenburgdagi muammolarni xal etgach, Zakiy Validiy Toshkentga yana qaytib keldi. Mahmudxo'ja Behbudiy, CHO'lpon, Munavvar qori va boshqalar bilar birgalikda Turkiston musulmonlari Markaziy kengashi tomoniga milliy ziyolilarning ko'pini jalb etish uchun o'lkaning juda ko'p shahar va qishloqlarida targ'ibot – tashviqot ishlarini olib bordilar. Xususan, “Toshkent, Qo'qon, Xo'jand, Andijon, Samarqand va boshqa shaharlardagi milliy jamiyat va to'garaklarni isloh qilishi g'oyasini ilgari surdi. Har bir tashkilot o'zicha ish olib bormay, balki butun musulmonlar manfaatini himoya qiladigan yagona

¹¹¹ Байкара Тунджер Заки Валиди Тоған... – С. 20-21

¹¹² Байкара Тунджер Заки Валиди Тоған... – С. 21

dastur ostida faoliyat ko'rsatadigan bir jamiyat, ya'ni davlat tashkiloti bo'lishi kerakligi" ta'kidlandi¹¹³.

Tinib – tinchish nimaligini bilmagan Zakiy Validiy 1917 yili Qo'qonda Ashurali Zoxiriy bilan "Yurt" nomli jurnal chiqarishga erishdilar. Jurnalning asl maqsadi Turkiston va boshqa turk - musulmon xalqlaridagi madaniyat muammolariga qaratilgan edi. Zakiy Validiy jurnalning ilk sonlarida "Turk millatining ma'naviy madaniyati" maqolasini chop ettirdi. Zakiy Validiy asosan Toshkentda faoliyat ko'rsatayotgani uchun Boshqirdiston Markaziy kengashi raisligi lavozimini egallashni xohlamay, tashkiliy ishlar bilan shug'ullanishni ma'qul ko'rdi. SHu orada Boshqirdiston Markaziy kengashi qarori bilan Petrogradga bo'ldi va boshqirdlarni qo'shini, yeri hamda karvonsaroy masjidini qaytarib olish masalalari bilan shug'ullandi. 1917 yil 2-29 avgust kunlari Ufada boshqirdlarni ikkinchi qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoy muxtoriyat hamda Rossiya ta'sis majlisiga nomzodlar masalasini ko'rib chiqdi. Zakiy Validiy Ufa, Orenburg va Perm guberniyalaridan ta'sis majlisi a'ziligiga nomzod deb topildi. 1917 yil 15 sentyabrda yana Toshkentga qaytdi va Turkiston musulmonlari markaziy kengashining ikkinchi qurultoyini chaqirish bilan shug'ullandi. Ammo mazkur II qurultoy turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi ilmiy-siyosiy munosabatlardagi ziddiyatli holatlari bilan ko'zga tashlanadi. Xususan, "SHo'roi Ulamo" jamiyati a'zolarining xalq orasida ig'vo tarqatganliklari o'lka taraqqiyparvarlari tomonidan va "...qolaversa, Rossiya va Kavkaz musulmonlari"ning qattiq ranjishiga olib kelgan. Lekin yana shuni ta'kidlash joizki, oradagi ixtilof o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Qurultoyga 300 – 400 kishi kelishi kutilgan bo'lsa-da, aslida 100 dan ortiq vakil qatnashdi xolos. Qurultoyni Petrograd markaziy musulmon sho'rosi nomidan Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev, Turkiston tatar markaziy byurosi nomidan Kabir Bakirov, Kavkaz hay'ati nomidan Muhammad Amin Afandizoda va boshqalar qutlagan. Qurultoyda turk - musulmon xalqlari hamfikrligi yaqindan namoyon bo'lib,

¹¹³ Мингнарлов А. Туркистондаги ижтимоий – сиёсий жараёнларнинг миллий матбуотда ёритилиши (1917-1918 йиллар). Т.: "Истиқлоло нури", 2013. – Б.43

Kavkaz hay'ati Muhammad Amin Afandizoda, Boku komitetidan Piri Mirsilzoda, Kavkaz muallimlar jamiyati tarafidan Ahmad Mahmudzoda va boshqalar faol ishtirok etdilar¹¹⁴. Qurultoyda u boshqirdlar qurultoyi to'g'risida hisobot berdi. Ammo voqealar rivoji bol'sheviklar foydasiga xal bo'la boshladi. Bol'sheviklar joylarda asata – sekin hokimiyatni egallay boshladilar. Milliy harbiy qismlarni tuzilmaganligi ham Turkiston musulmonlari markaziy kengashi faoliyatini to'laqonli faoliyat olib borishiga imkon bermas edi. 1917 yil oktyabr oyi boshlarida Boshqirdiston markaziy kengashidagi axvol ancha keskinlashganligi sababli Zakiy Validiy telegramma orqali Orenburgga chaqirildi. Kun tartibida boshqirdlar markaziy kengashi faoliyatini kuchaytirish masalasi turardi.

Rossiyaning markaziy hududlarida amalga oshirilgan oktyabr davlat to'ntarilishi (1917 yil 25 oktyabr) hamma mazlum xalqlar qatori turk - musulmon xalqlarida ham ozodlik ruhi bilan sug'orilgan umid tug'dirdi. O'z navbatida chor Rossiyaning mustamlakasi bo'lgan davrida o'z hududini, siyosiy erkini, hurfikrlilikni “yo'qotishga” majbur bo'lgan o'zbek, qirg'iz, qozoq, turkman, boshqird, tatar va boshqa millatlar oktyabr voqealaridan umid qilishga haqli edilar.

Sovetlar birin-ketin o'z ta'siri doirasidagi hududlarni kengaytirib bordilar. Shu sababdan Zakiy Validiy va uning maslakdoshlari ham qizillar tomonidan qirg'inga uchramaslik uchun hamda Boshqirdiston milliy hukumatini saqlash maqsadida o'z qarashlarini o'zgartirishga majbur bo'ldilar. Chunki qizil gvardiya hamda oq gvardiya kuchlari bilan ikki jabxada jang olib borishning iloji yo'q edi. Endilikda sovetlar bilan kelishgan muxtoriyatni himoya qilib qolishga harakat qildilar.

Ma'lumki, 1917 yil fevral inqilobi turk - musulmon xalqlariga ham o'z siyosiy huquqlarini ro'yobga chiqarish, so'z, matbuot erkinligi, sakkiz soatlik ish kuni va boshqa bir qancha ozodlik g'oyalarini kun tartibiga qo'ydi. O'z navbatida bunday shart-sharoit yerli aholini islom mafkurasi asosida

¹¹⁴ Мингнарлов А. Туркистондаги ижтимоий – сиёсий жараёнларнинг... – Б. 76-78

birlashtiruvchi “Sho’royi islom” jamiyatini tuzishga olib keldi. Rossiyadagi davlat tizimida imperiya boshqaruviga barham berilsa-da, amalda yana o’sha ruslar boshqaruvi davom etardi. Ahvolni bunday davom etishi O’rta Osiyo, Kavkaz, Volgabo’yi, Uraloldi hududlaridagi turk - musulmon xalqlarini o’z taqdirlariga siyosiy tomondan boshqacha nazar tashlashga olib keldi. “SHo’roi islom”ning birinchi norasmiy majlisi 1917 yil 14 mart kuni o’tkazilgan va 31 mart kuni 61 nafar a’zolar saylangan bo’lib, ulardan 13 nafari tatar hamda qozoq millatiga mansub edilar. Ushbu jamiyat keyingi majlislarining birida jamiyat nomini “Turkiston SHo’roi islomiya jamiyati” deb o’zgartirdi. Unga Ubaydulla Xo’jaev rais, Munavvar qori Abdurashidxonov muovin etib saylandilar. U.Xo’jaev ko’p vaqtini safarda o’tkazgani sababli, asosiy ishni Munavvar qori Abdurashidxonov bajarar, faoliyati davomida turk - musulmon xalqlarining “Alash” (qozoq), markaziy Rossiya guberniyalaridagi tatar-boshqird jamiyati, “Ixtiyot soyuzi” (qozoq), “Ittifoq” (tatar) jamiyatlari bilan aloqa o’rnatgan edi¹¹⁵.

O’zaro turk - musulmon xalqlarining siyosiy munosabatlaridagi hamkorligiga Bokudan Toshkentga 1917 yil yozida tashrif buyurgan ozarbayjonlik Muhammadamin Afandizoda faoliyatini olishimiz mumkin. U “Islomiya” tashkilotidan maxsus safarbar qilingan bo’lib, Qo’qonda bir qator mitinglar o’tkazgan. Muhammad Afandizoda Turkiston jadidchilik harakati faollaridan Obidjon Mahmudov xonadoniga tashrif buyurib, Muhammadamin Muhammadjonov, Nozirjon Ziyoev, Mirzohid Miroqilov, Ashurali Zohiriy, Mahmudjon Ahmadjonov, Abdurauf Abdurahmonov, Mahmudxo’ja Xoliqiy, Pirimursalzoda, Abbosxo’ja Kalonxo’jaevlar bilan uchrashib, “Ittihodi taraqqiy”ning dasturi bilan tanishtirdi hamda Qo’qonda bunday tashkilot tuzishni taklif etdi. Keyin Qo’qonda Muhammadamin Afandizoda “Ittihad va taraqqiy”ni tashkil qilib, Toshkentga keldi. Munavvar Qorining uyida tashkiliy yig’ilish o’tkazib, muhim ko’rsatmalarni berib Buxoroga va undan Samarqandga, keyin Xivaga borib “Ittihad va taraqqiy”ni tashkil etdi. Milliy respublika qurish uchun ana shunday siyosiy tashkilotlarni tuzish va mazkur

¹¹⁵ Абдурашидхонов М.К, Танланган асарлар. Т.: “Маънавият”, 2003 – Б. 41-42,44

tashkilotga Mustafo Cho'qay, Z.V.To'g'onlarni qo'shilishi Turkiston ziyolilari faoliyatini izga solishga xizmat qildi¹¹⁶.

Xulosa tariqasida qayd etib o'tish mumkinki, o'zaro munosabatlarni mustahkamlashda jadidchilik harakatining ma'naviy otasi Ismoil Gaspralining hamda boshqird xalqining munosib farzandi Zakiy Validiy To'g'onning hissasi bor ekanligini ta'kidlash lozim. Ular aynan milliy – madaniy va siyosiy uyg'onish, turk - musulmon xalqlarining tarixini chuqur o'rganish, oxir-oqibatda o'zaro munosabatlarda muhim ahamiyat kasb etishini tushunib yetgan edilar. Rossiya ichki musulmonlarining ma'naviy otasi, jadidchilik rahnamosi Ismoil Gaspralining tutgan o'rniga Turkiston jadidlarining otasi Mahmudxo'ja Behbudiy yuqori baho berib, uni o'ziga ustoz deb bilgani ham shundan dalolat beradi.

Z. V. To'g'on Boshqirdiston va Qozog'istonni o'z ichiga olgan Katta Turkistonni ozod qilish sa'y-harakatida o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman va ozarbayjon millatiga mansub hamfikrlari bilan birgalikda “Dastur bayonoti”ni imzolanishiga harakat qildi. Dastur “Turkiston milliy birlashmasi” nomida quyidagi maqsad – vazifalarni o'z ichiga olgan edi:

1. Turkiston mustaqil bo'lishi kerak va mamlakat taqdiri turkistonliklar qo'lida bo'lishi kerak. Mustaqil Turkistonda boshqaruv tizimi demokratik respublika bo'lishi kerak.

2. Mustaqillikka erishishi va uni saqlab qolish milliy armiyaga ega bo'lgandagina mumkin bo'ladi. Milliy hukumat milliy armiyaga suyanishi kerak. Iqtisodiy mustaqil bo'lgandagina mustaqil Turkiston bo'lishi mumkin. Turkistonni umumiy iqtisodiy rivojlanishini aniqlash: sanoat va qishloq xo'jaligining qaysi tarmoqlarini ustivor deb bilish, temir yo'llarni qaysi yo'nalishini va sug'orish kanallarini qaysi irmog'ini muhim deb aniqlash masalasi turkistonliklarning o'z qo'lida bo'lishi kerak.

¹¹⁶ Абдурашидхонов М.К, Танланган асарлар. Т.: “Маънавият”, 2003 – Б. 46-48

3. Zamonaviy milliy ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha chora – tadbirlar ishlab chiqiladi, xususiy maktablar va Yevropadagi ta'lim muassasalari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalar o'rnatiladi.

III BOB. TURK - MUSULMON XALQLARI O'RTASIDAGI IJTIMOIIY – SIYOSIY VA MADANIY – MA'RIFIY ALOQALAR

3.1. Musulmon xalqlari deputatlari fraktsiyasining Rossiya Davlat dumasidagi faoliyati

Ko'p millatli va ayni paytda o'z rivojlanish bohqichiga ko'ra ko'p bosqichli mintaqalarni o'z tarkibiga hohishiy-majburiy, zo'ravonlik ostida birlashtirgan Rossiya imperiyasiga XX asr boshlarida keyingi rivojlanish uchun ikki yo'l imkoniyati bor edi: birinchi yo'l, - bu inqilob va ikkinchisi, - bu evalyutsion tarzda, ya'ni bosqichma – bosqich o'zgarishlarni amalga oshirib, mavjud siyosiy tizimni zamonaviylashtirish edi. Ikkinchi bosqichda, o'z mohiyatiga ko'ra, sekin-astalik bilan amalga oshirish imkoniyati ko'zda tutilgan va bu Rossiya demokratik kuchlariga tinchlik yo'li bilan jamiyat taraqqiyotiga erishishi uchun eng maqbul yo'l edi.

Podsho Rossiyasi tomonidan 1905 yil 17 oktyabrda Manifestni e'lon qilinishi ham Davlat dumasini chaqirishga yo'l ochib berdi. Davlat dumasini chaqirilishi, **birinchidan**, inqilobiy kuchlarni kuchsizlantirish, iloji bo'lsa parchalab yuborish, **ikkinchidan**, mamlakat aholisi vakillaridan joylardagi "haqiqiy ahvol"ni bilish, joylardagi "norozilik"larga barham berish – tinch yo'lga burib yuborish edi. Davlat dumasini chaqirilishi, aholi o'rtasida ham chorizm mavqeini mustahkamlashga, parlament "demokratiyasi"ni yuzaga chiqishiga olib keldi. Xususan, imperiya tarkibidagi nafaqat rus va rusiyzabon, balki boshqa xalqlar, xususan turk – musulmon xalqlari uchun o'z manfaatlari bo'yicha дума minbaridan faol foydalanish imkoniyatiga olib keldi.

Ma'lumki, Rossiya imperatori Nikolay IIning 1905 yil 6 avgustdagi manifestiga ko'ra Davlat dumasi tashkil topgan. Ammo Rossiyadagi ijtimoiy-siyosiy ahvolni og'irlashuvi, inqilobiy harakatni kuchayganligi, liberal oopozitsiyani faollashuvi tufayli imperator ko'zda tutilganidan ko'ra kengroq siyosiy islohotlar o'tkazishga majbur bo'lib, 1905 yil avgustdagi manifest bo'yicha Davlat dumasi ish boshlashiga yo'l qo'yilmadi. Natijada 1905 yil 17

oktyabrda Nikolay II tomonidan “Davlat tartibini takomillashtirish” to’g’risida manifestga imzo chekdi. Mazkur manifestga ko’ra Ministrlar Kengashi tuzilib, aholiga fuqarolik huquqi va erkinligi berildi. Manifest Davlat dumasini ham o’zgartirdi, xususan avval Duma maslahat organi deb qayd etilgan bo’lsa, endilikda chaqiriladigan Duma xalq vakilligi deb hisoblanib – qonun chiqarish funksiyasiga ham ega bo’ldilar.

1905 yil 11 dekabrda yangi tartibdagi “Saylov to’g’risida Nizom” qonuni qabul qilindi. Endilikda, 1905 yil 6 avgustdagidan farqli o’laroq, saylov huquqiga ega bo’lganlar doirasi kengaygan edi. Ammo ayni paytda, avvalgidek, mazkur “Saylov to’g’risidagi Nizom”ga ko’ra ham ayollar saylov huquqidan mahrum edilar. SHuningdek, saylanadiganlar 25 yoshga to’lgan bo’lsalargina saylov va saylanish huquqidan foydalana olardi. Harbiy xizmatchilar va ayrim ko’chmanchi xalqlar o’z turmush tarzlariga ko’ra saylash-saylanish huquqidan mahrum edilar. Mazkur “Saylov to’g’risidagi Nizom”dagi yanigiliklar qatorida saylovchilar 4 ga: zamindorlar, shaharliklar, dehqonlar va ishchilarga bo’lingan edi. Saylov ko’p bosqichli bo’lib, zamindor va shaharliklar uchun – ikki bosqichli, ishchilar uchun – uch bosqichli, dehqonlar uchun – to’rt bosqichli edi.

Birinchi Davlat dumasining birinchi chaqirig’iga saylov 1906 yil fevral – martida bo’lib, qabul qilingan saylov to’g’risidagi qonunga ko’ra 524 deputat saylanishi ko’zda tutilgan edi. Lekin 1906 yil 8 iyuliga qadar 499 deputat saylangan edi xolos. CHunki Rossiya imperiyasining ayrim hududlarida saylov turli sabablarga ko’ra, xususan hamon davom etayotgan inqilobiy chiqishlar tufayli, ayrim hududlar esa hukumat tomonidan “ishonchsiz” deb topilganiga ko’ra va boshqa sabab-bahonalar bilan saylovlar qoldirilgan yoki umuman o’tkazilmagan.

Ayni paytda Turkiston o’lkasi¹¹⁷ va Dasht viloyatlari¹¹⁸ uchun umumiy saylov qonunidan tashqari “Saylov to’g’risida Nizom” qabul qilingan. SHu o’rinda Davlat dumasiga saylov ham tenglik asosida uyushtirilmaganiga e’tibor

¹¹⁷ Turkiston ўlkasi 5 та вилоят: Сирдарё, Етгисув, Каспийорти, Самарқанд, Фағонадан иборат

¹¹⁸ Дашт вилоятлари: Оқмала, Семипалатинск, Уральск, Тўрғайлардан иборат

qaratish lozim. Xususan, Turkiston o'lkasi va Dasht viloyatlarida o'tkazilgan saylov Rossiya markaziy guberniyalaridagi vakillik taqsimotidan keskin farq qilgan. Mazkur "Saylov to'g'risida Nizomni qo'llash" maxsus qoidasiga ko'ra, Turkiston o'lkasi va Dasht viloyatlaridagi mahalliy musulmon aholi vakillaridan Davlat dumasiga saylovda cheklashlar ko'zda tutilgan. Xususan, Turkistonning 5 ta viloyatining har biridan faqat bittadan, umuman 5 nafar deputat, Dasht viloyatlarining 4 ta viloyatlaridan ham bittadan, umuman 4 nafar deputat saylanar edi. Turkiston o'lkasi va Dasht viloyatlari turk-musulmon xalqlariga nisbatan saylanadigan deputatlar miqdorini juda kam qilib, aniqrog'i aholi soni qanchaligidan qat'iy nazar, har viloyatdan bittadan deb belgilash ham Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasi va Dasht viloyatlarida istiqomat qilayotgan turk-musulmon aholiga munosabatidan dalolat beradi¹¹⁹. Aytish mumkinki, Turkiston o'lkasi va Dasht viloyatlaridan saylanadigan deputatlar sonini markaziy guberniyalardagi miqdorga nisbatan cheklangani, imperiya mushohadasidan kelib chiqib belgilangan. Xususan, Turkiston o'lkasi va Dasht viloyatlari uchun ajratilgan kvota, amalda "qatordan qolmasin" aqidasida bo'lgan, deyish mumkin... SHuning uchun ham "Saylov to'g'risidagi Nizomni qo'llash" maxsus qoidasi kechikib, 1906 yil 22-23 fevral kunlari chop etilgan. Natijada, Davlat dumasiga saylov kechikib amalga oshirilgan. Aniqrog'i Davlat dumasiga saylov Dasht viloyatlarida may-iyun oylarida o'tkazilgan. Holbuki, bu vaqtda Davlat dumasi Petrburgda o'z faoliyatini boshlagan edi. Lekin shunga qaramasdan, Uralsk viloyatidan Davlat dumasiga saylangan A.Qalmonov, To'rg'ay viloyatidan saylangan A.Berimjonov Davlat dumasi faoliyatida ishtirok etishga muvaffaq bo'ldilar. Ammo Semipalatinskdan saylangan A. Bukeyxanov Petrburgga 8 iyuldagina yetib kela olganda, shu kuni Duma tarqatib yuborilgan edi. Oqmala viloyatidan saylangan SH. Koshegulovni Davlat dumasi faoliyatida qatnasha olmasligiga sabab, viloyat saylov komissiyasida uni

¹¹⁹ Қосимов Б.Милий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. Т.: "Маънавият", 2002. – Б.100

rus tilini bilish-bilmasligini uzoq vaqt muhokama qilganligida edi. Ta’kidlash joizki, Davlat dumasiga saylanadiganlar rus tilini bilishlari shart edi¹²⁰.

Mazkur Davlat dumasida Turkiston o’lkasidan birorta ham deputat qatnashmagan, chunki o’lkada Davlat dumasiga saylov 1906 yil avgust-sentyabr oylariga o’tkazilishi belgilangan edi. Ko’rinib turibdiki, katta bir mintaqa – Turkiston o’lkasidan birorta ham deputat qatnashmay, o’lka manfaatlari himoyasi ko’tarilmagan holda birinchi chaqiriq Davlat dumasida o’z faoliyatini amalga oshirgan. Aytish mumkinki, Davlat dumasida Turkiston o’lkasi xalqlari vakillarini yo’qligi – bu amalda siyosiy huquqlar paymol qilinganidan dalolat beradi. Aslida Rossiya amaldorlari va yana imperiyaning o’lkadagi vakillari Davlat dumasida Turkistondan mumkin qadar ozroq kishilar bo’lishi tarafdori edilar. Turkistondan Davlat dumasiga ozroq vakillar saylanishi uchun Toshkent shahar dumasida deputatlari imperatorga 1905 yil 28 iyulda petitsiya bilan murojaat qilib, unda o’lkadan Davlat dumasiga ruslardan va yerli aholidan alohida tarzda vakillar saylanishini so’rashgan: “Agar saylov asosiga saylovchilarning soni asos qilib olinadigan bo’lsa, o’lkani o’zlashtirishda madaniylashtirayotgan rus aholisi vakilsiz qoladi, chunki yerli aholi o’z sonining ustunligi bilan uni bosib ketadi. Holbuki, o’lka rus kapitalistlari tufayli boyimoqda, bu yerga rus aholisi ilm va texnika samaralarini olib kelmoqda, o’lkaga rus kolonizatsiyasi to’lqini yo’naltirilmoqda, hokimiyat va madaniyat vakillari ham yerli aholiga mansub emas. SHuning uchun **adolat va taraqqiyot nuqtai-nazaridan** (biz tomondan ajratilgan – R.R.) Davlat dumasiga Turkiston aholisidan vakillik ayrim holda yerlaridan, ba’zi hollarda rus aholisidan bo’lishi kerak”¹²¹.

Ko’rinib turibdiki, o’lkadagi rus va rusiyzabonlar o’zlari uchun katta vakolat olish tarafdori bo’lganlar. 1905 yil 11 dekabrda saylov qonuniga ko’ra, barcha xotin – qizlar, ikki million ishchi, harbiy xizmatchi o’quvchilar, 25

¹²⁰ Мусульманские депутаты Государственной думы России 1906-1917 гг. Сборник документов и материалов. (Мусульманские депутаты...) Уфа «КИТАП», 1998 – С.7-8

¹²¹ Ўзбекистоннинг янги тарих. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Т: “Шарк”, 2000 – Б.328

yoshdan kichiklar saylov huquqidan mahrum qilingan. Turkistondagi saylovlarda rus va umuman mahalliy aholi bo'lmaganlar, saylovchilar sonidan qat'iy nazar, o'lkaning har bir viloyatidan bittadan, dekmak besh nafar va yana Toshkent va Yettisuvdagi qo'shinidan, hammmasi bo'ilib 7 nafar deputatni, tub yerli aholi esa har bir viloyat va Toshkentdan – jami rus deputatiga o'rtacha 46 ming, o'zbek deputatiga esa 96 ming saylovchi to'g'ri kelgan¹²².

Yana shuni qayd etish lozimki, Rossiya Davlat dumasiga turk - musulmon xalqlari vakillaridan saylangan deputatlar soni juda ozchilikni tashkil qilgan. Masalan, Davlat dumasida agrar komissiyasi tarkibi 99 nafar deb belgilangan bo'lsa, shundan 8 tasigina Kavkaz, Sibir, O'rta Osiyo uchun ajratilgan xolos. Egallab turgan hududi va aholisiga nisbatan ajratilgan 8 ta joy, aslida juda oz edi. Boz ustiga Turkiston o'lkasi, Semipalatinsk, Oqmola viloyatlaridan atigi 2 nafardan deputatlar Davlat dumasiga saylanishi ko'zda tutilgan bo'lib, undan ham bir nafari rus bo'lishi kerak edi¹²³.

Ta'kidlash joizki, turk – musulmon deputatlari juda ozchilikni tashkil etganiga qaramasdan, Davlat dumasida 1906 yil 27 aprelda Peterburgda ish boshlab, mazkur dumada 22 nafar musulmonlar¹²⁴, xususan, tatar, boshqird, ozarbayjon, qozoq millatiga mansub – turk musulmon xalqlari vakillari ishtirok etganlar. Aslida, Rossiyaning turk-musulmon xalqlarini birlashtiradigan, bir-birlariga intiltiradigan, hamkorlik rishtalarini bog'laydigan bir necha omillar bor edi: til birligi, diniy birlik, urf-odatlar yaqinligi va shuningdek, og'ir ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy ahvollar ularni yagona maqsad yo'lida birlashtirar edi.

Yuqorida qayd etilganidek, Davlat dumasiga vakillar kvotasi saylovchilar soniga qarab emas, balki saylov mintaqalariga qarab belgilangan. Masalan, Ufa guberniyasidan – 6 nafar, Qozon va Bokudan – 3 nafardan va Orenburgdan – 2

¹²² Ўзбекистоннинг янги тарих. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Т: “Шарқ”, 2000 – Б.328

¹²³ Мусульманские депутаты ... – Б.34-35

¹²⁴ Аҳмед Цаликов сайланган мусулмон депутатлар сонини 24 нафар деб, аслида 36 нафар сайланган бўлса-да, айрим қирғиз (қозок) миллатига мансуб депутатлар Дума тарқалгунига қадар ҳам етиб кела олмагани, ўз навабатида Туркистонда сайланганлардан бирортаси ҳам етиб келмаганини қайд этади. Қаранг: Гасырлар авазы – Эхо веков №3/4, 1999. – С.102

nafar, Vyatsk va Erivan guberniyalaridan, Karsk, Tersk, To'rg'ay, Ural viloyatlaridan – 1 nafardan musulmon deputatlar saylangan. Qayd etish lozimki, tatar va boshqirdlar saylov jarayonida faol ishtirok etib, joylarda targ'ibot va tashviqot ishlarini ham olib borganlar¹²⁵.

Turk-musulmon deputatlari Davlat dumasida dastlab kadetlar partiyasi fraktsiyasiga qo'shilgan bo'lsalarda, keyinroq, aniqrog'i 1906 yil 21 iyunida mustaqil fraktsiya tuzdilar. Mazkur fraktsiya A.M.To'pchiboshev¹²⁶ raisligida 7 kishidan iborat fraktsiya rahbariyatini sayladilar. Mazkur fraktsiya a'zolari: S. Alkin, A. Axtyamov, S. Janturin, I. Ziatxonov, M.Z.Rimeev, SH. Sirtlonovlardan iborat edi. Yuqorida qayd etilgan turk – musulmon fraktsiyasi Dumada “Ittifoqi muslimin” fraktsiyasini vakillari edi. Aytish lozimki, turk – musulmon fraktsiyasiga “Ittifoqi muslimin”ning ta'siri katta bo'lgan. Turk-musulmonlari fraktsiyasi ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra zamindor, mulla, savdo-sanoat egasi bo'lib, boshqacharoq aytganda, fraktsiya a'zolaridan hech biri dehqonchilik bilan shug'ullanmagan. Ular orasida ishchilar ham yo'q edi. Fraktsiya a'zolarini moddiy tomondan qaram emasliklari, ularni mustaqil tarzda siyosiy faoliyat yuritishga monelik qilmas edi. Turk – musulmon fraktsiyasi deputatlarining 22 nafaridan 15 nafari oliy va o'rta ma'lumotli ekanligi, ularning 10 nafari oliy ma'lumotli, xususan ana shu 10 nafardan 8 nafari huquqshunos ekanligi ham muhim ahamiyatga molik edi. Qolgan 7 nafar deputatlar musulmon maktab va madrasalarini tugatgan bo'lib, ularning 4 nafari mulla, 2 nafari savdogar va 1 nafari oltin sanoatchisi edi¹²⁷.

Turk – musulmon deputatlari fraktsiyasi Davlat dumasida nafaqat o'z saylovchilari, balki boshqa musulmonlar g'uj yashaydigan hudud-mintaqa aholisi manfaatlar uchun ham kurashganlar. Bu kurash Davlat dumasi minbari orqali joylardagi turk – musulmon aholisi muammolarini ko'tarib chiqish, chor Rossiyasi ma'muriyatiga, Ministrlar kengashiga so'rovlar, murojaatlar bilan

¹²⁵ Мусульманские депутаты Государственной думы России 1906-1917 гг. Сборник документов и материалов Уфа, «Китап», 1998 – С.3,7-8

¹²⁶ Мусулмон фракциясига Қ.Тевкилов раислик қилган деб ҳам ёзилган. Қаранг: Қосимов Б. Миллий уйғониш... Б.100

¹²⁷ Мусульманские депутаты Государственной думы... - С.10

chiqish bilan ko'zga tashlanadi. Masalan, deputat T.Eldarxanov ingush va chechen millatiga mansublardan Rossiyadagi dehqonlar noroziligiga qarshi qo'riqlash – himoya ishlariga jalb qilish oxir – oqibatda SHimoliy Kavkaz va rus aholisi o'rtasida dushmanlik kayfiyatini tug'dirishi mumkinligi bo'yicha o'z tashvishini bildiradi. Aynan shu masalani quvvatlab yana 12 nafar turk – musulmon fraksiyasi deputatlari Rossiya Ministrlar Kengashiga imzolari bilan so'rovnoma beradilar. Bu holat ham turk – musulmon xalqlarining o'zaro hamkoriligidan dalolat beradi¹²⁸.

Davlat dumasida Rossiya imperiyasidagi milliy masala, millatlararo munosabatlar parlament minbarida nisbatan kamdan-kam holatlarda ko'rib chiqilgan. Bunga bir nechta sabablarni keltirish mumkin. **Birinchi**dan, chor Rossiyasi ko'p millatli bo'lishi bilan birga, millatlararo munosabatlarga deyarli e'tibor bermagan, **ikkinchi**dan, millatlararo munosabatlar hech qachon mintaqaviy va o'z navbatida davlat siyosati darajasida ko'rib chiqilmagan, **uchinchi**dan, Rossiya davlat siyosatida milliy masalani kun tartibiga qo'yilmagan, **to'rtinchi**dan, tilga, dinga, millatlarga bo'lgan munosabatni muvofiqlashtirish siyosati amalga oshirilmagan, **beshinchi**dan, asosiy e'tibor o'z-o'zidan, shunday bo'lishi muqarrardek, rus millati manfaatlariga yo'naltirilgan, Natijada Turkiston, Kavkaz va Rossiyaning markaziy guberniya hamda boshqa chekka o'lkalardagi turli millat manfaatlari, siyosiy, iqtisodiy, midaniy-ma'rifiy munosabatlari, tili, dini, maorifi masalalari davlat siyosatining asosi sifatida zarur deb ko'rib chiqilmagan. Lekin shunga qaramasdan, turk – musulmon deputatlar fraksiyasi Davlat dumasida o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritib, mintaqa, guberniyalardagi muammolarni hal qilishda davom etganlar. Milliy masala Davlat dumasida eng muhim masala deb ko'rib chiqilmagan bo'lsa-da, yer masalasi kun tartibidagi muhim masalalardan biri hisoblangan.

¹²⁸ Мусульманские депутаты Государственной думы... - С.11-12

Masalan, chor Rossiyasi ma'muriyati tomonidan boshqirdlar, tatarlar, qozoqlar, o'zbeklar yerlari "Ko'chirish siyosati"¹²⁹ natijasida ruslarga berilgani va bu noqonuniy xatti – harakat natijasida yerli aholi o'ziga tegishli, ko'p hollarda unumdor, yerlardan mahrum bo'lgani musulmon deputatlar fraktsiyasi tomonidan so'rovlarni Ministrlar Kengashiga berilishiga asos bo'lgan. Rossiya Davlat dumasida deputatlaridan 53 nafari tomonidan Dasht viloyatlaridagi yerli qozoq aholisini noqonuniy tarzda haydab, ko'chirib keltirganlarga berish bo'yicha noto'g'ri xatti – harakat bo'yicha Ministrlar Kengashi raisiga so'rovnoma bilan murojaat qilingan. Mazkur so'rov tashabbuskorlari musulmon fraktsiyasi deputatlari A.Berimjonov, S. Janturin, I.Eldarxonov, A.M.To'pchibashev, A.Kel'menev, SH. Sirtlanov edilar. Mazkur so'rovga Rossiya yer va davlat mulklari vazirligidan rus dehqonlarini qozoqlar tomonidan o'zlashtirilgan yerlarga ko'chirishga barham berishlarini talab qilingan. Bu yerda ham musulmon fraktsiyasi deputatlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik munosablari yaxshi yo'lga qo'yilganini ko'rish mumkin. Musulmon deputatlar fraktsiyasi o'z tashabbuslariga boshqa fraktsiya deputatlarini ham jalb eta olgani ularning faoliyati kengayganidan dalolat beradi. Lekin mazkur so'rov 1906 yil 4 iyulda berilgani uchun ham, tezda Duma tarqatib yuborilgani sababli, o'z javobiga ega bo'lmagan¹³⁰. 1906 yil 9 iyulda I Davlat dumasiga tarqatib yuborish to'g'risida imperator manifesti chop etildi. Manifestda Duma Rossiya davlatchiligi asoslarini yo'q qilish va "inqilob harakati" daligi uchun tarqatilgani qayd etilgan.

Turk – musulmon deputatlari Davlat dumasida turkiy millat vakillari boshqa Rossiya fuqarolari qatori teng huquqqa ega bo'lishlari yo'lida ham parlament minbaridan foydalanganlar. Masalan, 1906 yil 8 iyunda turk – musulmon fraktsiyasi deputati A.A.Axtyamov Davlat dumasida minbaridan turib

¹²⁹ Россия империяси томонидан олиб борилган кўчириш сиёсати тўғрисида кенгрок маълумот олиш учун қаранг: Фомченко А.П. Русские поселения в Туркестанском крае. Т.: "Фан", 1983; Исаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917 гг.) Т.: "Фан"; 1997; Унинг ўзи. Центральная Азия и Россия в XVIII – нач. XX вв. Т.: "O'zDAVMATBUOTLITI", 2009; Ғофуров Ш. Тарих ва тақдир: Россия империясидан Туркистонга кўчирилганлар. Т.: "Фан", 2006

¹³⁰ Мусульманские депутаты Государственной думы... - С.13

Rossiya fuqarolari tengligiga oid qonun nizomi muhokamasida “...Qozon tatarlari va umuman barcha tatarlar... O’rta Osiyo viloyatlariga borishga haqqi-huquqlari yo’q... shaharlarda fuqaro ham bo’la olmaydilar... hech qanday ko’chmas mulk sotib ola olmaydilar”, - deb bunga noroziligini, teng huquq yo’qligini bildiradi. Rossiya imperiyasi o’zining turk - musulmon xalqlariga cheklovini O’rta Osiyoga joriy etish bilan, amalda, turk - musulmon xalqlari yaqinlashuvi, har tomonlama aloqalarini rivojlantirishidan xavfsiragan. Chunki Rossiya imperiyasi tarkibidagi turk - musulmon xalqlarini yaqinlashuvi imperiya manfaatlariga zid edi¹³¹.

SHunday qilib, aytish mumkinki, I Davlat dumasida turk – musulmon fraksiyasini mujdga kelishi, Rossiya musulmonlarini faollik bilan siyosiy hayotga qadam qo’yayotganlaridan dalolat beradi. Turk – musulmon deputatlari fraksiyasining Davlat dumasidagi asosiy vazifalari qatorida: turk – musulmon xalqlarining diniy-madaniy o’ziga xosligini saqlab qolish va musulmon aholini huquqiy hamda amalda tengligiga erishishi turgan.

II Davlat dumasiga saylov 1907 yil yanvar-fevral oylarida bo’lib o’tib, 518 nafar deputatdan 36 foizi – 187 nafarini rus bo’lmagan aholi vakillari tashkil qilgan. Mazkur II Davlat dumasiga saylov ham vakillar – deputatlar miqdori-aholi soniga nisbatan nomutanosibliigi bilan ko’zga tashlanadi. Xususan, 5 million 378 ming yerli xalqni o’z ichiga olgan Turkistondan atigi 6 nafar Davlat dumasiga turk – musulmon deputati, ayni paytda Turkistondagi 322 ming rus va boshqa “kelgindi” – lardan 7 nafari Davlat dumasi deputati bo’lgan edi¹³². Davlat dumasidagi 187 nafar rus bo’lmagan deputatlarning 36 nafari musulmonlardan: 7 nafari – Ufa guberniyasidan, 4 nafari – Qozon guberniyasidan, 2 nafari: Boku guberniyasidan, Yelisavetpolsk, Orenburg, Dog’iston viloyatlaridan, Zakatal’sk okrugidan, 1 nafari: Astraxan, Vyatsk, Samara, Simbirsk, Tavr, Erivan, Tersk viloyatidan, 4 nafari – Dashtning 4 viloyatidan, 6 nafari – Turkistonning 5 viloyatidan saylangan edi. Davlat dumasi

¹³¹ Мусульманские депутаты Государственной думы... - С.27

¹³² Бургомистрова Т.Ю., Гусакова В.С.Национальный бюпрос в программах и тактике политических партий в России. 1905-107 гг. М.,1976

deputatlari ma'lumotiga ko'ra: 9 nafari oliy (ulardan 5 nafari huquqiy), 7 nafari o'rta, 8 nafari – madrasa tugatganlar, 12 nafari esa quyi va uy ma'lumotiga egalardan edi. Yana shuni ta'kidlash joizki O'rta Osiyodan saylangan musulmon deputatlarning ayrimlari ruscha gapirishni bilmagan. I Dumadan farqli o'laroq, II Dumaga saylanganlardan 4 nafari dehqonchilik bilan shug'ullanganlar va 1 nafari ishchi bo'lgan edi. Aynan ulardan 1907 yil martida mustaqil “musulmon xizmat toifasi” mehnat guruhi tashkil topgan. Mazkur guruhga 6 nafar turk – musulmon deputati: G.Atlasov, G.Badamishn, Z.Zeynalov, X.Massagutov, A.Nejemetdinov, K.Xasanovlar kirgan. Musulmonlar mehnat fraktsiyasi 1907 yil 21 aprelidan “Duma” nomida o'zlarini matbaa organini tashkil etdilar. SHuning uchun ushbu fraktsiyani Dumada “Dumchilar” nomi bilan atash rasm bo'lgan. Lekin shunga qaramasdan, turk – musulmon deputatlarining asosiy qismi, I Davlat dumasida bo'lganidek, mustaqil fraktsiyaga birlashdilar.

II Davlat dumasi 1907 yil 20 fevralida o'z faoliyatini boshladi. Dumada turk – musulmon fraktsiyasidan qrim tatarlar vakili R.Mediev hukumatning mustamlakachilik siyosati, yerli aholi yerlarini zo'rlik bilan egallanishi, vaqf yerlarini esa xususiy, davlat yerlariga aylantirilishi yuzasidan fikr-mulohazalarini bildirgan. Rossiya podsholigining Dasht viloyatlaridagi “ko'chirish siyosati” masalasida qozoq xalqi nomidan B.Qopatoev gapirib, bu siyosat “juda uzoqni o'ylab” amalga oshirilayotgani to'g'risida gapirgan. Turk – musulmon deputatlari fraktsiyasidan F.I.Xayskiy Davlat dumasida Rossiya imperiyasining ruslashtirish siyosati bo'yicha amaldagi sa'y-harakati sifatida Kavkaz va Turkiston o'lkasiga, Dasht viloyatlariga ko'chirish jarayonini olish mumkinligini qayd etgan. U o'z chiqishida Rossiya o'z oldiga musulmonlarni ruslar bilan assimlyatsiyasini maqsad qilinganiga e'tibor qaratib, har qanday holda ham yuqoridagi mintaqalarda yashovchi turk – musulmon xalqlari manfaatlari hisobga olinishi zarurligini ta'kidlangan. Yana shuni ta'kidlash joizki, II Davlat dumasi turk – musulmon fraktsiyasi imperiya tarkibidagi

musulmon aholining manfaatlari yuzasidan 10 ta bo'lim, 68 ta paragrafdan iborat fraktsiya Dasturini qabul qilgan¹³³.

III Davlat dumasiga saylov 1907 yil 3 iyunda qabul qilingan yangi saylov qonuni, ya'ni "Davlat dumasiga saylov Nizomi" asosida o'tkazildi. Xususan, milliy o'lkalardan vakillar saylanishi keskin kamaydi. Turkistonning yerli aholisi, Dasht viloyatlari aholisi "fuqaroligi yetarli rivojlanmagan" sabab-bahonasi asosida saylash-saylanish huquqidan mahrum qilindi. Bunday munosabat, katta mintaqalarni, asosan turk – musulmon aholisi yashaydigan 5 ta viloyatni o'z ichiga olgan Turkiston o'lkasini, 4 ta viloyatni o'z ichiga olgan Dasht viloyatini Duma deputatlari – vakillari sifatida inkor etish, - bu amalda imperiyacha mushohadadan boshqa narsa emas edi. Boz ustiga Kavkazda 1 nafar deputat – 700 ming aholidan, Pol'shada – 750 ming aholidan, Rossiyaning Yevropa qismidan esa 1 nafar deputat – 250 ming kishi hisobidan saylanishi belgilangan edi. Rossiya ichki guberniyalaridan saylanadigan deputatlar soni ham qisqartirilgan. Xususan, Ufa guberniyasidan ilgari 10 nafar deputat saylangan bo'lsa, endilikda ularning soni 8 nafar deb belgilandi. Orenburgdan 7 nafar deputat o'rniga 6 nafar deb belgilandi. Yuqorida qayd etilgan miqdordagi deputatlarning yarmi ruslardan iborat bo'lishligini hisobga olsak, turk – musulmon deputatlari soni ikki baravar qisqarib ketganligini ko'rish mumkin. Masalan, turk – musulmon deputatlari Ufa guberniyasidan 4 nafarni, Qozondan – 2, Orenburgdan – 1, Dog'iston viloyati va Zakatal'sk okrugidan – 1, Boku, Yelisavetpol'sk va Erivandan – 1, Tavrdan – 1 nafar deputatni tashkil etgan edi. Umuman olganda, atigi 10 nafar turk – musulmon deputatlari saylangan edi xolos. Ularning 8 nafari "Musulmon guruhi" fraktsiyasini tuzib, 2 nafari boshqa fraktsiyalarga a'zo bo'ladilar. Davlat dumasidagi mavjud 10 ta fraktsiyadan, deputatlar soniga ko'ra, eng kamchilikni tashkil qilgan musulmonlar fraktsiyasi edi. 8 nafar musulmonlar fraktsiyasidan 4 nafari oliy ma'lumotli (uchtasi huquqshunos va bir nafari vrach), 2 nafari o'rta ma'lumotli, bir nafari madrasani

¹³³ Мусульманские депутаты Государственной думы... - С.40-41, 60-63; Гасырар авазы – Эхо веков № 3/4. 1999. - С. 103

tugatgan. Yana bir nafari boshlang'ich ta'limni olgan. 8 nafar deputatdan 4 nafari 300 dan 1000 desyatinagacha yer egasi edilar. III Davlat dumasi 1907 yil 1 noyabrdan 1912 yil 9 iyunga qadar faoliyat olib bordi¹³⁴.

III Davlat dumasi ko'rib chiqilgan masalalarda, musulmonlar fraktsiyasi juda ozchilikni tashkil etsada, faol qatnashganlar. Masalan, deputat S.N.Maqsudov 1909 yil 5 martida Rossiya Davlat kengashi tarkibiga o'zgarishlarga oid qonun loyihasi bo'yicha so'zga chiqib, mazkur Davlat kengashi tarkibi 200 kishidan iborat bo'lishiga qaramasdan, birorta ham musulmonga o'rin ajratilmaganini eng katta kamchiliklardan biri deb hisoblaydi. 20 milliondan ortiq musulmonlar Rossiyada istiqomat qilishiga qaramasdan, ularning birorta vakili Davlat kengashidan o'rin va ovozga ega emasligi turk - musulmon xalqlari manfaatlarini himoyasiz qolayotgani edi¹³⁵.

Musulmonlar fraktsiyasidan deputat K.B.Tevkelev 1910 yil 7 aprelida "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom"ning 270-moddasi bo'yicha qo'shimcha bo'yicha so'z olib, o'lkada yashovchi yerli aholiga tegishli yerlarni muddatsiz ravishda tortib olish hech qanday huquqiy asoslarga ega emasligi, bu amalda o'zboshimchalikdan boshqa emasligi, tub aholi bo'lgan turk – musulmonlar manfaatlari, haq – huquqi oyoq osti qilinayotgani to'g'risida gapirgan va mazkur muhokama qalinayotgan moddaning yangi tahririga musulmonlar fraktsiyasi qarshi ovoz berishini qayd etgan¹³⁶.

IV Davlat dumasiga saylov 1912 yil sentyabr – oktyabr oylarida amalga oshirilgan. Musulmonlar fraktsiyasi IV Davlat dumasida ilgari I, II, III Davlat dumalarida saylangan deputatlar miqdoridan ancha past edi. Xususan, IV Davlat dumasiga 6 nafar musulmon deputat saylanib, Ufa guberniyasidan – 3 nafar, Orenburg guberniyasidan – 1, Samaradan 1, Boku, Yelisavetpol'sk, Erivan guberniyalaridan – 1 nafar saylangan edi. 6 nafar musulmon deputalaridan iki nafari katta yer egasi, bir nafari savdogar, yana bir nafari dehqonchilik bilan shug'ullangan. IV Davlat dumasi 1912 yil 15 noyabrdan o'z faoliyatini

¹³⁴ Мусульманские депутаты Государственной думы... - С.92-93

¹³⁵ Мусульманские депутаты Государственной думы... С.130-131.

¹³⁶ Мусульманские депутаты Государственной думы... С.139-140.

boshlagan. Davlat dumasidagi musulmonlar fraktsiyasi o'z faoliyatini nafaqat Davlat dumasida doirasida, balki milliy davriy matbuot orqali ham amalga oshirgan. Bu bilan rossiyalik musulmonlar ongiga milliy davriy matbuoti orqali ta'sir o'tkazishga harakat qilganlar. Masalan, 1914 yili Ufada chop etiladigan "Turmush" gazetasida Davlat dumasidagi musulmonlar fraktsiyasi deputatlari K.Tevkelev, I.Axtyamov, M.Jafarovlar imzosi bilan Peterburgda "Sirati – mustaqim" siyosiy tashkiloti tuzilganligi to'g'risida maqola chop etilgan. Musulmonlar fraktsiyasi Davlat dumasida juda ozchilik tashkil qilganiga qaramasdan, rossiyalik turk – musulmon xalqlari manfaati, hamkorligi yo'lida, siyosiy hayotida muhim rol o'ynagan. Masalan, musulmonlar fraktsiyasi to'g'risida Ufa va Menzelinsk yepiskopi Andrey o'zining rasmiy xatida "Barcha musulmonlar ommasi ustidan Davlat dumasidagi musulmonlar fraktsiyasi rahbarlik qilmoqda" deb mazkur fraktsiya faoliyatiga baho berishda davom etib, "...mubolag'azasiz aytish mumkinki, bu o'ziga xos musulmonlar ichki ishlar vazirligidek, hozirda ma'lumotli musulmonlar hayotini va barcha rus musulmonlarini bir joyga yig'ish yo'lida tashkilotchilik qilishga rahbarlik qilmoqda" deydi¹³⁷.

Turk - musulmon deputatlaridan iborat musulmonlar fraktsiyasi son jihatdan juda ozchilikni tashkil qilganiga qaramasdan, Davlat dumasida imperiya tarkibidagi turk - musulmon xalqlari muammolarini дума minbari orqali hukumatga yetkazishga harakat qilgan. Bu borada IV Davlat dumasida musulmonlar fraktsiyasi raisi A. To'pchiboshevni sa'y harakati e'tiborga loyiq. U 1914 yil 25 iyunda Rossiya musulmonlarining imperiyada istiqomat qiluvchi musulmonlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va diniy boshqaruviga to'xtalib, bizni bir-birimiz bilan diniy muammolarimiz to'g'risida gaplashishga majbur qilyaptilar, holbuki mavjud kamchiliklar, muammolarni bilamiz va hohlaymizki, ular to'g'risida hukumat bilishi kerak deydi. U o'z so'zini davom ettirib, bizni nafaqat eshitmaydilar, ishonmaydilar, balki bizni, 20 millionli musulmonlarni

¹³⁷ Мусульманские депутаты Государственной думы... С.204; Гасырлар авазы – Эхо веков № 3/46 1999. – С.104

inkor etadilar aybimiz musulmonligimizdami deb qayd etadi. A.To'pchiboshev yana Turkiston va Qrimda musulmonlarning vaqf yerlarini tortib olinayotgani, hatto Turkistonda o'zlarining noqonuniy xatti-harakatlarini oqlash uchun xonlar tomonidan vaqf yerlariga berilgan "yorliq"larni so'rayaptilar deb, aslida shariatga muvofiq, hech qanday xon tomonidan muhrlangan yorliqlar kerak emasligini qayd etadi. U o'z chiqishida yana Rossiya Davlat dumasida musulmon deputatlari soni qisqarib ketganidan o'z xavotirini bildirib, ayrim, Xususan, Turkiston va Dasht viloyatlaridan, turk - musulmon xalqlaridan birorta ham kishi Davlat dumasiga saylanmaganidan noroziligini bildirib, Rossiya Davlat dumasida ular ham teng vakillikka ega bo'lishi zarurligini uqtiradi va shu mazmunda qaror qabul qilishi haqida taklif kiritadi¹³⁸.

Rossiyani Birinchi jahon urushi (1914-1918) ga tortilishi Davlat dumasi faoliyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Davlat dumasidagi barcha fraktsiyalar, sotsial – demokratlardan tashqari, qat'iyon urushni g'alabaga qadar olib borish zarurligi bo'yicha umumtalabga qo'shildilar. Bu qo'shilish sanitar otyadlarni zarur mahsulotlar bilan ta'minlab, Kavkaz frontiga yuborish, frontga bir guruh musulmon millatlarni askarlarning jangovor ruhiyatini ko'tarish va ularning oilalari uchun pul mablag'larini yig'ish ishlarida faol qatnashdilar. 1914 yil oktyabrida Turkiyani Germaniya tomonida turib urushga qo'shilishi, Kavkaz frontini vujudga kelishiga olib keldi. Kavkaz frontida Rossiya armiyasi tomonidan turk – musulmonlarini ta'qib qilinishi kuchaydi. SHu sababdan musulmon fraktsiyasi tomonidan "Kavkaz frontida musulmonlar ahvoliga doir" bayonotini berildi. Aynan shu maqsadda musulmon fraktsiyasi deputati M.Yu. Jafarov tomonidan imperator Nikolay II nomiga xat yo'llanib, unda turklar bilan urushga kirishilishi natijasida, mutlaqo urushga aloqador bo'lmagan, begunoh musulmonlarni qasos asosida jazolanayotgani, talon-taroj qilinayotgani, zo'rlik uyushtirilayotgani, o'ldirilayotgani ta'kidlanadi. Rus va kazaklar tomonidan musulmon ayollari va qizlari zo'rlanayotgani, natijada turk – musulmonlar tog'larga qochib ketib, panoh topayotgani dalillar asosida keltirib o'tilgan.

¹³⁸ Гасырлар авазы – Эхо веков // № 1/2, 1997. – С.79-80

Umuman I-IV Davlat dumasida 63 nafar musulmon deputatlari faoliyat yuritgan. Ulardan 12 nafari hozirgi O'rta Osiyo va Qozog'istondan edi¹³⁹.

Rossiya Davlat dumasida Musulmonlar fraktsiyasi, Mehnatkashlar fraktsiyasi, Taraqqiyparvarlar fraktsiyasi, sotsial – demokratlar fraktsiyasi Turkistondan front orqasida ishlashga – mardikorlikka jalb qilish bilan bog'liq muammolar bo'yicha maxsus komissiya tuzish lozimligi masalasini ko'rib chiqish zaruriyatini ta'kidladilar. Chunki Turkistondagi ahvol bo'yicha Peterburgga tashrif buyurib, o'lka aholisi noroziliklari sababini Ubaydulla Asadullaxo'jaev, A.A.Chaykin, V. Chaykinlar Davlat dumasiga arz – dodlarini yetkazgan edilar. Mazkur muammoni joylarda o'rganish bo'yicha Davlat dumasi A.F.Kerenskiy, Tevkelev, Yu.Ja'farovlardan iborat Davlat dumasi komissiyasi tuzilib, 7 avgustda Toshkentga kelganlar. 22 avgustdan sentyabr oyi boshiga qadar A.F.Kerenskiy, Tevkelevlar Jizzax, Samarqand, Andijon, Qo'qon, Toshkent shaharlarida bo'lib, aholi arz – dodini, vo'zg'olon sabablarini o'rganganlar (Yu.Ja'farov Kavkazga ketgan edi – R.R.). Davlat dumasi a'zolari diqqat – e'tiborida mardikorlikka jalb etishdagi nohaqliklar qo'zg'olon sababari bo'ldi. Davlat dumasining 1916 yil 3 dekabrda majlisida so'z olgan musulmonlar fraktsiyasidan Yu.Ja'farov “imperatorning mardikorlikka safarbar etish haqidagi farmoni tub aholi hayotining o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinmagan holda tayyorlangan. ...unda tu aholining manfaatlari va munosabatlari e'tiborga olinmagan. ...CHor hokimiyatining tub aholini mensimay hokimiyatni suiste'mol qilishi hech kimga sir emas. Musulmon fraktsiyasiga Turkistonda mardikorlikka olish masalasi va adolatsizliklar bo'yicha ko'p shikoyatlar kelgan. SHunga binoan, fraktsiya tomonidan tegishli nozirliklarga xat yuborib, norozilik bildirgan. Biroq nozirliklar quloq solmaganlar”, - deydi. U qo'lida mavjud ma'lumotlarni Davlat dumasi a'zolariga havola etib, mardikorlikka “odamlarni yollash tartibi ko'p qiyinchilik va adolatsizlikni yuzaga keltirdi. Yollash puli kun sayin oshib, 75 – 100 so'mdan 200 – 300 so'mgacha ko'tarildi. SHunday vaqtlar bo'ldiki, shuncha katta pulga odam topish amri mahol bo'lib qoldi.

¹³⁹ Мусульманские депутаты Государственной думы... С.253-255.

Farzandi yo'q ayollar esa, mardikorlik solig'ini to'lash uchun katalak sotishga majbur bo'lishgan" - deydi¹⁴⁰.

Rossiya Davlat dumasida Yu.Ja'farov front va front orqasidagi harakat zonasida ishlayotgan o'zbek, qozoq, qirg'izlarning achinarli hayoti to'g'risida bildirgan fikrlarida, дума a'zolariga musulmon fraktsiyasi a'zolari ixtiyorida noroziliklar, shikoyatlar borligi, xususan turkistonlik mardikorlar "soldatlar tomonidan qattiq nazorat va ta'qib ostida ushlab turilgan. Ularni kaltaklab, izzat - nafsini yerga urganlar. Arzimagan tartibsizlikka ham vaxshiylarcha munosabatda bo'lingan. Yotoqxonalar sanitariya talablariga mutlaqo javob bermagan, mardikorlar zax yerlarda azob chekkanlar. Hatto suvda tikka turib ishlaganlar. Sovuq tufayli mardikordlarda bel va oyoq og'rig'i kasalligi keng tarqalgan... Mardikorlar kasalliklari va charchaganliklari haqida shikoyat qilsalar, javobiga haqoratlanganlar, hatto kaltaklanganlar. Mardikorlar bolta, arra va boshqa ish qurollariga shikast yetkazsalar, jarima solinib, maoshlaridan bosib olingan", - deydi¹⁴¹.

SHunday qilib, ta'kidlash joizki, Rossiya Davlat dumasida 1916 yilgi voqealarga munosabat deputatlar tomonidan yopiq majlisda ko'rib chiqilgan. Musulmonlar fraktsiyasi deputati M.Yu. Ja'farov o'z chiqishida yana o'lkadagi ahvolni o'rganib, mardikorlikdan qutulish uchun pul "zvaziga o'z o'rniga odam yollash ahvolni yana battar chalkashtirgan... Hatto beva ayollar ham arzimas uy-joyini sotib, mardikorlik majburiyatini to'lashga majbur etilgan... Mardikorlikka hatto falaj bo'lib qolgan bemorlarni ham yozib olishgan, ular pul to'labgina ro'yxatdan o'chishi mumkin bo'lgan. Mardikorlik cheki tushmagan hovlilar mardikor bergan oilalar uchun pul to'lagan ... Pulga odam yollash chorasi boylar

¹⁴⁰ Исмоилова Ж. Фарғона водийсида миллий озодлик курашлари (1916 йил қўзғолони мисолида) Т.: Гофур Гулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2003. – Б.190-206; Унинг ўзи. 1916 йил қўзғолони оқибатларининг Россия Давлат думасидаги муҳокамаси / Тарихнинг ноъмалум саҳифалари. Т.: "O'QITUVCHI", 2010. – Б.29

¹⁴¹ Исмоилова Ж. 1916 йил қўзғолони оқибатларининг Россия Давлат думасидаги муҳокамаси / Тарихнинг ноъмалум саҳифалари. Т.: "O'QITUVCHI", 2010. – Б.30

bilan kambag'allarning munosabatini keskinlashtirib, o'zaro nizolarga sabab bo'lgan" – deydi¹⁴².

M.Yu. Ja'farov 1916 yilgi Turkistondagi qo'zg'olondan keyingi ahvol, yerli aholiga bo'lgan munosabat to'g'risida Davlat dumasida so'z olib yana quyidagilarni gapiradi: "Avvalo mahalliy aholiga ma'muriyat ruxsatisiz temir yo'ldan foydalanish taqiqlangan. Bu ham kamlik qilib, barcha rus ma'murlari va ofitserlariga mahalliy aholi ta'zim qilishi lozim va majburiyligi haqida maxsus farmon qabul qilingan... bu majburiyatni bajo etmaganlar yo pul to'lagan, yo kaltaklangan. Hatto, shunday manzaralar bo'lganki, otda ketayotgan hurmatli bir mo'ysafid eng oddiy rus ma'murini ko'rganda tezda otdan tushib, qo'lini ko'ksiga qo'yib, unga ta'zim qilishiga to'g'ri kelgan. Bunday xo'rlikka chidolmagan ko'pchilik mahalliy ziyolilar esa ko'chaga chiqolmay, uyga tiqilib o'tirishga majbur bo'lganlar. Agar sart ko'chaning narigi betidagi yoki orqasida kelayotgan ma'murni ko'rmas qolib, ta'zim qilmasa yoki sotuvchi savdo bilan band bo'lib, peshtaxta ortidan darhol yugurib chiqmasa, otliq kishi darhol otidan tushib ta'zim etmasa, ayamay savalangan"¹⁴³.

Umuman olganda, Rossiya Davlat dumasida musulmonlar fraktsiyasining faoliyati ma'lum bir qiyinchiliklarni o'z ichiga olgan. Lekin shunga qaramasdan, musulmonlar fraktsiyasi turk - musulmon xalqlari haq-huquqlari yo'lida katta jasorat bilan faoliyat olib borganlar. To'g'ri, ta'kidlash joizki, Rossiya Davlat dumasi tarkibini shakllantirish jarayonida turk - musulmon deputatlari sonini kamayib ketganini uzoqni mo'ljallab qo'llangan siyosat deb tushunish mumkin. O'z navbatida Davlat dumasida Turkiston o'lkasidan deputatlar bo'lishiga ijozat bermaslikni qanday tushunish mumkin? **Birinchidan**, chor Rossiyasi ma'murlarining ko'p millionli turk – musulmon xalqlari haq-huquqlariga o'ta bepisandlik bilan qarash bo'lsa, **ikkinchidan**, o'lkadagi yerli aholi qadr-qimmatini poymol qilishi, **uchinchidan**, turk – musulmon xalqlari vakillarini

¹⁴² Шамсутдинов Р. Тарихий меросимизга бир назар. Андижон, "Мерос", 1994 – Б.11; Зиёева Д. Туркистон миллий озодлик ҳаракати. Т: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000 – Б.13

¹⁴³ Зиёева Д. Туркистонда миллий озодлик ҳаракати... – Б.14 Қаранг: Мусульманские депутаты... – С.270-272

Davlat dumasida siyosiy uygʻonish-kurashga kirishishidan xavfsirash, **toʻrtinchidan**, Rossiya imperiyasi davlatchiligiga turk – musulmon xalqlari vakillari tomonidan putur yetkazishdan qoʻrqish edi¹⁴⁴.

3.2. Turk - musulmon xalqlari oʻrtasidagi madaniy – maʼrifiy munosabatlar

Asrlar davomida sharqda maʼnaviyat va maʼrifat “beshigi” deb qayd etiladigan geografik hududlar qatorida, haqli ravishda Turkiston ham oʻz oʻrniga ega. Zero Turkiston xalqlari ham jahon tsivilizatsiyasiga maʼnaviy-maʼrifiy jihatdan munosib hissa qoʻshib, insoniyat-bashariyat taraqqiyotida katta iz qoldirgan. Darhaqiqat, oʻlka ziyolilari, turk - musulmon xalqlari qadim-qadimdan jahon taraqqiyotida oʻz salohiyati, ilm-fan rivojiga qoʻshgan hissasi, diniy va dunyoviy ilmlarni yanada takomillashuvida tutgan munosib oʻrni bilan muhim ahamiyatga molik hisoblanadi.

Baʼzan, turk - musulmon xalqlari taraqqiyotiga toʻsiq boʻlgan jarayonlar zamirida, yurtimizni koʻp yillar davomida mustamlakachi dushmanlar asoratida qolganimizdan deb tushuntiradilar va tushunadilar. Bunday fikr-mulohazalarni inkor etmagan holda, aytish joizki, turk - musulmon xalqlari taraqqiyot tomirini mustahkam “ildiz otmagani”ga sabablar qatorida yurtni hamma vaqt ham munosib rahnamolar boshqarmagani, dushmanga qarshi xalqni safarbar qilishda sarkardalar noʻnoqligi, qurol-yarogʻlarni zamon talablaridan ortda qolganligi deb ham qayd etish mumkin. Yana boshqa bir muhim sabablar qatorida turk - musulmon xalqlarini oʻzaro iqtisodiy, harbiy-siyosiy aloqalarining sustligidan deyish mumkin. Toʻgʻri, turk - musulmon xalqlarining oʻzaro madaniy-maʼrifiy munosabatlariga kelganda, bu yoʻnalishdagi aloqalar maʼlum darajada oʻz rivojini topgan. Bunday holat, ayniqsa, XIX asr oxiri va XX asr birinchi choragida yaqqol koʻzga tashlanadi. SHarqshunos V. V. Bartold bu borada soʻz

¹⁴⁴ Алимова Д. Жадидчилик ҳаракатининг ижтимоий-сиёсий моҳияти ва жадидлар тафаккури / Жадидчилик: ислохот, янгилашиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Т.: “Университет”, 1999. – Б.39

yuritib, XIX asrda Volgabo'yi va Turkiston xalqlari, xususan turk - musulmon xalqlari o'zaro munosabatlarda bir-birlariga ta'sir o'tkazganligi, Buxoroni musulmon dunyosida tutgan o'rni katta ahamiyatga molik bo'lganligini qayd qayd etish bilan birga, XIX asr ikkinchi yarmidan Volgabo'yi musulmonlari Turkistondagi dindoshlariga madaniy-ma'rifiy qarashlarida muhim rol o'ynaganlarini ta'kidlaydi¹⁴⁵.

Turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi harbiy-siyosiy aloqalar to'g'risida so'z yuritganda, bu munosabatlarga yondashuv o'ziga xos murakkabligi bilan ajralib turadi. Xususan, Rossiya podsholigi tomonidan Turkistonni zabt etilishida ruslar tatarlardan imperiya manfaatlari yo'lida: harbiy-siyosiy yo'nalishda va tilmoch sifatida sovet hokimiyati o'rnatilgandan keyin esa: qurolli qarshilik harakatni bostirishda, tarjimon va tilmoch tariqasida, boshqaruv tizimida, milliy harbiy qismlarni shakllantirishda, ta'limda, ayollar o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarida foydalanganlar. Ammo shuni qayd etish lozimki, Rossiya tomonidan Turkiston zabt etilgandan keyin, o'lkada imperiya manfaatlariga zid ravishda, turk - musulmon xalqlari o'rtasida madaniy-ma'rifiy aloqalar ham rivoj topgan. Ayniqsa bu, jadidizmni-yangi usul maktablarini o'lkada keng yoyilishi bilan yaqqol ko'zga tashlanadi. Rossiya ichki musulmonlarining ma'naviy otasi sanalmish Ismoil Gasprali sa'y-harakati tufayli Turkistonda, Buxoroda, Xivada yangi usul maktablarida o'qitish yo'lga qo'yildi. Ismoil Gasprali ilk bor Turkistonga 1893 yili tashrif buyurib, musulmon ziyolilardan tashqari, Turkiston general-gubernatori Vrevskiy bilan ham uchrashadi. Uchrashuvdan asosiy maqsad musulmon ta'lim muassasalarining islohoti edi. Ammo Turkiston general-gubernatorligi turk - musulmon xalqlari hamkorligi, yerli xalq ta'lim tizimini isloh qilishdan manfaatdor emas edi. Boshqacharoq ifodalganda, jadidizmni Turkistonda keng quloqch yoyishi nafaqat Turkiston general-gubernatorligi, balki Rossiya imperiyasi tarkibidagi turk - musulmon xalqlarining o'zaro munosabatlarini keng qamrovli yo'lga qo'yilishi uchun asos bo'ladi degan xavf tug'dirishi

¹⁴⁵ Бартольд В.В. Сочинения. – Том II, часть I. – Москва, 1963 – С.796.

mumkinligidan dalolat berardi. Bu esa, imperiya manfaatlariga zid edi. SHuning uchun bo'lsa kerak, 1900 yil 31 dekabrda mutlaqo maxfiy belgisi ostida Rossiya ichki ishlar vazirligi imperiya gubernatorlariga ko'rsatma yuborib, unda: "keyingi vaqtlarda tatar adabiyoti va matbuotida 14 millionli rus musulmonlarining ko'p asrli turmush tarzini izdan chiqarish xavfiga sabab bo'luvchi ruh paydo bo'lganligi sezilmoqda. ...vazirlik e'tiborni Gaspirinskiy faoliyatiga, yangi usuldagi maktablarga, uning darsligi asosida ona tili va adabiyot o'qitishi masalasiga qaratadi" deb o'z xavotirini bildirgan¹⁴⁶. Ko'rinib turibdiki, Rossiya imperiyasi turk - musulmon xalqlari hamkorligiga, musulmon xalqlarni ma'rifati va ma'naviyati o'sib-unishiga qarshi bo'lgan. Mazkur ko'rsatmadan kelib chiqib, Verniy (Olma-ota) shahrida o'lka rus va rus-tuzem maktablari muallimlarining katta yig'ini bo'lib, unda majlis qatnashchilari "tatar muallimlarining maktab ochib o'qituvchilik qilishlariga, o'qimishli tatar ziyolilarining Turkiston o'lkasida yashashlariga, hatto joy sotib olishlariga ruxsat bermaslikni talab qildilar". Bunday siyosatga Ismoil Gasprali o'z munosabatini bildirib, "Rossiyadan kelgan musulmonlarning O'rta Osiyodan mul olmasidan Rusiya davlatining foydasi nadur? Ikki taraf birlashmasun. Rusiyali musulmonlar turkistonlilara rahbar o'lmasun kabi g'alat bir fikr esa behudadir, besamardir. Musulmonlarning birligi bo'yla qoziqlar ila ayrilmaz, chunki bu **birlik diniydir, tarixiydir, jinsiydir** (ta'kid bizniki – R.R.). Bo'yla qoziqlarning hatto foydasida vordir: musulmonlarning fikrini ishlatur, ko'zlarini ochar, himmatga savq edar"¹⁴⁷.

Turk – musulmon xalqlari o'rtasidagi madaniy – ma'rifiy munosabatlarda tatar, ozarbayjon, o'zbek matbuoti va teatrining tashkil topishi va hamkorligi yo'lidagi say-harakatlar muhim ahamiyatga molik bo'lganini ta'kidlash zarur. XX asr boshlarida turk - musulmon xalqlari orasida ilk bor 1897 yil ozar teatri va keyinchalik, aniqrog'i 1906 yil 22 dekabridan tatar teatri tashkil topgani ta'kidlanadi. 1917 yil oktyabr davlat to'ntarishiga qadar tatar teatri bir nechta:

¹⁴⁶ Туркестон жади́дчили́ги – миллий уйғониш даври тарихи (XIX аср охири – XX аср бошлари) Наманган, "Наманган" нашриёти, 2012. – Б. 20.

¹⁴⁷ Туркестон жади́дчили́ги – миллий уйғониш даври тарихи ... Б. 21-22.

“Sayyor”, “Nur”, “SHirkat”, “Tatar dramatik aktyorlari o’rtoqlari” dan iborat edi. Lekin shuni qayd etish lozimki, tatarlarning professional teatri ish boshlamasdan avvalroq Turkistonda tatar teatrchilik harakati o’z faoliyatini boshlagan. Bu 1904 yil 4 aprelida Toshkentda podpolkovnik¹⁴⁸ S.G.Enikeev xonadonida Novmiq Kamolning “Ishq bolasi” spektakli Turkistonda yashovchi tatar havaskorlari tomonidan namoyish etilgan¹⁴⁹. Boshqa bir manbada ushbu nomdagi spektakl 1905 yil 4 aprelda polkovnik Abubakir Divaev tomonidan sahnalashtirilganligi qayd etiladi¹⁵⁰. S.G.Enikeev asli boshqirdistonlik tatarlardan bo’lib, sobiq Qo’qon xonining Sank-Peterburgdagi elchisi Mirza Hakim Parvonachining tatar xotini tomonidan tug’ilgan Saodatxonimga uylangan edi. Mazkur oilada muntazam tatar spektakllari, kontsertlar, “Sanoyi nafisa” kechalari uyushtirilib turilgan. 1909 yili S.G.Enikeev xonadonida 1909 yili tatar havaskorlari tomonidan “tatar teatrining otasi” Aliasqar Kamolning “Birinchi teatri” nomli komediyasi qo’yilgan. Mazkur komediya sahna ko’rinishida o’zbek taraqqiyparvarlaridan Abdulla Avloniy ham ishtirok etgan¹⁵¹.

Yana o’sha 1909 yili Toshkentda mahalliy tatar havaskorlari tomonidan “Musibati Faxriddin” va “Qizlar qanday kulalar” nomli spektakllar qo’yilgan. 1910 yildan boshlab esa, Toshkentda doimiy tarzda tatar teatr jamoasi ish boshlagan. Mazkur gruppada tatar, ozar, rus dramaturgiyasinnig asarlari sahnalashtirib borilgan¹⁵².

¹⁴⁸ Ш.Турдиев ва А. Исоқбоевлар С.Г.Еникеевни генерал деб қайд этишади. Қаранг: Турдиев Ш. Среднеазиатские татары: роль и значение в культурной и политической жизни Туркестана первой четверки XX в. / Ислам в татарском мире: история и современность (Материалы международного симпозиума, Казань 29 апреля – 1 мая 1996 г.) Казань 1997 – С. 175, Исоыбоев А.А. Туркистон ижтимоий – сиёсий ва маданий ҳаётида татар-бошқирд маърифатпарварларининг фаолияти (XIX аср охири – XX аср бошлари). Тарих фан. Номз.... дисс. Наманган, 2008 – Б.12, Ўйлаймизки, 1904 йилда С.Г.Еникеев подполковник бўлган бўлиши ва кейинроқ, ҳарбий хизматлар эвазига полковник, генерал унвонига сазовор бўлган бўлиши мумкин.

¹⁴⁹ Октябрьгә кадэрге татар театры. Казан, Татарстан китап нъшшрияты, 1988 – Б. 31

¹⁵⁰ Турдиев Ш. Среднеазиатские татары: роль и значение в культурной и политической жизни Туркестана первой четверти XX в. / Ислам в татарском мире: история и современность. (Материалы международного симпозиума, Казань 29 апреля- 1 мая 1996 г.) Казань, 1997 – С.175

¹⁵¹ Исоқбоев А.А. Туркистон ижтимоий – сиёсий ва маданий ҳаётида... – Б. 122. Қаранг: Абдулла Авлоний Танланган асарлар I,II жилд. Т.: “маънавият”, 1998

¹⁵² Ризаев Ш. Жадид драмаси Т.: “Шарқ”, 1997 – Б. 26.

Turk – musulmon xalqlarining teatr sohasidagi o‘zaro aloqalari XX asr boshlariga borib taqaladi. Xususan, 1908 yil bahorida Tiflisdagi ikkita teatr truppa: ozarbayjon aktyori G.Arablinskiy va teatr aktyori A.Qorievlar birgalikda faoliyat yuritgan. Ikki truppa aktyor-rejissiyorlari “Mulla Nasriddin” jurnali redaksiyasida uchrashib, birlashishga va birgalikda gastrollarga chiqishga kelishdilar. Birlashishga turtki bergan sabablarning eng asosiysi, ozarbayjon teatri spektakllarida faqat erkaklar rol o‘ynagan hol-da, tatar teatr truppasida aktrisalar ham rol o‘ynardi¹⁵³. Ozarbayjon teatr truppasidagi, diniy-shariat tartib-qoidalariga ko‘ra, aktyorlar orasida ayollar yo‘q edi. Boz ustiga til birligi, diniy birlik hamda tatar va ozarlarning SHarq shoirlari, qahramonlariga bo‘lgan yagona munosabat: Layli va Majnun, Farhod va SHirin, Tohir va Zuhra v.b. ularni birlashishga undagan omillardan edi. SHarq olamida – turk - musulmon xalqlari dunyosida mashhur Xo‘ja Nasriddinni borligi ham tatar va ozarlar birlashuvida muhim ahamiyat kasb etgan. Yana shuni qayd etish lozimki, turk-musulmon xalqlari o‘rtasida nafaqat teatr sohasi, balki adabiy aloqalar ham muhim ahamiyat kasb etgan. Masalan, ozarbayjonlarning “Mulla Nasriddin” satirik jurnali Qozon, Ufa, Orenburg, Astraxonda ham tarqatilib, o‘z o‘quvchilariga ega bo‘lgan. Mazkur jurnalda boshqa turk - musulmon xalqlari hayotiga oid materiallar ham chop etilgan bo‘lib, ushbu “Mulla Nasriddin” jurnali 1906-1908 yillarda tatarlarning “O‘qlar”, “Yashin” satirik jurnallarini vujudga kelishiga ta’sir ko‘rsatgan¹⁵⁴.

Ozar va tatar truppalari birlashishida asosiy omillar, yuqorida qayd etilganidek, ayol – aktrisa muammosi bilan bir qatorda teatrga munosabatdagi yagona qarash, ijoddagi umumiy qarash, til, din, urf-odatlardagi turk – musulmon yaqinligi ham muhim rol o‘ynagan. Tatar va ozar teatr truppalari birlashib, “Qozon-Kavkaz artistlari o‘rtoqligi” nomida ozar rejissiyori Arablinskiy rahbarligida faoliyat yuritdi. Turk – musulmon xalqlari, aniqrog‘i tatar – ozarbayjon artistlarining hamkorligi natijasida N.Narimonovning

¹⁵³ Октябрьгә кадэрге татар театры. Казан, Татарстан китап нәшрияты, 1988 – Б. 67

¹⁵⁴ Илялова И. Межнациональные связи татарского театра. Казань: Татарское книжное издательство, 1985 – С. 56-57.

“Nodirshoh”, N.Vazirovning “Faxriddin fojeasi” tragediyalari, tatar dramaturgi A.Kamolning “Baxtsiz yigitcha” spektkli sahnalashtirilgan. Sahnada tatar va ozar artistlari G.Arablinskiy, S.Gizzatullina – Voljskaya, Qorieva, M.Davudovalar birgalikda rol o’ynab, teatr san’ati rivojiga hissa qo’shdilar. O’zaro tatar – ozar hamkorligidagi teatr truppasida faoliyat yuritish natijasida, tatarlar ozarbayjonlardan tragediya janrida faoliyat yuritishni, G’arbiy Yevropa klassiklari asarlari bilan tanishishni o’rgangan bo’lsalar, ozarbayjonlar tatarlardan hayotiy, ishonchli voqealarni, kundalik dolzarb hayotni o’z ichiga olgan voqealarni aks ettiruvchi spektakllar qo’yishini o’rgangan edilar. Boshqacharoq ifolaganda, tarixiylik va zamonaviylik mavzularidagi spektakllarida qatnashishlar natijasida, tatar va ozarlar madaniy hamkorligi vujudga kelgan¹⁵⁵.

Yana tatarlar tomonidan madaniy tadbirlarga e’tibor qaratilsa, 1911 yili tatar ziyolilari tomonidan Toshkentda “SHarq kechasi” tashkil qilindi. Ushbu kechani qo’llab-quvvatlagan, tashkiliy masalalariga yordam bergan shaxs tatar millioneri Muhammad Yavushev edi. Turkistonda madaniy va dramaturgiya sohalaridagi o’zgarishlar, turli tadbirlar o’lkada teatr dramaturgiyasi rivojiga turtki berdi. Natijada o’zbek tilida ham p’esalar yozila boshlandi. Buni samarqandlik Abdulla Badriy, qo’qonlik Abdurauf SHaxiylar tomonidan o’zbek tilida yozilgan p’esalar orqali ham bilishimiz mumkin. Xususan, 1915 yili Abdulla Badriy tomonidan “Juvonmarg” p’yesasi chop etilgan¹⁵⁶.

Rossiya podsholigi ma’muriyati, o’lka general – gubernatoriligi o’zbek va tatar madaniy aloqalarini chuqurlashuvi chorizm manfaatlariga zid deb hisoblab, Toshkentdagi “Turon” truppasida 1914-1915 yillarda rejissiyor sifatida faoliyat olib borgan Zaki Boyazidskiy va Mustafu Mansurovlar Turkiston o’lkasidan chiqarib yuborilgan¹⁵⁷.

¹⁵⁵ Илялова И. Межнациональные связи татарского театра. Казань: Татарское книжное издательство, 1985 – С. 60-61.

¹⁵⁶ Турдиев Ш. Среднеазатские татары... - С. 175-176

¹⁵⁷ Турдиев Ш. Среднеазатские татары... - С. 175-176, 181

Turkistonda tatar va o'zbeklar o'rtasidagi madaniy aloqalar xususida fikr yuritganda tatar ziyolisi A.SHagidullinov faoliyatiga to'xtash maqsadga muvofiq. U 1908 yili Ishoqxon Ibrat¹⁵⁸ taklifiga binoan Namanganga kelib, "Matbaai Ishoqiya"ni tashkillashda ishtirok etgan. A.SHagidullinov 1911 yili "Falokatzoda" nomli qissa va Turkiston tarixida ilk bor o'zbek tilida "Mahramlar" nomli 3 pardli drama yozib, 1912 yili "Matbai Ishoqiya"da nashr ettirdi.

O'z navbatida Tatariston teatr truppalari Turkistonga 1911 yildan boshlab tashrif buyurganlar. Turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi teatrchilik aloqalarini rivojida 1911 yili Ilyosbek Kudashev – OshkazarSKIY rahbarligida tatar "Sayyor" teatr truppasining Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Buxoro, Andijonda bo'lishi mahalliy teatrchilik uchun ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. "Sayyor" truppasi o'lka shaharlarida Aliasqar Kamolning "Bahsiz yigit", "O'ynash", "Bizning shahar sirlari", "Dajjol", Ishoq Bogdanovning "Kambag'allik ayb emas" nmlaridagi sahna asarlarini namoyish etgan. "Sayyor" truppasining ijodiy safarlardagi muvaffaqiyatiga tili, ruhiyatiga ko'ra turk - musulmon xalqlarining bir – biriga yaqinligi va truppani Turkistondagi gastrollaridan avval, aniqrog'i 1908 yilda Kavkazdagi ijodiy safari ham muhim rol o'ynagan. "Sayyor" truppasi Kavkazdagi Husayn Arablinskiy boshchiligidagi Ozarbayjon teatr truppasi bilan uchrashgani ham muhim ahamiyat kasb etgan. Yana shuni ta'kidlash joizki, "Sayyor" truppasi ta'sirida 1912 yili Ufa tatarlari tomonidan tashkil topgan "Nur" nomli teatr truppasi Sohibjamol Izzatullina Voljskaya boshchiligida Turkistonga kelib, Toshkent, Samarqand, Marv, CHorjo'y va Buxoro shaharlarida spektakllar namoyish etgan. O'zaro teatrchilik munosabatlari "Sayyor" truppasi uchun 1913 yilda ham davom etgan. Bu mavjud truppani Turkistonga ikkinchi tashrifi bo'lib, Toshkent, Namangan, Kogon, Buxoro shaharlarini o'z ichiga olgan. "Sayyor" truppasini yana bir vakili Abdulla Qoriev ham o'zbek – tatar teatrchilik munosabatlaridan muhim o'rin tutgan. U 1913 yili Ashxobod CHorjo'y, Marv, Buxoro, Samarqand, Andijon,

¹⁵⁸ Кенгрок аълумот олиш учун қаранг: Долимов У. Ишқоқхон Ибрат Т.: "Шарқ", 1994

Namangan, Qo'qon, Toshkent, Turkiston, Oqmachit, Qozoli shaharlari bo'ylab safarda bo'lib spektakllar namoyish etgan¹⁵⁹. Ammo A. Qorievni teatrchilik sohasidagi faol harakati Turkiston rayon muhofaza bo'lishi (TRMB) mutasaddilari nazoratida bo'lgan. Bundan asosiy maqsad turk - musulmon xalqlarining madaniy aloqalarini imperiya manfaatlariga qaratish, nazoratda olib turish edi¹⁶⁰.

Turk - musulmon xalqlari tarixida teatrning tutgan o'rniga jadidlar tomonidan yuqori baho berilib, bu "ulug' maktab", "ibratxona" deb atalgan. SHu ma'noda Turkistonga ham tatar, ozarbayjon sayyor teatr jamoalarining kirib kelishi o'lkada ham o'zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirib, o'zbek milliy teatri san'atini vujudga kelishiga turtki berdi. Dastlabki o'zbek teatri to'g'risidagi ma'lumot, 1913 yili rasman shakllanmasdan bir oz ilgariroq, ya'ni o'zbek yangi teatri tarixini maxsus o'rgangan B.O. Petrovskiy tomonidan "Inqilob" jurnalining bir necha sonlarida e'lon qilingan. Mazkur maqolada "Qoravul" shahriga yaqin bir qishloqqa 1909 yilda "o'zbek teatri o'ynaldi" degan xabar borganligini qayd etilgan edi. Bu xabar qanchalik to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlash qiyin... 1910 yil yanvar oyida "Turkiston viloyatining gazetasi" bergan xabarga ko'ra, "fursatda Toshkent shahrida teatr, ya'ni "muqallid" o'yini o'ynalturg'on musulmon jamiyati (truppa) ochilur emish... Ul jamiyat musulmon zabonida", - deyiladi. Ushbu xabardan besh-olti kun o'tib yana shu gazetada yerli tatar havaskorlari doimiy teatr truppasi tuzgani haqida axborot berilgan. Ammo shu yerda "Oyina" jurnali "Doxiliya xabarlari" rukni asosida "teatr yo kontsert tomoshalari haqidagi xabarlarda, mahalliy havaskorlar tatar teatrchilari bilan hamkorlikda spektakllar qo'ygani, aksariyat, milliy pьesalardan so'ng tatar pьesalari o'ynalgani, har bir spektaklda tatar va o'zbek

¹⁵⁹ Октябрьгэ кадэрге татар театры. Казан, Татарстан китап ньшширияты, 1988 – Б. 101

¹⁶⁰ Исоқбоев А.А. Туркистон ижтимоий – сиёсий ва маданий ҳаётида татар – бошқирд маърифатпарварларининг фаолияти (XIX аср охири – XX аср бошлари). Тарих. фан. номз. дисс. Наманган, 2008 – Б.122-124; Насретдинова М. Туркистоннинг маданий ҳаётида татар – бошқирд аёлларининг тутган ўрни (XIX аср охири – XX асрнинг биринчи чораги). Тарих фан номз. дисс. Тошкент, 2011 – Б.62

aktyorlarining birgalashib ishtirok etishganidan ogoh bo'lamiz" degan fikr ahamiyatga molik hisoblanadi¹⁶¹.

Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" asari 1914 yil 15 yanvarda Samarqandning Yangi shahar qismida namoyish etiladi. Bu asarni sahnalashtirgan rejissyor ozarbayjon Aliasqar Asqarov edi. Boshqa bir ma'lumotda rejissiyorlikni Mahmudxo'ja Behbudiy o'zi qilgan deyiladi. Spektakldagi rollarni o'ynashga o'zbeklar qatori tatarlar ham jalb etilgan edi. Yana o'rni kelganda shuni qayd etish lozimki, spektaklda rol o'ynashga o'zbek va tatarlar jalb qilinganiga qaramasdan, tomoshabinlar orasida rus va yahudiylar ham bor bo'lgan. Bu yerda rus va yahudiylar turkiy tilni tushungan bo'lishlari mumkin yoki tarjima qilib berilgan. Ammo qayd etish lozimki, sahnada qo'yilayotgan spektakllarga ommaviy-axborot vositalari orqali ham o'z munosabatlari – taqrizlarini berib borganlar. Masalan, "Padarkush" spektakli masalasi, tili, mohiyati va tatar havaskorlari spektakliga baho berilib, unda "Padarkush"ni namoyish etilishi o'lka madaniy hayotida katta voqea ekani e'tirof etilgan holda, tatarcha "spektaklni yengil kulgu komediya" ekani, ijrochilar nutqining tezligi va ruscha so'zlar tez-tez ishlatilishi tanqid qilinadi¹⁶². Ammo ayni paytda 1914 yilning 27 fevralida Toshkentdagi Kolizey teatrida 2000 kishilik tomoshaxonada "Padarkush" namoyishi bilan spektaklga "Turkiston viloyatining gazetisi"ida: "Turkiston viloyatining taraqqiylik Rusiya hukumatiga tobe bo'lganiga yarim asr bo'lib, sartiylalarda bu o'yin birinchi marotaba bo'lib ham **shu darajada yaxshi o'xshatdilarki**, (ta'kid bizniki – R.R.) har qayg'u teatrni ko'rib, teatr ishiga omil kishilar bularning, yangi o'rganganlariga inonmay, balki bular bir necha yil **Ovro'pada mashq qilgan odamlar deb hayol qiladi...** (ta'kid bizniki – R.R.) Rusiya hukumatiga tobe bo'lganiga 300 yil bo'lgan tatarlardan necha daraja ortiq deganda mubolag'a bo'lmas. (ta'kid bizniki – R.R.) U muqallid o'yinida sartiylalar, tatarlar shu daraja ko'p bo'lgandilarki, keyin kelgan odamlarga bilet yetmay qolib, teatr ichida va

¹⁶¹ Ризаев Ш. Жадид маърифатчилиги ва театр / Жадидчилик: ислохот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш Т.: Университет", 1999 – Б.119.

¹⁶² Ризаев Ш. Жадид маърифатчилиги ва театр... Б. 55

tepalarida odamlar mo'ri malaxdek qaynab turdilar. Rusiyalar ham bo'ldilar. Sartiylarning bu tariqa ko'p bo'lganliklari teatrga ishlari va taraqqiyga qadam qo'yishlarining alomati bo'lib, teatrdan tushgan aqcha Toshkent jamiyati omdodiyasi foydasig'a berilar ekan"¹⁶³.

Toshkentdagi "Padarkush"ni sahnaga qo'yish ishiga tatar Muhammadyorov rejissyor sifatida jalb etilgan bo'lsada, lekin bu ish juda sust olib borilgan. 1914 yil fevralida Aliasqar Asqarov Samarqandga kelib, Toshkent havaskorlariga o'zini tanita oldi va rejissiyorlik vazifasi unga topshirildi. Natijada 1914 yil fevralida "Padarkush" p'yesasi va ozarcha "Xo'r-xo'r" komediyasi sahnaga qo'yildi.

Turk – musulmon xalqlari o'rtasidagi madaniy-ma'rifiy munosabatlarda Abdulla Avloniyning faoliyat ham muhim ahamiyatga ega¹⁶⁴. Xususan, 1904 yilda Abdulla Avloniy Toshkentda usuli jadid maktabini ochadi. Ismoil Gasprali boshlab berilgan jadidchilik harakatida faol ishtirok etib, o'zbek bolalarini 6 oyda savodini chiqarish, geografiya, hisob, tabiatni o'rganish fanlarini o'qita boshladi. Abdulla Avloniy uchun turk – musulmon xalqlari bolalarini savodini chiqarishni o'zigina yetali emas edi. U Rossiya hukumati tomonidan 1905 yil 17 oktyabr Manifesti e'lon qilinganidan keyin shaxs daxlsizligi, vijdon, so'z, yig'ilishlar erkinligi imkoniyatidan Turkistonda ham foydalanish zarur deb topib, matubot ishlarini rivojlantirish ishlari orqali turk - musulmon xalqlari madaniy-ma'rifiy jarayonlarida faol qatnashdi. Xususan, tatar ma'rifatparvarlari Ismoil Obidiy tomonidan 1906 yilda tashkil qilingan "Taraqqiy" gazetasida, ko'p o'tmay "Xurshid", "Tujjor", "Osiyo" gazetalari dunyo yuzini ko'rishida bevosita ishtirok etdi. 1907 yil 4 dekabrda uning muharrirligida "SHuhrat" gazetasining birinchi soni bosmadan chiqdi. 1904-1905 yillar Abdulla Avloniy uchun ijodiy va ayni paytda madaniy-ma'rifiy ishlar rivojida amaliy-tashkiliy

¹⁶³ Ризаев Ш. Жадид маърифатчилиги ва театр... Б. 64

¹⁶⁴ Абдулла Авлоний 1878 йил 12 июлида Тошкентда таваллуд топган. 7 ёшдан Ўқсидаги эски мактабда савод чиқарган. 1890 йили мазкур маҳаллада, сўнгра Шайхонтохурдаги Абдумаликбой мадрасасида Мулла Умар Охундда таҳсил олди. Кейинчалик Туркистон миллий уйғониш адабиёти вакилларида бири бўлиб, шоир, драматург, журналист бўлиб танилди. "Мақтаб", "Нашриёт" ширкатлари муассиси ўзбек театри асосчиларидан бири – Тошкентдаги "Турон" театр ҳаваскорлари тўдасини тузувчиси

faoliyatga boyligi bilan ko'zga tashlanadi. 1909 yilda u "Jamiyati xayriya" ochib¹⁶⁵, unda mahalliy aholi bolalarini bilim olishi uchun pul yig'ib, mablag'larni maktablarga tarqatdi. Mazkur jamiyatning xayrli faoliyati to'g'risida Orenburgda chop etilayotgan "Vaqt" gazetasi ham yozib chiqqan edi.

Abdulla Avloniyning "Jamiyati xayriya" zaminida teatr havaskorlari "Turon" truppasi ochildi. "Turon" truppasi sahnalashtirgan birinchi asar Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush"i bo'ldi va bu 1914 yil 27 fevralda 2000 kishilik muhtasham "Kolizey" teatrida qo'yildi. Teatr kechasi "Padarkush" pyesasidan tashqari, ozarbayjon aktyorlaridan Aliasqar Asqarov, Gulzorxonim va M.S.Haxablovlar ijrosida bir pardalik ozarcha "Xo'r-xo'r" kulgu tomoshasi va yana "Milliy o'qish va jo'ralar" ham namoyish etilib, bunda sakkiz nomerlik kontsert ko'rsatilishi ma'lum bo'ldi. Mazkur kontserntda Mulla To'ychi Hofiz, mashhur raqqosa Qurbonxon, mulla Ahmadjon to'ra kabilar qatnashishi va keyin "Turkiston faryodi" va "To'y" nomli Abdulla Avloniy qalamiga mansub manzumalar jo'rlikda aytilgan. Teatr kechasi uchun mas'ul Abdulla Xo'ja o'g'li va rejissyor Aliasqar Asqarovlar edi. Umuman olganda 1914-1915 yillarda "Turon"ga tatar rejissyori Zaki Boyazidskiy va Mustafu Mansurovlar ijodiy jihatdan boshchilik qilganlar. "Turon" truppasi shu yillarda teatr san'atining yana bir janri, ya'ni musiqali drama bo'yicha ham ozarlar bilan hamkorlik rishtalarini o'rnatganlar. Toshkentga Abdulla Avloniy taklifiga binoan Ozarbayjonning mashhur tragik aktyori, rejissyor va xonanda Sidqiy Ruhillo boshchiligidagi ozar musiqali teatr truppasi gastrolga keladi. Bu truppa ozarbayjon musiqali dramasiining asoschilaridan bo'lgan Uzeyirbek Hoshimbekov bilan hamkorlikda "Layli va Majnun" (Fuzuliy dostoni asosida), "Asli va Karam" (ozar xalq milliy dostoni bo'yicha), "U o'lmasun, bu o'lsun" kabi qator musiqiy spektakllar yaratib, shuhrat qozongan edi. Ozarbayjon artistlarini Turkiston shaharlari bo'ylab, Toshkentdagi gastrollari katta ahamiyat kasb etdi. Abdulla Avloniy ozar Sidqiy Ruhillo bilan ijodiy hamkorlikka

¹⁶⁵ Mazkur "Жамияти хайрия" ўз олдида ночор, мухтож мусулмонларнинг моддий - маънафий ахволини яхшилаш, ёшларни мактабда ва сўнг чет элларга юборишнинг мақсад қилиб ўйган эди.

kirishib, natijada 1916 yil 30 dekabrda “Kolizey” teatrida¹⁶⁶ ozar va o'zbek aktyorlari ishtiroki bilan “Layli va Majnun” musiqiy dramasi namoyish etiladi. Spektakl librettorsini Avloniy ozar turkchasidan o'zbek turkchasiga tadbil etgan. Spektaklni Sidqiy Ruhillo sahnalashtiradi. Mazkur spektaklda asosiy rolni: Sidqiy Ruhillo tomonidan Majnun, Durriyatxonim – Layli, Abdulla Avloniy – Malu, A.Muharramov – Nafal, N.Xo'jaev, Farid Tohiriy, Yusuf Aliev kabilar ijro etgan. “Turon” truppasi o'z spektakllari bilan Turkistonning Qo'qon, Andijon, Namangan, O'sh shaharlarida spektakllar qo'ygani matbuot sahifalaridan o'rin olgan¹⁶⁷.

Abdulla Avloniyning madaniy-ma'rifiy faoliyati serqirra bo'lib, turk - musulmon xalqlari hamkorligi yo'lida “Turon” truppasi uchun “Advokatlik osonmi?”, “Pinak”, “Biz va Siz”, “Ikki sevgi”, “Po'rtugaliya inqilobi” kabi dramalar yozish bilan birga tatar va ozarbayjon tillaridan “Badbaxt kelin”, “Qotili Karima”, “Uy tarbiyasining bir shakli”, “Xiyonatkor oilasi”, “Xo'r-xo'r”, “Jaholat”, “O'liklar” asarlarini tarjima qildi. 1916 yilda Abdulla Avloniy tomonidan jadid, Mamadqulizodaning ozarbayjon tilida yozilgan “O'liklar” asarini o'zbek tili tarjima qilinib, Kolizey teatrida sahnaga qo'yildi. Bu ham turk - musulmon xalqlari o'rtasida madaniy aloqalar rivojidan dalolat beradi¹⁶⁸.

Lekin shuni qayd etish lozimki, turk - musulmon xalqlari asarlarini o'rganish, tarjima qilish, spektakllarni sahnaga qo'yish, matbuotda ilg'or g'oyalarni targ'ib qilish, gazeta – jurnallarni chop etish hamma vaqt va barcha tomonidan e'tirof etilavermagan... Ayniqsa, bu borada qadimchilar, jadidlardan farqli o'laroq, madaniyatda, ma'rifatda, matbuotda, ta'limda ilg'or g'oyalarga qarshi edilar. 1915 yilda Abdulla Avloniy mahalla ahli “domlamiz teatrchi”, domlamiz “masxaraboz” deb maktabdan quvdilar. Endilikda Abdulla Avloniy “Nashriyot”, “Maktab” kabi shirkatlar tuzishda bosh-qosh bo'ldi. 1917 yil fevral inqilobidan keyin “Turon” gazetasini chiqara boshladi. Gazeta o'z oldiga

¹⁶⁶ Бошқа бир маълумотларда дастлаб “Лайли ва Мажнун” спектакли Абдулла Авлоний уйида, “Турон” труппаси кўмагида қўйилган деб қайд этилади. Қаранг: Авлоний Абдулла Танланган асарлар... Б.13-14

¹⁶⁷ Авлоний Абдулла Танланган асарлар... Б.13-14

¹⁶⁸ Авлоний Абдулла Танланган асарлар... Б.14

musulmonlar orasida ko'p yillardan beri davom etib kelayotgan bid'at va odatlarga barham berish masalasini qo'ygan edi. Gazeta juda katta qiyinchiliklar bilan dunyo yuzini ko'radi. 2 – sonidayoq janjal chiqadi. Muharrir vazifasidan chetlatiladi. Mutassib ulamolar gazeta chop etishga jalb etilgan matbaachilar uylariga vakillar yuborib, “agarda siz Avloniy gazitesin matbaangizda bossangiz, o'lsangiz sizga janoza o'qutmasmiz” deb qo'rqitib gazetani yakkalab qo'yadilar. Abdulla Avloniy Tiflisdan “Mulla Nasriddin” matbaasidan harf va harf teruvchilar olib keladi. Lekin bu turk - musulmon hamkorligi samara bermaydi, chunki bunga yo'l qo'ymaydilar. Gazeta chop etilishiga qarshi “Ulamo” jamiyatining bu sa'y-harakatini qoralab, Andijon tatar musulmon “Jamiyati xayriya”si nomidan hofiz Yanbulatov, yoshlar nomidan Abdulhamid CHO'lponlar “Ulug' Turkiston” gazetasida noroziliklari chop etildi. O'z navbatida Orenburg va Ufada chiqib turgan gazeta va jurnallar ham bu voqeaga o'z munosabatlarini bildirib Abdulla Avloniyini himoya qilib chiqqanlar. Bu ham turk - musulmon xalqlarining ma'rifat yo'lida o'rnatilgan munosabatlaridan dalolat beradi¹⁶⁹.

Turk - musulmon xalqlarining o'zaro munosabatlarida maorif – ta'lim bo'yicha hamkorlik aloqalari ham muhim ahamiyatga molik hisoblanadi. Musulmon dunyosida Buxoro, Xiva, Samarqand madrasalari o'zining o'rniga ega bo'lib, Volgabo'yi, Uraloldi, Kavkazdan ko'plab turk - musulmon xalqlari diniy bilim olish uchun bu dargohlarga kelganlar. O'rta Osiyo shaharlaridagi madrasalarda bilim olishga intilish XIX asr o'rtalariga qadar Qozon, Ufa, Orenburg va boshqa hududlardan davom etgan. Buxoro, Xiva, Samarqand madrasalarida bilim olganlar o'z yurtlariga qaytib, Rossiya imperiyasi hududlaridagi madrasalarida ta'lim berish, masjidlarda imomlik qilish bilan shug'ullanib, aholi o'rtasida, millatdoshlari orasida O'rta Osiyoda olgan bilimlarini joylarda targ'ibot-tashviqoti, yoshlarni ma'naviy tarbiyasiga bag'ishlab, tushuntirish ishlarini olib borganlar. Bu borada, ayniqsa, o'z payida “Qubbut-ul-Islom”(Islom dinining gumbazi”) nomi bilan mashhur bo'lgan

¹⁶⁹ Авлоний Абдулла Танланган асарлар... Б.15-16

Buxro madrasalari peshqadamlik qilardi. Xususan, SH.Marjoniy va G.Kursaviy va boshqalar Buxoro madrasalarida olgan bilimlarini Rossiya musulmonlari yashaydigan hududlardagi madrasalarni islohiga bag'ishladilar. Oxir-oqibatda XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelganda tatar ma'rifatparvarlari yangi usuldagi maktablarni vujudga kelishida, matbaa – bosmaxonalar, teatrlar tashkil etishda, Turkiston madaniy hayotida muhim rol o'ynay boshladilar. SHarqshunos V.V.Bartold fikriga ko'ra, Volgabo'yi XIX asrda o'zining madaniy hayotini Kavkazga nisbatan Turkiston bilan ko'proq bog'lagan bo'lsa, xususan XIX asr birinchi yarmi va yana keyinroq ham Volgabo'yi musulmonlari hayotida Buxoro o'ziga xos markaz bo'lib xizmat qilgani, o'z navbatida XIX asr oxirlaridan esa rus va Yevropa madaniyati ta'sirida Turkistondagi dindoshlari uchun ma'rifatparvarlik g'oyalarini o'lka hayotiga singdirishda katta rol o'ynaganliklarini qayd etadi¹⁷⁰.

Rossiya tomonidan Turkistonni zabt etilishi o'lka xalqlarining madaniyati – ma'rifatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Rossiya o'zining manfaatlari yo'lida mustamlakachilik siyosatini yuritdi. Rossiya tomonidan Turkiston zabt etilgunga qadar o'lkada shakllangan (yaxshimi-yomonmi, zamon talabiga javob beradimi yoki ortda qolganmi, - bu keyingi masala – R.R.) eski maktab, otin oyi maktabi, masjid, madrasa, qorixona, dalolxonalar tizimi asosida ish yuritilar edi. Turkiston general-gubernatorligini tashkil topishi (1867) o'lka iqtisodi, savdo-sotig'i, harbiy siyosati holatinigina emas, balki butun bir maorif tizimini ham o'z nazoratiga oldi. Rossiya hukmron doiralari uchun tub aholining "savodliligi", bu aslida imperiya manfaatlariga zid bo'lishi mumkinligi, metropoliya nuqtai nazaridan to'g'ri kelmasligi tushunarli bir hol edi. Eng yaxshi variant Turkistonni ruslashtirish deb qaraldi. Masalan, bu borada dastlabki qadamlardan biri, Turkiston general-gubernatori, K.P. fon Kaufman (1867-1882) o'lkadagi diniy urf-odat, turli marosimlarga aralashmaslik asosida, ammo ayni paytda milliy maorifga nisbatan aralishish-ruslashtirish siyosatini

¹⁷⁰ Қаранг: Турдиев Ш. Среднеазиатские татары: роль и значение в культурной и политической жизни Туркестана первой четверти XX в. / Ислам в татарском мире... - С.169

maqsadga muvofiq deb topdi. Xususan, general-gubernator tomonidan Turkistondagi maorif tizimi nazoratga olinib, 1880 yil fevralida Rossiya imperiyasi Davlat Kengashida Turkistondagi yerli aholi bolalarini ruslar bilan birgalikda o'qitish masalasi ko'rib chiqildi. Mazkur Kengashda Turkiston musulmonlari dehqonchilikda suyagi qotganligi, savdo-sotiq ishlaridagi holatini ta'kidlanib, ular "imperiya-dagi boshqa musulmonlardan keskin ajralib turishlari" qayd etildi. Kengashning 1880 yilgi qarori Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufman uchun qo'l kelib, u tomonidan "rus va tuzemetslarning bolalarini birgalikda tarbiyalash" masalasiga e'tibor qaratish bilan birga "musulmon va rus maktablarini ajratib turish" ham iqtisodiy, ham siyosiy zarar deb hisobladi¹⁷¹.

1870 yilda Rossiya imperiyasi markazida joylardagi yerli aholini ruslashtirish maqsadida imperiya hududida "istiqomat qiluvchi g'ayritabaa (inorodtsy – R.R.) kishilarga ta'lim berish chora – tadbirlari to'g'risida" qonun qabul qildi. Ushbu qonun Turkiston, Volgabo'yi, Uraloldi, Kavkaz va boshqa mintaqalarda yashovchi turk - musulmon xalqlari aholisiga ham tegishli edi. Mazkur qonunning asl mohiyati tub aholiga ta'lim jarayoni ruslashtirishga qaratilishi qayd etildi. Turkiston general – gubernatori K.P. fon Kaufman tomonidan hukumatga 1873 yilda "Turkistonda xalq ta'limi va o'quv ishlarini tashkil etish rejasi"ni taqdim etildi. Unga ko'ra, diniy maktablarga qarama – qarshi ravishda yerli – tub aholi farzandlari uchun rus maktablari ochiladigan bo'ldi¹⁷². Bu ham ruslashtirish yo'lida amalga oshirilgan chora – tadbirlar dastlabkilaridan biri edi. Keyingi chora – tadbirlardan biri, 1875 yil 17 mayda Rossiya imperiyasi qaroriga asosan "Turkiston o'quv yurtlari boshqarmasi va o'quv yurtlari bosh inspektori" lavozimi ta'sis etildi. 1877 yili N.P.Ostroumov Turkiston xalq bilim yurtlari inspektori lavozimiga tayinlandi. Turkiston o'quv yurtlari boshqarmasi zimmasiga – vakolat doirasiga rus maktablari bilan bir

¹⁷¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Биринчи китоб. Тошкент, "Шарк", 2000 – Б.253

¹⁷² Биринчи рус мактаби Туркистон бўйича Тошкентда 1866 йили очилган – Р.Р.

qatorida milliy maktablar, ya'ni maktab, madrasa, qorixonalarni ustidan ham nazorat olib borish huquqi berildi¹⁷³.

Rossiya imperiyasi miqyosida turk - musulmon xalqlari hayotida muhim rol o'ynab kelgan madrasalar faoliyatiga salbiy munosabatda bo'lib kelingan. Xususan, imperiya maorif vazirining maslahatchisi N.I.Пьминский madrasalar dasturiga dunyoviy bilimlarni kiritilishi alohida milliy ongini uyg'onishiga turtki beradi, shuning uchun ham "... madrasalarni isloh etish kerak emas, aksincha, hech qanday e'tibor bermasdan va ularga qarama-qarshi holda zamonaviy bilim beradigan rus maktablarini ochish lozim" deb ta'kidlaydi. Natijada Turkiston uchun mazkur masala yanada dolzarbroq bo'lib ko'zga tashlana boshladi. SHundan keyin bu yanada ahamiyatga molik deb topilib, davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va Turkistonda navbatdagi general-gubernator N.O.Rozenbax tomoni (1884-1889)dan rus-tuzem maktabiga asos solindi. Birinchi rus-tuzem maktabi 1884 yil 18 dekabrda Toshkentning eski shahar qismida ochildi va bu XIX asr oxirlarigacha yuzdan oshib ketdi¹⁷⁴. Aslida rus – tuzem maktablarini ochish tashabbusi Sirdaryo viloyat harbiy gubernatori Grodekovga tegishli bo'lib, u general – gubernator N.O.Rozenbax yuborgan bildirishida “erli aholi bolalarini, turli chor – tadbirlar ko'rilganiga qaramay, yetarli miqyosda ruschani o'rganishga jalb qilib bo'lmayapti... Toshkentning eski shahar qismida rus va tuzem tillarini majburiy tarzda o'rganishga asoslangan maktab ochish maqsadga muvofiq” – deydi¹⁷⁵. Ushbu keltirilgan fikriga tasdiq – dalil sifatida shaharning “osi (eski shaharni nazarda tutgan – R.R.) qismida yerli aholining ayollari hamda bolalari uchun ambulatoriya ochilgan”. Ushbu ambulatoriya yaxshi ishlamayapti, “chunki yerli aholi o'rtasida joylashgan”, - deydi. U o'z fikrini davom ettirib, agar biz Toshkentni eski shahar qismida yerli aholi bolalari uchun rus maktabini osadigan bo'lsak,

¹⁷³ Комилов О. Ўзбекистон миллий таълимидаги ўзгаришлар (XX асрнинг 20-йиллари). Тошкент “Академикнашр”, 2010 – Б.7

¹⁷⁴ Комилов О. Ўзбекистон миллий таълимидаги ўзгаришлар (XX асрнинг 20-йиллари). Тошкент “Академикнашр”, 2010 – Б.9; Ўзбекистоннинг янги тарихи. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Биринчи китоб. Тошкент, “Шарк”, 2000 – Б.253

¹⁷⁵ Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917 гг.) Т.: “Фан”, 1997. – С.171

unda “maktab ham shunday muvaffaqiyatli bo’ladi va o’zbeklarni ruslashtirish masalasi hal bo’ladi”, - deb qayd etadi¹⁷⁶.

Rossiya o’z mustamlakachilik siyosatini yanada mustahkamlash, ruslashtirish g’oyasini hayotga tatbiq etish uchun rus – tuzem maktablarini ko’paytirish o’lkaga kirib kelayotgan jadidchilik g’oyalariga, turk - musulmon xalqlari hamkorligi asosidagi yangi usul maktablariga qarshi kurash turlaridan biri hisoblanardi. Yerli aholi tomonidan o’z farzandlarini rus – tuzem maktablariga berishini, amalda ruslashtirish yo’lidagi qadamni, ma’lum darjada general – gubernatorlik tomonidan moddiy qo’llab – quvvatlash ishlari ham olib borilgan. 1886 yili Toshkent uezdida yerli aholi tomonidan farzandlarini rus – tuzem maktabiga berganlari uchun 25 rubldan 50 rublgacha mablag’ bilan rag’batlantirishlar ham yerli aholini rus – tuzem maktablariga o’z farzandlarini ommaviy berishga olib kelmagan. Masalan XX asr boshlarida Turkistondagi 100 ta atrofidagi rus – uzem maktabida 2800 dan ortiq mahalliy bolalar o’qigan bo’lsa, 1916 yili mazkur rus – tuzem maktablarini 105 nafar bolalar tugatgan xolos¹⁷⁷.

Yuqorida keltirilgan sabablardan tashqari yerli aholi uchun farzandlarini rus – tuzem maktablarida o’qitish ularning ruhiyatiga dunyoqarashiga salbiy ta’sir ko’rsatishi, oxir – oqibatda ruslashib ketishi mumkin degan xavfsirash XIX asr oxiri – XX asr boshlarida haqiqatga yaqin edi. Masalan, “Turkistanskie vedomosti” gazetasining 1902 yilgi sonlaridan birida “ rus – tuzem maktabidan oxirgi maqsad... bolalarni imkon qadar rus tiliga o’rgatish va hatto ruscha o’ylashga” ham olib ketish ekanligi ta’kidlangan¹⁷⁸.

Keltirilgan misollar shundan dalolat beradiki, haqiqatan ham Rossiyaning turk - musulmon xalqlarini ruslashtirishga qaratilgan, rus-tuzem maktablari faoliyati bilan bog’liq bu harakat va yana gimnaziya, seminariya, harbiy bilim

¹⁷⁶ Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917 гг.) Т.: “ART FLEX”, 2009. – С.188

¹⁷⁷ Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917 гг.) Т.: “Фан”, 1997. – С.17.,177; Унинг ўзи. Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917 гг.) Т.: “ART FLEX”, 2009. – С.190,194

¹⁷⁸ Национальная политика ... С.176; С. 193

yurtlari kabi ma'rifiy muassasalarni ochilishi hamda bu yerda rus bolalari bilan birga o'zbek bolalarini o'qita boshlanishi – amalda ruslashtirish siyosatiga bog'liq edi. Ana shu rus – tuzem maktablarida ta'lim berishni joriy etishdan maqsad, chorizmni joylardagi sadoqatli gumashtalarini, kichik-kichik xizmatga tayyor – dastyorlarini, tilmochlarni tayyorlashga qaratilgan edi. Boz ustiga rus – tuzem maktablarida o'qitish usuli juda sayoz edi va buni rus ziyolilari, xususan akademik V.V.Bartold ham tan olib, Samarqanddagi “rus – tuzem va sof ruscha maktablardan hech biri ruscha yozish u yoqda tursin, hatto to'g'ri o'qiy oladigan birorta ham mahalliy xalq kishisini yetishtirgani yo'q” – deydi¹⁷⁹. Rus – tuzem maktablariga o'z munosabatini bildirib, Mahmudxo'ja Behbudiy: “Russkiy – tuzemniy maktablarig'a o'qiganlar ziyoli tugul, xiyoli hisoblanmaydurlar. Ular faqat ruscha chalasavod kishilardir” – deydi¹⁸⁰.

Umuman turk - musulmon xalqlari qismatiga tushgan mustamlakachilik ahvoli aholini maorif huquqidan ham mahrum etdi. Rus maktablarini turk - musulmon xalqlari hayotida tutgan o'rniga Ismoil Gasprali 1881 yili e'lon qilgan “Rus musulmonligi” asarida rus maktablari tatarlar uchun bir o'lik muassasa kabidir – buni uning nazariy jihatdan quvvatlangan amaliyoti ham isbot etmoqda” – degan edi¹⁸¹.

Turk - musulmon dunyosida yuzaga kelgan yangi usul maktablari va Turkistonda tashkil topgan rus – tuzem maktablari davriyligi jihatdan deyarli bir paytga to'g'ri kelgan. Turkistonda yangi usulda maktablar, rus – tuzem maktablari bilan bir qatorda, XIX asr 80 yillarida o'lkaning Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand viloyatlarida 5 mingdan kam bo'lmagan musulmon maktablari faoliyat yuritib, ularda 46 ming atrofida o'quvchilar bilim olgan. 1907 yilga o'quvchilar soni 7 ming, o'quvchilar 70 ming nafarni, 1916 yilga kelganda tegishli tarzda 76650 nafat va zquvchilar 110 ming nafarni tashkil qilgan. SHuningdek, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda 400 ga yaqin

¹⁷⁹ Ризаев Ш. Жадид драмаси... – Б.39.

¹⁸⁰ Ризаев Ш. Жадид драмаси... – Б.39.

¹⁸¹ Қосимов Б. Исмоилбек Гаспирали Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа бирлашмаси, 1992 – Б.24

madrasa mavjud bo'lgan edi. 1899 yilda Samarqand , Farg'ona va Sirdaryo viloyatlarida qorixonalar soni 333 ta bo'lgan. Bundan tashqari yosh katta o'quvchilar uchun o'lkada daloilxonalar ham tashkil qilingan bo'lib, XX asr boshlarida Turkistonda jami 10 ga yaqin daloilxonalarda 100 nafarga yaqin o'quvchilar tahsil olgan¹⁸².

Turkiston hududidagi maktab va madrasalarda o'qitish tizimi o'n – yuz yillar davmida shakllangan an'anlarga tayanib amalga oshirilgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Qo'qon xonligida maktablar ikki xil bo'lgan:

1. Quyi maktablar, asosan masjidlarda faoliyat olib organ.
2. Yuqori maktablar, faqat shaharlarda, katta qishloqlarda faoliyat yuritgan.

Maktablar faoliyat xususiyatiga ko'ra jamoat, xususiy, shahar, va qisholq maktablariga bo'lingan. Maktablar o'quvchilar soniga ko'ra uch turkumga: birinchisi 10 taga, ikkinchisi 10-15 tagacha, uchinchisi 15-25 tagacha o'quvchilar ta'lim oladigan maktablar. SHuningdek, ayrim maktablarda yosh balog'atga yetmagan o'g'il bolalar va qizlar domullo yoki otinoyilar tomonidan birgalikda, o'z xonadonlarida o'qitgan. Madrasalar uchta katta turga bo'lingan: xon madrasalari, eshon madrasalari, mulkdorlar qoldirgan madrasalar. Madrasalarda ta'lim adno (quyi), avsat (o'rta), a'lo (yuqori) bosqichlarda olib borilgan. Madrasalarda har bir bosqichda qancha muddat o'qish qat'iy belgilanmagan. Bu ko'proq talabaning qobiliyati va mudarrisga bog'liq bo'lgan. Odatda, bir bosqichda 3- 4 yil o'qilgan bo'lsa – da, ayrim hollarda, turli sabablarga ko'ra 10 yillab bir bosqichda qolib ketgan talabalar ham bo'lgan. Umuman maktab va madrasalardagi o'qish va o'qitish va tartibi yillar davomida shakllangan an'anlardan chiqq olmas, ta'lim tizimi isloh qilish fursati kelganini his qilinmas edi¹⁸³.

¹⁸² Қодиров Н.Н. Туркистон ўлкасидаги рус таълим муассасалари тарихи (1867-1917 йй.) Тарих фан номз. илм. дар. олиш учун автореф. Тошкент, 2011. – Б.14-15

¹⁸³ Алихожиев М.О. Қўқон хонлигининг маданий ҳаётида мактаб ва мадрасаларнинг тугган ўрни (1800-1876 йй.). Тарих фан. номз. автореферати. Тошкент, 2012. – Б. 15,17

Yuqorida Turkiston misolida keltirilgan tarixiy dalillardan ko'rinib turibdiki, turk - musulmon dunyosida, xususan Rossiya imperiyasi tarkibidagi musulmonlar yashaydigan hududlarda ta'lim tizimini zamonaviylashtirish, islohotlar o'tkazish masalasi ku tartibiga qo'yilmagan. Ta'lim tizimi Rossiyada achinarli ahvolda edi. Masalan, Rossiya imperiyasi markaziy guberniyalarida, Kavkazorti, Turkiston va boshqa hududlarda turli millatlar istiqomat qiladigan rayonlarda xalq ta'limini rivojlantirishga "jon kuydirmagan"lar. Xususan, XIX asr oxiridagi ma'lumotlarga ko'ra Rossiyaning Yevropa qismida bitta boshlang'ich o'quv yurtiga o'rtacha 1580 nafar aholi, Kovenskda 6257, Kavkazda – 1968, Sibirda – 2600, Turkistonda – 31958 nafar aholi to'g'ri kelgan¹⁸⁴. Boz ustiga turk - musulmon xalqlari ta'lim tizimida isloh masalasi Rossiya imperiyasi ma'muriyatini ma'lum darajada cho'chitgan. Xususan, Turkiston o'quv yurtlari boshqarmasi 1897 yil 22 dekabrda o'lka viloyatlaridagi harbiy gubernatorlariga maxsus xat yo'llab, o'z hududlarida faoliyat olib borayotgan tatar muallimlari haqida ma'lumot berishlarini so'rgan. 1898 yil 29 yanvarda Qo'qon uezdi boshlig'i tomonidan yuborilgan javob hatida Qo'qon shahrida Ufa guberniyasidan kelgan tatar muallimi Muhammad SHokir Sulaymon 7 nafar bolani, Namangan uezdi boshlig'ining 1898 yil 1 avgustdagi javob xatida Namangan shahrida Mulla Qoraboy Bashirov Sardoba dahasidagi Oqqoshboy masjidida 19 nafar bolani, Izzatulla qori Taxmullaboev CHuqurcha dahasida 10 nafar tatar, 100 nafar o'zbek bolalarini o'z uyida o'qitayotganliklari to'g'risida ma'lumot berilgan¹⁸⁵. Turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi hamkorlik xususan tatar ma'rifatparvarlarining o'lkadagi faoliyati general – gubernatorlik ma'muryatining diiqat markazida bo'lib kelgan. Nazorat otstida turk - musulmon ziyolilari, ma'rifatparvarlari alohida "o'rin" egallagan. O'z paytida N.P.Ostroumov: "Olimlardan va o'ta bilimli o'qituvchilardan ehtiyot bo'linglar. O'ta odobli va faqat dinga ishongan oddiy kishilarga qaraganda

¹⁸⁴ Рахимов С. Социально – правовой статус татарских учебных заведений последней четверти XVIII – нач. XX вв. / Ислам в татарском мире: история и современность (Материалы международного симпозиума, Казань 29 апреля – 1 мая 1996 г.), Казань, 1997. – С.71

¹⁸⁵ Исоқбоев А. Фарғона водийсида янги усул мактабларини ташкил этишдаги ҳамкорлик алоқалари тарихидан – Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда, Фарғона, 2012 – Б. 196-197

ularni jud qattiq kuzatuv ostiga olinglar” degan o’gitlariga rioya qildi. Rus missionerlari, Turkiston general – gubernatorligi amaldorlari, ayniqsa Turkiston rayon muxofaza bo’limi (TRMB) xodimlari turk - musulmon xalqlari o’rtasidagi siyosiy, madaniy-ma’rifiy munosabatlarni qattiq nazorat ostida tutishga harakat qildilar. Chunki turk - musulmon xalqlari o’rtasidagi munosabatlarni rivojlanishi Turkiston xalqlarining ijtimoiy- siyosiy ongini oshishiga, madaniy va ma’rifiy hayotida o’zgarishlar bo’lishiga olib kelishi mustamlakachilik davlati manfaatlariga zid kelardi. Shu sababdan ham, turk - musulmon xalqlari o’rtasidagi aloqalar to’g’risida maxfiy materiallar to’plash va tegishli tashkilotlarga yetkazish, mazkur masalalarda yashirin tavsiyalar berish ishlari avj oldi. Masalan, 1909 yili Turkiston bosh o’quv inspektoriga yuborilgan bildirishda Simbirsk guberniyasidan, tatar millatiga mansub Salohiddin Mazitov¹⁸⁶ 1899 yili Ryazan guberniyasi Qosimov uezdida №Muhammad Orif Bektermirov” madrasasini tamomlab, mulla sifatida guvohnomasi bilan 10 yil davomida Qo’qonda dars berayotgani qayd etilgan. Bildirishda S. Mazitov rus tilini yaxshi bilmasligi va bu til bo’yicha “hech qanaqa kurs tugatmaganligi sababli... tatar millatiga mansubligi uchun” 1908 yil 3 noyabrda unga Qo’qon shahrida yerli aholi bolalarini musulmonchasiga va ruschasiga savodini chiqarish bo’yicha” maktab ochish berilgan taqdimot – so’rovi oqibatsiz qoldirilishi so’ralgan¹⁸⁷.

Albatta, joylarda tashkil qilinayotgan yangi usul maktablari mohiyatiga ko’ra, yevropoid va milliy g’oyalarni o’zida mujassamlashtirishgan edi. Yangi maktablar tashkil topishi O’rta Osiyoga Rossiya imperiyasida musulmon – turkiy xalqlar yashaydigan mintaqalardan ilg’or g’oyalar – ozodlik hissiyotini

¹⁸⁶ Салоҳитдин Мазитов (Мажидов) XIX аср охири – XX аср бошларида Қўқонда яшаган татар маърифатпарвари ва педагоги. Дастиаб шу ердаги татар болалари учун янги усул бошланғич мактабини очган ва муаллимлик қилган. Қўқонга келган илк кунларидан бошлаб бу ердаги илғор шоир ва мударрислар, хонанда ва созандалар билан яқиндан таниша бошлаган. Бу ерда биринчи бўлиб замонавий мактаб очиб, бошқа ўзбек муаллимларига таъсир кўрсатгани учун унинг мактаби зарарли ҳисобланиб, хурофий – диний кишилар томонидан бузиб юборилган. Шунга қарамасдан, у яна ўз мактабини тиклаб шу ерда ишлаган. Қаранг: Хужжатлар ва материаллар / Тарихнинг номаълум саҳифалари. Т: “ОҚИТУВЧИ”, III китоб 2012. – Б.124

¹⁸⁷ Хужжатлар ва материаллар / Тарихнинг номаълум саҳифалари. Т: “ОҚИТУВЧИ”, III китоб 2012. – Б.94-95

ham olib kelgan. Bu esa mustamlaka podsho Rossiyasi ma'muriyatini hushyorlikka, maktablar faoliyatini, turkiy xalqlar hamkorligini yaxshilab kuzatib borishga undardi. CHor Rossiyasi ma'muriyati yangi usuldagi maktablar rus madaniyatini tarqatishga qarshi xizmat qilishi mumkinligidan o'z xavfsirashini bildiradi¹⁸⁸.

O'zaro munosabatlardan xavfsirash oxir – oqibatda ta'qib va tazyiqlarni, qat'iy nazorat ostiga olishni ham keltirib chiqargan. Bu turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi ma'rifat yo'lidagi munosabatlar o'ziga xosligi, ayrim hollarda murakkabligi hamda ziddiyatli jarayonda bo'lganligi bilan ham ko'zga tashlanadi. Masalan, 1909 yilgi “Oliya” (Ufa) madrasasi bitiruvchilaridan Bulat (Po'lat) Soliev¹⁸⁹ va Muxtor Ibrohimov hamda boshqa muallimlar Toshkent uezdi qishloqlarida dars berganlar. Ammo ma'rifat yo'lidagi bu missiya o'ziga xos qiyinchiliklarni ham o'z ichiga olgan. Xususan, ularning sa'y-harakatlari Turkiston rayon muxofaza bo'limi (TRMB) tomonidan muntazam ta'qib qilib yurilgan. TRMB “e'tibori”dan uzoqroqda bo'lib uchun B.Soliev va M.Ibrohimovlar o'zbek bolalarini o'qitishda o'zbek milliy kiyimlarini kiyib, o'zbek tilini yaxshi bilganliklari uchun o'zlarini o'zbek deb ko'rsatganlar¹⁹⁰.

Ammo yana shuni ta'kidlash joizki, o'zaro hamkorlik bilan sa'y – harakatlar, turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi madaniy – ma'rifiy munosabatlar ma'lum bir qarshiliklar, taqiq va tazyiqlarni ham chetlab o'tmagan. Masalan, o'zaro munosabatlar, boshqa masalalari qatori Rossiya imperiyasi tomonidan 1908 yili graf Palen boshchiligida tuzilgan taftish komissiyasi diqqat – e'tiborida bo'ldi. Mazkur taftish komissiyani jadid

¹⁸⁸ Абдуллаев Р.М. Просветительское и реформаторское движение в Фергане после российского завоевание / Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда. II Республика илмий анжумани. Фарғона. – С.160-170

¹⁸⁹ Пулат (Бекбулат) Солиев 1822 йил Астраханда туғилган. Унинг отаси Бухородан бўлган. Қозондаги Мухаммадия, Уфадаги Олия мадрасаларида таълим олган. Унга мударрислик таклиф қилинганда, Туркистонда маърифат йўлида меҳнат қилишини билдирган. 1909 йилдан Туркистонда маърифат ишларида фаолият олиб борган. Тошкентнинг Оққўрғон туманида биринчи бўлиб янги усул мактаб очган. У Мирзачўлда, Жалолобда ҳам мактаблар очган. 1913 йили Тошкентда биринчи рус – татар мактабини очган. Кейин Бекобод, Қўқонда мактабларда фаолият юритган. Кенгроқ маълумот олиш учун қаранг: Темиров Ф. Пулат Солиев . Т.: “ABU MATBUOT-KONSALT”, 2011

¹⁹⁰ Қаранг: Турдиев Ш. Среднеазиатские татары: рол и значение в культурной и политической жизни... - С.170-171

maktablarida tatarlarni dars berishi, Qozon va Istanbulda chop etilgan darsliklar asosida, rasmiy tsenzuradan o'tmagan holda o'qitilishi xavotirga soldi. Boz ustiga, taftish komissiyasi fikriga ko'ra, mazkur darsliklarda "xavfli" bo'lgan panislom va panturk g'oyalari turkiy xalqlarga o'qitilgan. Maxsus taftish komissiyasining tashvishlarga to'la xulosasi asosida ko'plab jadid maktablari bekitilib, yangi usuldagi maktab tarafdorlarning faollari tazyiq ostiga olina boshlandi. Jadidchilik harakatiga qarshi kurashning uslublaridan biri bo'lib, o'lkada rus va rus – tuzem maktablarini ko'paytirishga harakat kuchaydi¹⁹¹.

Haqli ravishda ta'kidlash joizki, turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi madaniy-ma'rifiy munosabatlar, har qancha taqiq va tazyiqlarga qaramasdan o'z rivojini topdi. Xususan, yangi usul maktablarida o'qitish bilan mahalliy ziyolilar ham shug'ullana boshladilar. Ushbu fikrga, Turkiston jadidchilik harakatining taniqli namoyondalaridan biri Abdulla Avloniyning 1900 yilda o'z tarjimai holida keltirgan quyidagi fikrlari ma'lum darajada asos bo'la oladi: "Shul zamonlarda Rusiyaning turli shaharlarida chiqqan matbuot – gazeta va jurnal bilan tanishib, o'qib ma'lumotimni orttira bordim. "Tarjimon" gazetasini o'qib, zamondan xabardor bo'ldim. SHul zamonda yerli xalqlar orasida eskilik – yangilik janjali boshlandi. Gazeta o'quvchilarini mullalar "jadidchi" nomi bilan atar edi. Men ham shu jadidchilar to'dasida ishlay boshladim. "Jadid maktabi" ochib o'qituvchilik qila boshladi"¹⁹².

Turkistondagi madaniy – ma'rifiy munosabatlar, "...islohotchilik va maktablar rivojini I.Gaspriskiy va Ufa, Qozon ziyolilari bilan bog'liqlikda...", - deyish bilan birga, N.Likoshin tomonidan o'zaro munosabatlar masalasiga to'xtalib, "... toshkentlik musiqachilarning Nijniy Novgoroddagi Umumrossiya ko'rgazmasiga tashriflari haqida ma'lumotlar" berib, o'lka musiqachilari u yerda

¹⁹¹ Абдуллаев Р.М. Просветительское и реформаторское движение в Фергане после российского завоевание / Фарғона водийси тарихи янги таджикотларда. II Республика илмий анжумани. Фарғона. – С.168-169

¹⁹² Каримов Н. XX аср бошларидаги тарихий вазият ва жадидчилик ҳаракатининг вужудга келиши / Жадидчилик ва миллий истиқлол тантанаси ("Туркистонда жадидчилик ҳаракати ва мустақил Ўзбекистоннинг миллий истиқлол ғояси" мавзuidaги республика илмий – амалий конференцияси материаллари) Т.; 2002. – Б – 51-52

“yuzlab kuylarni ijro etganliklari, har bir musiqachi ikki – uch musiqiy asbobda kuy chala olishi, har bir motiv alohida tadqiq etish zarur”, - deb e’tirof etgan¹⁹³.

Turk - musulmon xalqlari madaniyati, ma’rifati va ularning tutgan o’rni bo’yicha rus ma’rifatparvarlari o’z munosabatini bildirib, “... rus musulmonlari orasida eng taraqqiyparvarlari Povoljye, so’ngra Qrim tatarlar va kavkazliklar”, - deydi¹⁹⁴.

Turkistondagi madaniy – ma’rifiy munosabatlar, “...islohotchilik va maktablar rivojini I.Gasprali va Ufa, Qozon ziyolilari bilan bog’liqlikda...”, - deyish bilan birga, N.Likashin tomonidan o’zaro munosabatlar masalasida to’xtalib, “... toshkentlik musiqachilarning Nijniy Novgoroddagi Umumrossiya ko’rgazmasiga tashriflari haqida ma’lumotlar” berib, o’lka musiqachilari u yerda “yuzlab kuylarni ijro etganliklari, har bir musiqachi ikki – uch musiqiy asbobda kuy chala olishi, har bir motiv alohida tadqiq etish zarur”, - deb e’tirof etgan¹⁹⁵.

Turk - musulmon xalqlari madaniyati, ma’rifati va ularning tutgan o’rni bo’yicha rus ma’rifatparvarlari o’z munosabatini bildirib, “... rus musulmonlari orasida eng taraqqiyparvarlari Povoljye, so’ngra Qrim tatarlari va kavkazliklar” deydi¹⁹⁶.

“Tarjimon” gazetasi turk - musulmon xalqlari tarixi misolida saboq chiqarishga, tegishli xulosalar orqali aholini hushyorlikka tortishiga umid uyg’otadi. Bu bilan turk - musulmon xalqlari o’z rahnamolari: amir, xonlar aslida kim ekanliklarini ko’rsatadilar. Masalan, Rossiya bosqiniga duchor bo’lgan Turkiston taqdiri haqida “Tarjimon” gazetasida quyidagilar yoziladi: “... Turkiston xonlari va umarosi shu darajada g’ofil va bexabar edilarki, rus to’plari boshlari ustidan portlaganidan so’nggina “Bu nima?” dedilar... Rus qo’shini bosqichma – bosqich sahrolarni bosib o’tib, qal’alarni qo’lga kirita

¹⁹³ Мустафаева Н. XX асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур. Тарихшунослик таҳлили. Т.:“NAVRO’Z”, 2014. – Б. 71,84

¹⁹⁴ Мустафаева Н. XX асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур. Тарихшунослик таҳлили. Т.:“NAVRO’Z”, 2014. – Б. 84

¹⁹⁵ Мустафаева Н. XX асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур. Тарихшунослик таҳлили. Т.: “Navro’z”, 2014. – Б. 71,84

¹⁹⁶ Мустафаева Н. XX асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур. Тарихшунослик таҳлили. Т.: “Navro’z”, 2014. – Б. 84

boshlagan paytda, xonlar bir-biri bilan janjallashib yotar, daryo-daryo musulmon qoni oqayotgan edi. Qora qushlar kelib, Toshkand, Samarqand minoralariga qo'nganida, ularni o'chirib yubormoqqa yaraydigan na biror to'p, na biror miltiq topilmadi. Hozirda bir "nachalnik" to'ra kichkina bir simsilog'i bilan butun Turkistonni urchuqdek aylantira oladi... Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalar, aslida achchiq haqiqat edi. Gazeta orqali turkiy xalqlarning achchiq qismati, hukmron doiralarning qay darajada mamlakat mudofaasiga tayyor bo'lmaganligi ko'rsatib o'tiladi¹⁹⁷.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, turk – musulmon xalqlari o'rtasidagi ijtimoiy – siyosiy munosabatlar Rosssiya davlat dumasida faoliyat yuritgan musulmonlar fraktsiyasining sa'y-harakatida ham ko'zga tashlanadi. Davlat dumasi minbaridan turk – musulmon xalqlari manfaati, ularning hayotiy qiziqishlari, siyosiy kamsitishlari, huquqlari himoyasi yo'lida foydalanilgan. Shuningdek, turk – musulmon xalqlari o'rtasidagi madaniy – ma'rifiy munosabatlar, xususan Turkistonda teatrchilikni vujudga kelishida, milliy matbuotni yuzaga kelishida tatar va ozarbayjon xalqlarining o'lkada tutgan o'rni, maorifni rivojlanishida qo'shgan xissalari keng qamrovli adabiyotlar tahlili asosida ochib berilganligini ta'kidlash lozim.

¹⁹⁷ Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. Т.: “Маънавият”, 2002 – Б.45

Xulosa

Rossiya imperiyasi tarkibidagi turli millatlar ichida turk - musulmon xalqlari nafaqat son jihatdan, balki ko'p asrlik taraqqiyot bosqichlarini o'tagani, tili, dini, mentalitetiga ko'ra ham o'ziga xos ahamiyat kasb etgan. Ta'kidlash joizki, turk - musulmon xalqlari Rossiya ta'sir doirasida bo'lgan paytlari, tarixiy shart – sharoitlar tufayli, ancha – muncha taraqqiyotdan ortda qolgan bo'lsalar – da, aslida dunyo tsivilizatsiyasiga munosib allomalarni yetishtirib bergan, jahon taraqqiyotida: dinda, ilmda olamga mashhur qomusiy bilim sohiblarini yetishtirgan mintaqa hisoblanardi. Ammo turk - musulmon xalqlaridagi shijoat, g'ayrat va tashabbus ma'lum bir davrlarda o'zaro aloqalarni susayishiga, o'z qobig'iga o'zi o'ranib, islomdagi fazilatlar o'rniga qabohat botqog'iga botishiga olib keldi. Madaniyat va ma'rifat chirog'i sharqda nur sochganiga qaramasdan, asta – sekin dunyoviy ilmlarni o'rganishga Yevropaga o'rni bo'shatib bera boshladilar. Ilm – fan cho'qqilariga intilish Yevropadan orqada qola boshladi.

Turk - musulmon xalqlarining milliy uyg'onish davri haqli ravishda Ismoil Gaspralining madaniy – ma'rifiy islohotlari bilan bog'liq bo'ldi. Dastlab turk - musulmon xalqlari maorifida islohotni o'ziga bosh maqsad qilib qo'ygan bu sa'y – harakat, oxir – oqibatda asrlar davomida eski an'analarga sodiq bo'lib kelgan qadimchilar bilan keskin kurashda ko'zga tashlanadi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yangilik (jadidchilar) bilan eskilik (qadimchilar) o'zaro kurashda faoliyat yuritdilar Qrimda boshlangan jadidchilik harakati dastlab asta – sekin, keyinroq esa tez va shiddat bilan Kavkazda, Turkiston, Buxoro, Xivada yoyila boshladi. Jadidchilik harakatini keng yoyilishida 1883 yili Boqchasaroyda “Tarjimon” gazetasini chop etila boshlagani va tarqatilgani muhim ahamiyat kasb etgan. Bundan tashqari Ismoil Gaspralining o'zi Qozonda va ko'p yillar Nijniy Novgoroddagi yarmarkada Turkiston va Buxoroda bir necha marta bo'lishi, yangi usuldagi maktablarni joriy etishda joylardagi turk - musulmon ma'rifatparvarlari bilan aloqalar o'rnatishi katta ahamiyat kasb etgan. Ismoil Gasprali asosiy e'tiborni imperiya tarkibi va ta'sir doirasiga “hohishiy” – majburiy tarzda kiritilgan, tili, diniy e'tiqodi, madaniy – ma'rifiy ahvoli bir –

biriga yaqin bo'lgan turk - musulmon xalqlari ma'rifatini isloh qilishni eng muhim vazifalar qatoriga qo'ydi. U turk - musulmon xalqlari ilm – ma'rifatda, madaniyatda, o'z haq – huquqlarni tanish va himoya qila olishda, ijtimoiy – siyosiy jarayonlarda dunyoning boshqa xalqlaridan qolishmasligini, ongi – shuuri, salohiyati bilan jahon tsivilizatsiyasida yorqin yulduz bo'lib tanilgan buyuk allomalarni yetkazib bergani, kerak bo'lsa, o'zaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yib yanada katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkinligini qayd etdi. Buning uchun eng asosiy masala bo'lib, turk - musulmon xalqlari birgalikda ma'rifatni chuqurroq egallashi lozimligini ta'kidladi.

Ismoil Gasprali turk - musulmon xalqlari ma'rifati yo'lida Turkiston general – gubernatorligi ma'muriyati, N.P.Ostroumov, qadimchilar tomonidan “do'stona” kutib olinmaganiga qaramasdan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ishoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, So'fizoda, Ubaydulla Asadullaxo'jaev va boshqa millat ravnaqiga befarq bo'lmaganlar tomonidan qo'llab – quvvatlandi hamda joylarda yangi usuldagi maktablar ochildi. Ismoil Gaspralini ma'rifat yo'lidagi islohoti Qozonda Sh. Marjoniy, O. Barudiylar tomonidan ham qo'llab – quvvatlandi. O'z navbatida, Boqchasaroy, Ufa, Qozon, Tiflis, Orenburg, Turkiyada chop etilgan gazeta – jurnallar, kitoblarni turk - musulmon xalqlari o'rtasida tarqalishi o'zaro madaniy – ma'rifiy munosabatlar rivoji, taraqqiyot omili uchun xizmat qildi. Shu o'rinda jadid maktabalirni turk - musulmon xalqlari o'rtasida keng yoyilishida tatar muallimlarining faolligi muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Tatarlarni turk - musulmon xalqlari ma'rifati yo'lida tutgan o'rniga berilgan bahoda, ular “... rus musulmonlari orasida eng taraqqiyparvarlari bo'lgan Povoljъe, so'ngra Qrim tatarlari va kavkazliklar” deyiladi¹⁹⁸.

Turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar XIX asr oxiri XX asr boshlarida quyidagi yo'nalishlarda olib borildi:

¹⁹⁸ ¹⁹⁸ Мустафаева Н. XX асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур. Тарихшунослик таҳлили. Т.: “Navro'z”, 2014. – Б. 84

1. Ismoil Gasprali tomonidan imperiya tarkibidagi turk - musulmon xalqlari orasida ma'rifat yo'lida islohotlar o'tkazish bo'yicha ham nazariy, ham amaliy ishlar amalga oshirildi.

2. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Boqchasaroyda chop etilgan “Tarjimon” gazetasi orqali turk - musulmon xalqlarini madaniy – ma'rifiy ahvoli, o'zaro hakorlik aloqalari targ'ib qilindi.

3. Jadidchilik harakati Rossiya imperiyasi hududida istiqomat qilayotgan xalqlar orasida ma'lum qarshiliklarga, ziddiyatlarga qaramay keng tarqaldi.

4. Qozon, Ufa, Orenburg, Boqchasaroydan tatar muallimlari Toshkent, Qo'qon, Namangan, Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa shaharlarga kelib yangi usul maktablari ochib, faoliyat yurita boshladilar.

5. Zakiy Validiy To'g'on Turkistonda dastlab ilmiy va keyin ijtimoiy – siyosiy jarayonlarda o'zaro munosabatlarni rivojida faol ishtirok etdi.

6. Rossiya Davlat dumasi Musulmonlar fraktsiyasi deputatlari tomonidan turk - musulmon xalqlari ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy ahvolini o'rganib, ularning muammolarini Duma minbaridan foydalangan holda imperiya ma'muriyatiga yetkazish amalga oshirildi.

7. Turkistonda ozarbayjon, tatarlar tomonidan Turkistonda teatr ishlari yo'lga qo'yilishida, spektakllarda rollar o'ynashda, “Sayyor”, “Nur” truppalarning gastrollarini o'lka shaharlari bo'ylab tomoshalar ko'rsatishida hamkorlik aloqalari o'rnatildi.

Rossiya imperiyasi tarkibidagi turk - musulmon xalqlari o'rtasidagi munosabatlarni tadqiqot davri ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy, harbiy madaniy – ma'rifiy jihatdan o'ziga xos, ma'lum bir murakkabliklar, ziddiyatli vaziyatlarni o'z ichiga olgani bilan ham ajralib buradi. Tili, dini, ruhiyati bilan turk - musulmon xalqlari bir – biriga yaqin bo'lsada, taraqqiyot darajasi, ishlab chiqarishi, dunyoviy fanlarga, taraqqiyot omillariga munosabatda bir – biridan bir muncha farq qilgan. Hududiy jihatdan bir imperiya tarkibiga kirganlariga qaramasdan, aslida geografik nuqtai – nazardan, ayrimlari, juda bir – biriga yaqin emasdi. Yuqorida keltirilgan bir – biriga yaqin va ayni paytda uzoq

bo'lgan omillarga, murakkab hamda ziddiyatli holatlarga qaramasdan, turk - musulmon xalqlarini bir – biriga tanitish, o'zaro hamkorlik aloqalarini o'rnatish, obrazli qilib aytganda ularning boshini qovushtirish davr taqozi jihatidan va hattoki bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. Rasmiy adabiyotlar

- 1.1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.: Ўзбекистон, 1997.
- 1.2. Каримов И.А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2015. 303 б.

II. Adabiyotlar

- 2.1. Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. I жилд. Т.: “Маънавият”, 1998, 272 б.
- 2.2. Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. II жилд. Т.: “Маънавият”, 1998, 303 б.
- 2.3. Абдуллаев Р.М. Просветительское и реформаторское движение в Фергане после российского завоевание / Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда. II Республика илмий анжумани. Фарғона. – С.160-170
- 2.4. Абдуллин Я.Г. Джадидизм среди татар: возникновение, развитие и историческое место. Казань, издательство “Иман”, 1998, 44 с.
- 2.5. Абдурахманов М. Научная деятельность А.З. Валидова в Туркестане Т.: Изд-во “Фан” Академии наук Республики Узбекистан, 2004, 239 с.
- 2.6. Абдурашидов З. Исмоил Гаспринский и Туркестан в начале XX века: связи – отношения – влияние Т: “AKADEMNASHR”, 2011, 376 с.
- 2.7. Алимова Д. Жадидчилик ҳаракати ва унинг ижтимоий – сиёсий моҳияти. Жадидларнинг давлатчиликка оид қарашлари. / Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. Т.: Шарқ, 2001, 112 б.
- 2.8. Алимова Д. Жадидчилик ҳаракатининг ижтимоий-сиёсий моҳияти ва жадидлар тафаккури / Жадидчилик: ислохот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Т.: “Университет”, 1999, 139 б.
- 2.9. Алимова Д., Рашидова Д. Махмудходжа Бехбудий и его исторические воззрения Т.: “Маънавият”, 1998. 38 с.
- 2.10. Алимова Д.А. Исторические мировоззрение джадидов и их проекция будущего Туркестана / Туркистон мустақиллиги ва бирлиги учун кураш саҳифаларидан. Т.: “Фан”, 1996, 83 б.
- 2.11. Алихожиев М.О. Қўқон хонлигида таълим тизими ва унда вақф мулкларининг туган ўрни (1800-1876 йй.). Тошкент, 2013, 115 б.
- 2.12. Ахмет Заки Валиди Тоган. Не считите за пророчество... Уфа, “КИТАП”, 1998, 192 с.

- 2.13. Ахметзаки, личность / Юлдашбаев А.М. Известный и неизвестный Заки Валиди, Уфа, «Китап», 2000, 318 с.
- 2.14. Баишев Ф.Н. Общественно – политические и нравственно – этические взгляды Ризы Фахретдинова. Уфа, “КИТАП”, 1996, 176 с.
- 2.15. Байкара Тунджер. Заки Валиди Тоган. Уфа. “Китап”, 1998, 328 с.
- 2.16. Бартольд В.В. Культура мусульманства. Петроград, 1918, 227 с.
- 2.17. Бартольд В.В. Сочинения. – Том II, часть I. – Москва, 1963, 796 с.
- 2.18. Бургомистрова Т.Ю., Гусакова В.С. Национальный вопрос в программах и тактике политических партий в России. 1905-107 гг. М., 1976, 262 с.
- 2.19. Гофуров Ш. Тарих ва тақдир: Россия империясидан Туркистонга кўчирилганлар. Т.: “Фан”, 2006, 224 б.
- 2.20. Граменицкий С. Положение инородического образование в Сыр – Дарьинской области Туркестанского генерал губернатора, 1916, 97 с.
- 2.21. Добромислов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Т., Элноров Гиогр литер. О.А. Порцеве, 1912, 88 с.
- 2.22. Долимов У. Исҳоқхон Ибрат. Т.: “Шарқ”, 1994, 140 б.
- 2.23. Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари. Т.: “Университет”, 2006, 127 б.
- 2.24. Долимов У. Туркистонда жадид миллий дунёвий бошланғич таълимнинг тараққий топиши. // Туркистон жадидчилиги-миллий уйғониш даври тарихи (XIX аср охири – XX аср бошлари). Наманган “Наманган” нашриёти, 2012, 324 б.
- 2.25. Епископ Алексей Современное движение в среди русских мусульман. Казань: Издание П.В. Шипинкина Центральная типография, 1910, 87 с.
- 2.26. Зиёева Д. Туркистон миллий озодлик ҳаракати. Т: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000 – Б.13
- 2.27. Илялова И. Межнациональные связи татарского театра Казань: Татарское книжное изд-во. 1985. 238 с.
- 2.28. Иоффе В.Т. Из истории многонациональных общественных организации Туркестана и Узбекистана // Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик тарихий тажриба ва ҳозирги замон (халқаро илмий-амалий анжумани 17-18 сентябрь 2010 йил) – Т.: MUMTOZ SO’Z, 2010 – Б.196-197
- 2.29. Исмоилбек Гаспринский (Гаспрали). Ҳаёт ва мамот масаласи. Танланган асарлар. Т.: “Маънавият”, 2006 – 317 б.
- 2.30. Исмоилова Ж. 1916 йил кўзғолони оқибатларининг Россия Давлат думасидаги муҳокамаси / Тарихнинг номаълум саҳифалари. Т.: “O’QITUVCHI”, 2010.

- 2.31. Исмоилова Ж. Фарғона водийсида миллий озодлик курашлари (1916 йил кўзғолони мисолида) Т.: Гафур Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2003, 272 б.
- 2.32. Исоқбоев А. Фарғона водийсида янги усул мактабларини ташкил этишдаги ҳамкорлик алоқалари тарихидан / Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда, Фарғона, 2012 – Б. 196-197
- 2.33. Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917 гг.) Т.: “Фан”; 1997. 203 с.
- 2.34. Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917 гг.) Т.: “ART FLEX”, 2009, 292 с.
- 2.35. Каримов Н. Миллий матбуотимизнинг ички машҳур сиймоси / Миллий матбуотимизнинг икки дурдонаси Т.: “MUMTOZ SOZ”, 2015, 103 б.
- 2.36. Каримов Н. XX аср бошларида тарихий вазият ва жадидчилик ҳаракатининг вужудга келиши – “Ўзбекистоннинг янги тарихи. Концептуал методологик муаммолар” мавзуидаги республика илмий – назарий анжумани материаллари. Т.: “Академия” нашриёти, 1998. Б. 67-69
- 2.37. Каримов Н. XX аср бошларидаги тарихий вазият ва жадидчилик ҳаракатининг вужудга келиши / Жадидчилик ва миллий истиқлол тантанаси (“Туркистонда жадидчилик ҳаракати ва мустақил Ўзбекистоннинг миллий истиқлол ғояси” мавзуидаги республика илмий – амалий конференцияси материаллари) Т.; 2002. Б. 51-52
- 2.38. Каримуллин А.Г. Татарская книга. Казань: Таткнигоиздать, 1974, 323 с.
- 2.39. Комилов О. Ўзбекистон миллий таълимидаги ўзгаришлар (XX асрнинг 20-йиллари). Тошкент “Академикнашр”, 2010, 120 б.
- 2.40. Қосимов Б. Гаспирли Исмоилбек Т.: Гафур Ғулом номидаги “Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. Т.: “Маънавият”, 1992, 48 с.
- 2.41. Қосимов Б. Миллий уйғониш...: жасорат, маърифат, фидойилик. Т.: “Маънавият”, 2002. 398 б.
- 2.42. Мингнарлов А. Туркистондаги ижтимоий – сиёсий жараёнларнинг миллий матбуотда ёритилиши (1917 – 1918 йиллар). Т.: “Истиқлол нури”, 2013, 155 б.
- 2.43. Мустафаева Н. XX асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур. Тарихшунослик таҳлили. Т.: “NAVRO’Z”, 2014, 335 б.
- 2.45. Насретдинова Д. Туркистон маданий ҳаётида татар аёллари – Т.: YANGI NASHR, 2015, 182 б.
- 2.44. Нафигов Р.И. Формирование и развитие передовой татарской общественно политической мысли Казань, 1964, 164 с.

- 2.45. Октябрьгэ кадэрге татар театры. Казан, Татарстан китап нъшщрияты, 1988, 398 б.
- 2.46. Расулов А. Мукаддас ёдгорлик / Тарих тилга кирганда... Даврий тўплам №7. Наманган, "Наманган нашриёти", 2015 – Б.191-199
- 2.47. Рахимов С. Социально – правовой статус татарских учебных заведений последней четверти XVIII - нач. XX вв. / Ислам в татарском мире: история и современность (материалы международного симпозиума, Казань 29 апреля- 1 мая 1996 г.). Казань, 1997 – С.76-77
- 2.48. Ризаев Ш. Жадид драмаси. Т.: «Шарқ», 1997, 317 б.
- 2.49. Ризаев Ш. Жадид маърифатчилиги ва театр / Жадидчилик: ислохот, янгиликлар, мустақиллик ва таракқиёт учун кураш Т.: Университет", 1999 – Б.119.
- 2.50. Рудь А.С. Депутаты – большевики в IV государственной думе. М.: "Просвещение", 1980, 77 с.
- 2.51. Саламов Ш. Туркестан и Южный Кавказ XIX – XX вв. Т.: Янги аср авлоди, 2005, 304 с.
- 2.52. Салихов А.Г. Общественно – политическая деятельность Ахметзаки Валидова в 1917 г. в Туркестане / Турар Рыскуловтын 110 жылдығина арналған халықаралық ғылым конференциянын материалдары Туркистан, 2005. – С. 168-169
- 2.53. Солиев И. Туркистонда татар ва бошқирларнинг сиёсий фаолиятлари тарихидан // Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик: тарихий тажриба ва ҳозирги замон (халқаро илмий-амалий анжуман – 17-18 сентябрь 2010 йил) – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2010 – Б.224
- 2.54. Темиров Ф. Пўлат Солиев . Т.: "ABU MATBUOT-KONSALT", 2011, 24 б.
- 2.55. Турдиев Ш. Среднеазиатские татары: роль и значение в культурной и политической жизни Туркестана первой четверти XX в. / Ислам в татарском мире: история и современность (Материалы международного симпозиума Казань, 29 апреля – 1 мая 1996г. Казань, 1997, 378 с.
- 2.56. Туркистон жадидчилиги – миллий уйғониш даври тарихи (XIX аср охири – XX аср бошлари) Наманган, "Наманган" нашриёти, 2012, 324 б.
- 2.57. Усманова Д. Мусульманская фракция и проблемы «Свободы совести» в Государственной Думе России (1906-1917). Казань; "Мастер Лайн", 1999, 164 с.
- 2.58. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Биринчи китоб. Тошкент, "Шарқ", 2000, 463 б.
- 2.59. Фомченко А.П. Русские поселения в Туркестанском крае. Т.: "Фан", 1983, 126 с.

- 2.60. Шамсутдинов Р. Тарихий меросимизга бир назар. Андижон, “Мерос”, 1994 – Б.11.
- 2.61. Шигабдинов Р.Н. Пробуждение Туркестана / Тарихнинг номаълум саҳифалари. Тўртинчи китоб. Т.: Фафур Гулом номидаги нашриёт – матбаа уйи, 2013
- 2.62. Шигабдинов Р. Дореволюционная политическая деятельность А.Валидов в Туркестане и национальная пресса / Миллий матбуотимизнинг икки дурдонаси Т.: “MUMTOZ SO’Z”, 2015 – С.46
- 2.63. Юлдашбаев А.М. Известный и неизвестный Заки Валиди. Уфа, “Китап”, 1998, 318 с.

III Davriy matbuot nashrlari

- 3.1. Абдурашидов З. “Мунозара” хусусида мунозара // Тафаккур, №1, 2013
- 3.2. Алимова Д. Ҳақиқатнинг туташ манзили // Тафаккур, №2, 2000
- 3.3. Бобажанова Ф. Бухоро амирлигида XIX аср охири XX аср бошларида анъанавий бошланғич мактаблар ҳолати // Ўзбекистон тарихи, №3, 2011.
- 3.4. Вамбери Ҳ. Маърифат йўлида уйғониш // Тафаккур №2, 2000
- 3.5. Гасырлар авазы – Эхо веков № 1/2 1996
- 3.6. Гасырлар авазы – Эхо веков // № 1/2, 1997
- 3.7. Гасырлар авазы – Эхо веков № 3/4. 1999

IV. Dissertatsiya va avtoreferatlar

- 4.1. Исоқбоев А. Туркистон ижтимоий – сиёсий ва маданий ҳаётида татар – бошқирд маърифатпарварларининг фаолияти (XIX аср охири – XX аср бошлари) Тарих фан. номз. дисс. Наманган, 2008, 179 б.
- 4.2. Насретдинова Д.М. Туркистоннинг маданий ҳаётида татар – бошқирд аёлларининг тутган ўрни (XIX аср охири XX асрнинг биринчи чораги): Тарих фан номз... дисс. – Тошкент, 2011, 166 б.
- 4.3. Казаков Т.К. Общественно политическое положение в Ферганской долине и джадидское движение в начале XX века. Автореферат дисс. на соиск. учен. степ., к.и.н., Ташкент, 2001, 27 с.
- 4.4. Ражабова Д.Н. Проблемы молодежи и женщин в воззрениях джадидов Туркистана (конец XIX начала XX вв.) Автороф. дисс. на соиск. учен. степ., к.и.н., Ташкент, 2003, 28 с.
- 4.5. Турсунов Р.Н. Воззрения национальных прогрессистов на социально – экономические прогрессы в Туркестане в начале XX века. автореф. дисс. на учен. степ., к.и.н., Ташкент, 2008, 26 с.

4.6. Қодиров Н.Н. Туркистон ўлкасидаги рус таълим муассасалари тарихи (1867-1917 йй.) Тарих фан номз. илм. дар. олиш учун автореф. Тошкент, 2011, 27 б.

4.7. Алихожиев М.О. Қўқон хонлигининг маданий ҳаётида мактаб ва мадрасаларнинг тугган ўрни (1800-1876 йй.). Тарих фан номз. дисс. автореферати. Тошкент, 2012, 28 б.

V. Hujjatlar to'plami va materiallar

5.1. Мусульманские депутаты Государственной думы России 1906-1917 гг. Сборник документов и материалов, Уфа «КИТАП», 1998

5.2. Медресе г. Казани XIX – нач. XX вв. Сборник документов и материалов. Казань, изд-во “Гасыр”, 2007

5.3. Хужатлар ва материаллар / Тарихнинг номаълум саҳифалари. Т: “OQITUVCHИ”, III китоб 2012.

VI Xotiralar

6.1. Заки Валиди Тоган. Воспоминания. Борьба народов Туркестана и других восточных мусульман – тюрок за национальное бытие и сохранение культуры. Книга I, Уфа “Китап”, 1994. 383 с.

6.2. Заки Валиди Тоган. Воспоминания. Борьба народов Туркестана и других восточных мусульман – тюрок за национальное бытие и сохранение культуры. Книга II, Уфа “Китап”, 1998. 368 с.

6.3. Аҳмад Закий Валидий Тўғон. Бўлинганни бўри ер. Туркистон халқларининг миллий мустақиллик учун кураши тарихидан. Хотиралар. Т.: “Адолат”, 1997, 279 б.